Quyidagi etilgan namlash usullarini paxta tozalash korxonalarida ishlatish tajribasi quyidagi kamchiliklar borligini ko'rsatdi.


- paxta va tolani namlashni tavsiya etilgan texnologiya va texnikalarini namlash samaradorligi 0,5% gacha bo'lib namlash bir tekis emas;
- paxtani jinlashgacha namlanganda, nam paxtani separator to'rtli yuzasiga tiqilib qolishi, jinlash jarayonini samaradorligi pasayishi, paxtani jin ishchi kamerasi devoriga ishqalanish koeffitsiyentini oshishi natijasida xom-ashyo valigining aylanish tezligi pasayadi va tiqilish yuzaga keladi, tolada nuqsonli aralashmalar miqdori oshadi. Namlash samaradorligi 0,2% atrofida bo'ladi.
- barcha variantlarda tolani namlash vaqti o'ta qisqa bo'lib, 3-5 sekundni tashkil etadi.
- tolani jindan keyin namlashda ma'lum vaqt davomida tola uzatish trubasida tola va iflosliklarni yopishib qolishi, tiqilishi natijasida tola tozalagich, kondensatorlarni barqaror ishlashi buziladi. Namlash samaradorligi 0,5% dan oshmaydi.
- tolani press tarnovi va shibbalash jarayonida namlanganda, zichligi 12 kg/m^3 , qalinligi $0,5 \text{ m}$ bo'lgan tola qatlamini yuza qismiga bug' purkalishi natijasida notekis namlash

vujudga keladi. Shibbalash plitalariga tolalarni yopishib qolishi, press kamerasining ichki qobig'i suv bilan ho'llanib qolishi natijasida ortiqcha yuklanish va zo'riqishni kuchayishiga, shuningdek, press eshigi mexanizmlarini, qulf detallarini ishdan chiqishiga olib keladi.

Paxta va tolni namlashga ta'sir etuvchi omillar sifatida paxtani namlash obekti sifatidagi xossalari, namlash agenti, paxta namlash qurilmalari konstruksiyalari va ularni o'rnatilish nuqtalarini kiritish mumkin. Namlashga ta'sir etuvchi omillarni chuqur o'rganish, ularni optimal qiymatlarini aniqlash, nazariy tahlil qilish, tolni namlashni ilmiy asoslangan texnologiyasini ishlab chiqishga sharoit yaratadi (1-rasm).

Paxta tozalash korxonalarining texnologik jarayonlarini bir qator nuqtalarida tolni namlash tavsiyalari berilib, 20 dan ortiq namlash usullari ishlab chiqilgan bo'lsada, hozirda asosan paxta tozalash oqimidan keyin, tola kondensator tarnovi va shibbalash jarayonida namlanmoqda. Lekin ularni namlash samaradorligi 0,2-0,5 % dan oshmayapti.

Paxta va tolni namlash texnikasi va texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlillaridan paxta va tolni boshlang'ich namliklari va ularni texnologik jarayonlardagi dinamikasi turli bo'lib, ularga mos ravishda namlash variantlari va rejimlarini tanlashni va amalga oshirishni talab etadi. Paxta va tolni namlash rejimlarini ishlab chiqishda uni temperaturasini namlik almashuviga ta'siri hisobga olish. Namlash nuqtasini tanlashda namlash vaqtini ko'paytirish, namlikni bir tekis taqsimlanishini ta'minlash uchun aralashtirish jarayonini amalga oshirish imkonini beruvchi texnologik uskunani tanlash va unda namlash jarayonini amalga oshirishi dolzarb vazifa hisoblanadi.



1-rasm. Paxta va tolni namlashga ta'sir etuvchi omillar

Usullar. Mavjud paxta va tolni namlash uskunalarini samaradorligini tahlili, tolni namlanish obekti sifatida gigroskopik, gigrotermik va sorbsion xususiyatlarini to'liq inobatga olmaslik, namlash jarayonlarida namlik va issiqlik almashuv jarayonlarini nazariy asoslari yaratilmaganligini ko'rsatdi.

Demak, bug' yordamida kondensatsiya hisobiga namlanishni kerakli tezligiga erishish mumkin. Suv bug'ini kondensatsiyasi nazariyasi [6,7] bo'yicha yuqori temperatura va porsial bosimga ega bo'lgan namlash agenti temperaturasi past bo'lgan tola yuzasiga kondensatsiya bo'ladi. Namlash jarayoni amalga oshadi. Agar paxta ma'lum qalinlikdagi qatlam (kondensorda, kondensordan keyin, press tarnovida, shibbalash plitasidagi) holatida bo'lsa, qatlam ichi va

pastki qismlari namlanmaydi, notekis namlanish sodir bo‘ladi. Odatda namlanadigan materialga kondensatsiya bo‘lgan suv bug‘i bir molekula qalinligida monomolekulyar suv qatlami hosil qiladi, bu juda tez amalga oshadi. Masalan, kapillyar-g‘ovak material nisbiy namligi $\varphi=10\%$ bo‘lgan havoda turganda 1 sekundda 1 sm^2 yuzaga urilayotgan molekulalar soni $8,5 \cdot 10^{10}$ ga teng bo‘ladi, 1 sm^2 yuzani monomolekulyar qatlam bilan berkitish uchun 10^{15} suv molekulasini yetarli bo‘ladi [8]. Buncha molekula $1/10^6$ sekundda materialga uriladi. Urilgan molekulalarni bir qismi material yuzasida qoladi. Bir qismi esa yana qaytib havoga o‘tadi.

Agarda 1 sekundda 1 sm^2 yuzaga urilayotgan molekulalarni n_Q -deb, materialda qolganini n_M - deb, havoga qaytganini n_X desak,

$$n_M = n_Q - n_X \quad (1)$$

Monomolekulyar qatlamdagi namlik tola bilan kuchsiz bog‘lanishda bo‘lib, oson ajralib ketishi mumkin. Namlash samaradorligini aniqlash uchun kondensatsiya koeffitsiyenti qiymatini bilish kerak. Kondensatsiya koeffitsiyenti K , ushlab qolinayotgan molekulalar sonini kondensat yuzasiga urilayotgan molekulalarni umumiy soniga nisbati bilan o‘lchanadi [9].

$$K = \frac{n_M}{n_Q} \quad (2)$$

Namlash jarayoni davom etsa, monomolekulyar qatlam qalinlashib polimolekulyar qatlam hosil bo‘ladi. Paxta tolasiga kelsak, u xo‘llanmaydigan material hisoblanib uni namlanishida monomolekulyar qatlam hosil bo‘lmaydi. Kondensatsiya bo‘lgan namlik tola yuzasiga turli o‘lchamdagi tomchilar holida o‘tiradi. Suvni kondensatsiya bo‘lishini asosiy potentsiali temperaturalar farqi bo‘lib suvni kondensatsiya bo‘lish imkoniyatini beruvchi holat bu namlash agenti, ya‘ni suv bug‘i temperaturasini pasayish darajasiga bog‘liq bo‘lib, bug‘ ni kritik sovish (ΔT_k) qiymatiga qarab suv qatlamiga qo‘shimcha namlik, namlash agentidan kondensatsiya bo‘lishi yoki tola yuzasidan bug‘lanishi mumkin.

Bug‘ni kritik sovishi quyidagicha aniqlanadi [10]:

$$\Delta T_k = T_b - T_t = \frac{2\sigma T_b}{r\rho_j R_K} - \frac{PT_b}{r\rho_j} \quad (3)$$

bunda T_b - bug‘ temperaturasi, T_t - tola yuzasi temperaturasi, r - bug‘lanish issiqligi, ρ_j – suv zichligi, σ -kondensatsiya bo‘lgan suvni sirt taranglik kuchi, R_K - tomchini kritik radiusi, P - yopishtiruvchi bosim.

Agar namlash agentini tola bilan yuzlashganda sovish temperaturasi $\Delta T > \Delta T_k$ bo‘lsa, suv bug‘ining tola yuzasiga kondensatsiya bo‘lishi kuzatiladi. Agar $\Delta T < \Delta T_k$ bo‘lsa, tola yuzasidagi namlik bug‘lanib namlash agentiga o‘tishi mumkin, agar $\Delta T = \Delta T_k$ bo‘lsa, muvozanat holat yuzaga keladi.

Umumiy holda tola yuzasida ma‘lum vaqt davomida juda ko‘plab tomchilar bo‘lib ularni radiusi kritik (mumkin bo‘lgan eng kichik) radius R_K dan tomchini uzilish radiusigacha o‘zgaradi. Kondensatsiya hisobiga tomchilar o‘lchami oshib boradi va R_0 ga yetganda toladan uziladi, uni o‘rnini yangi hosil bo‘lgan tomchi egallaydi. Ushbu holatdagi eng muhim jihat bu tomchi uzilishi hisoblanadi. Tolani harakat holatiga qarab uzilgan tomchilar tolalar ichida qolishi yoki ajralib havoga o‘tib ketishi mumkin.

Har qanday qattiq mexanik yoki aerodinamik ta‘sir kondensatni toladan ajralib ketishiga olib keladi namlik samaradorligi bo‘lmaydi. Qayd etilgan nazariy tahlillar asosida mavjud paxta va tolani namlash jarayonini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, paxta tozalashdan keyin bug‘ purkash yordamida namlashda pnevmotransportda separatorga uzatiladi. Transportirovka paytida havoni tezligi paxta tezligidan ikki barobar ko‘pligi tufayli tola yuzasida tomchi holidagi namlikni o‘zi bilan olib ketadi [11].

Mavjud press tarnovida tola namlashda esa 50 sm , zichligi 12 kg/m^3 bo‘lgan tolani yuza qismiga purkalgan namlik o‘ta notekis namlashiga olib keladi. Agar standart talabi bo‘yicha ishlab chiqiladigan I-II nav tolalar namligi 7,5% va III-IV, V navlarni 8,5% gacha namlash ko‘zda tutilgan bo‘lsa, unda talab etilgan namlash samaradorligi (ΔW_T)

$$\Delta W_T = W_T^{CT} - W_T$$

I va II nav tolalar uchun $\Delta W_T = 7,5 - W_T$
 III, IV, V navlar uchun $\Delta W_T = 8,5 - W_T$ bo'ladi.

bunda W_T^{CT} - tolani talab etilgan standart namlik meyori, %,

W_T - tolani texnologik jarayonda namlashdan oldingi namligi, %.

Agar paxta quritilmasdan qayta ishlansa paxtani namligi bilan tola namligi o'rtasidagi bog'lanishni inobatga olib

$$\Delta W_T = W_T^{CT} - 0,7W_n \text{ bo'ladi} \quad (4)$$

W_n - qayta ishlanayotgan paxta namligi, %

Texnologik reglament talabi bo'yicha I-II nav paxtalarni 8%, qolgan navlar 9% namlikda qayta ishlanishini inobatga olsak namlash samaradorligi

$$\Delta W = 7,5 - 0,7 \cdot 8 = 1,9 \text{ \% (I va II nav paxta uchun)}$$

$$\Delta W = 8,5 - 0,7 \cdot 9 = 2,2 \text{ \% (III, IV, va V navlar uchun)}$$

bo'lishi kerak.

Demak, belgilangan texnologik reglament bo'yicha paxta qayta ishlanganda ham tolani 1,9 – 2,2 % namlash extiyoji vujudga kelar ekan.

Keltirilgan ifodalardan ko'rinib turibdiki, tolani namlash texnologiyasi va uskunasi maksimal hamda minimal namlash samaradorligi paxta va uni tolasini boshlang'ich namligiga, uni qayta ishlash rejimiga bog'liqdir. Tolani namlash W_T ni qiymati paxtani boshlang'ich namligi va unga ta'sir etuvchi omillarga bog'liq, ya'ni

$$W_T = f(W_n^{\delta}, Q_x, t_x, P, n_k, \Delta Wk) \quad (5)$$

bunda W_n^{δ} - paxtani boshlang'ich namligi, %,

Q_x - quritish barabanida havo sarfi $m^3/soat$,

t_x - quritish temperaturasi, $^{\circ}C$,

P - quritish barabanini ish unumi

n_k - quritish soni

k - tola namligini quritish barabanidan keyingi texnologik jarayonlarda o'zgarishini ifodalovchi koeffitsiyent.

Demak, tolani namlash texnologiya va uskunalarini tanlash uchun ya'ni, ularni namlash samaradorligini aniqlash uchun, birinchi navbatda paxtani boshlang'ich namligi qiymatini navlar bo'yicha o'zgarish chegarasi va ularni texnologik jarayondagi dinamikasi qonuniyatini bilish kerak bo'ladi.

Shuning uchun paxta yoki tolani namlash uchun sarf bo'ladigan namlik miqdori, jarayon suv purkash yoki bug' yordamida amalga oshiriladimi yo'qmi bundan qat'iy nazar, tolani namligi va ish unumiga bog'liq bo'lib, o'zgarib turadi. Demak, namlash texnologiyasi va uskunalar namlik bo'yicha o'zgaruvchan ish unumi bilan ishlashi talab etiladi. Buning uchun esa kerakli namlik sarfi miqdorini bilish talab etiladi [12].

Ma'lumki, tola tarkibidagi namlik quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$M_1^{nam} = \frac{G_1 \cdot W_1}{100\%} \quad (6)$$

Namlangandan keyingi namligi esa

$$M_2^{nam} = G_2 \frac{W_2}{100\%} \quad (7)$$

bu yerda G_1 va G_2 - tolani namlashdan oldingi va namlangandan keyingi og'irliklari, kg .

W_1 va W_2 - tolani namlashdan oldingi va keyingi namligi, %.

Tolani namlash jarayonida olgan namlik miqdorini aniqlash quyidagicha:

$$\Delta M_2^{nam} - M_1^{nam} = G_C \frac{W_2 - W_1}{100\%} \quad (8)$$

G_c - absolyut quruq tola og' irligi, $kg/soat$. U quyidagicha aniqlanadi:

$$G_c = \frac{100\%G_1}{100\%+W_1} = \frac{100\%G_2}{100\%+W_2} \quad (9)$$

Namlashga berilayotgan tola og' irligi

$$G_1 = G_2 \frac{100\%+W_2}{100\%+W_1} \quad (10)$$

Namlashdan keyingi tola og' irligi

$$G_2 = G_1 \frac{100\%+W_1}{100\%+W_2} \quad (11)$$

Namlagichda suv sarfi

$$U_y = \frac{1}{\varphi} (G_2 - G_1) = \frac{1}{\varphi} G_1 \frac{W_2 - W_1}{100\% + W_1} = \frac{1}{\varphi} G_2 \frac{W_2 - W_1}{100\% + W_2} \quad (12)$$

bunda φ -suv sarfi bo'yicha foydali ish koeffitsiyenti, ΔU_T - tolaga o'tgan namlik miqdori, kg .

U_{ym} - umumiy namlik sarfi.

Tadqiqot natijalari tahlili. Ishlab chiqarishda tola bo'yicha ish unumdorligi 1500 $kg/soat$ dan 2500 $kg/soat$ gacha, namlash miqdori esa 1 % dan 3 % gacha o'zgarsa namlagichda kerakli namlik miqdori 1-jadvalda keltirilgan.

1-Jadval

Tolani namlashdagi bug' sarfi

Tolani namlanish foizi, %	Bug' sarfi, $kg/soat$											
	Tola bo'yicha ish unumdorligi, $kg/soat$											
	1500				2000				2500			
	Koeffitsiyent φ qiymati											
	0,7	0,8	0,9	1,0	0,7	0,8	0,9	1,0	0,7	0,8	0,9	1,0
1	21,22	18,56	16,5	14,85	28,29	24,75	22,0	19,8	35,36	30,94	27,5	24,75
2	42,01	36,76	32,68	29,41	56,03	49,03	43,58	39,22	70,03	61,28	54,47	49,02
3	62,41	54,61	48,54	43,69	83,22	72,81	64,72	58,25	104,0	91,03	80,91	72,82

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, namlash uchun bug' sarfi koeffitsiyent φ qiymatiga bog'liq bo'lib, tolani 1% dan 3% gacha namlashda ish unumdorligi 1500 $kg/soat$ da $\varphi=0,7$ da, $\varphi=1,0$ ga nisbatan mos ravishda 6,37 dan 18,72 $kg/soat$, 8,49 dan 24,97 $kg/soat$ va 10,61 dan 31,18 $kg/soat$ gacha suv bug' i sarfi ko'p.

Namlagichni ishlash muddati va suvni bug'ga aylantirishga sarflanadigan elektr energiyani hisoblaydigan bo'lsak salmoqli iqtisodiy yo'qotish bo'layotganini ko'rish mumkin. Shuning uchun namlash uchun berilayotgan suv bug'idan foydalanish koeffitsiyenti φ qiymatini $\varphi \approx 1$ ga keltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Suv sarfi bo'yicha foydalanish koeffitsiyenti suv bug'i bosimi R_b , harorati t_b bug' purkash teshigidan tola yuzasigacha bo'lgan masofa Δ , namlangandan keyin tolani ochiq havoda qolish vaqti τ , namlangan tolani uzatishda namlik yo'qotilishi ΔW_y tola toyidan atrof muhitga namlikni bug' lanishini inobatga oluvchi koeffitsiyent P ga bog'liq bo'ladi, ya'ni

$$\varphi = f(R_b, t_b, \Delta, \tau, \Delta W_y, P)$$

Paxta tozalash korxonalarida ishlatilayotgan bug' tayyorlash uskunasida $R_b=3$ $kg/soat$, $t_b=85$ °S o'zgaras qoladi, undan foydalanamiz. Materialni namlashda purkagich teshigi bilan tola yuzasi orasidagi Δ masofani namlash sifatiga ta'siri ahamiyatli darajada ekanligi bir qator tadqiqotlarda asoslangan.

Purkalayotgan suv va bug' zarrachalari teshikdan fakel shaklida chiqadi va havo ta'siriga uchrab mayda bo'laklarga bo'linadi. Fakel ma'lum masofagacha o'z shaklini saqlab qolib vaqt davomida sirt tarangligi va yuza kuchlari hisobiga mayda tomchilarga ajrala boshlaydi. Bunda eng muhim masala oraliq Δ ni fakel uzunligi L_f dan katta bo'lishi hisoblanadi. Agar $\Delta < L_f$ bo'lsa purkalayotgan namlik mayda tomchilarga to'liq ajralishga ulgurmaydi. Natijada tola yuzasiga

qatlam suv holida yopishib, uni jiqqa xo'1 qilib qo'yadi, ortiqcha katta bo'lsa purkalayotgan suv tomchilari atrof muhitga bug'lanib ketishi oshadi.

Kondensatsiya bo'lgan suv tomchilari tola ochiq havoda tursa yoki pnevmouzatishda bo'lsa bug'lanib havoga o'tib ketadi va bug'lash samaradorligini pasaytiradi, suv yo'qotilishi ko'payadi. Tolani boshlang'ich namligini inobatga olgan xolda namlash rejimining asosiy ko'rsatkichlarini hamda namlash vaqtini aniqlash uchun nazariy tadqiqotlar o'tkazishni talab etadi. Bunda namlanish tezligini aniqlash muhim hisoblanadi. Adabiyotlar tahlili paxta va tolani namlash bo'yicha nazariy asoslar deyarli yaratilmaganligini ko'rsatadi. Ma'lumki, namlash jarayonida tola, namlash agenti va atmosfera havo o'rtasida o'zaro namlik, issiqlik almashuv jarayoni amalga oshadi. Odatda namlash agenti temperaturasi yuqori bo'lganligi tufayli undagi issiqlik tola va havoga o'tadi.

Tomchi holatidagi suv bug'ini bir qismi havoga bug'lanishi, bir qismi esa tolada qolishi mumkin. Tolada qoladigan namlik miqdori suv va bug'ning qayishqoqlik koeffitsiyenti μ va yuza tortilish kuchlari σ_v ga bog'liq bo'ladi.

Ma'lumki, suvni dinamik qovushqoqligi quyidagicha aniqlanadi:

$$\mu = \frac{P}{F} * \frac{dV}{dn} \quad (13)$$

bunda R -suv zarrachasiga ta'sir etuvchi urinma kuch; F -havo bilan suvning kontakt yuzasi; V -suv zarrachalari qatlamini T kuch ta'siridagi nisbiy tezligi; n -suv zarrachalari elementar qatlami qalinligi.

Harorat oshgan sayin tomchi holatidagi suyuqliklarni qovushqoqligi sezilarli darajada kamayadi, havoniki esa oshadi. Buning sababi gazlarni qovushqoqligi molekulyar-kinetik tabiatidan kelib chiqsa, suyuqliklarda qovushqoqlik molekularini ilashish kuchiga bog'liq.

Suv tomchilari va unga tegib turgan havo o'rtasidagi hosil bo'lgan kontakt yuzaga sirt taranglik kuchi ta'sir etadi. Sirt taranglik kuchi temperaturaga bog'liq bo'lib, quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\sigma_v = B \left(\frac{T_c - T}{T_c} \right)^m \left[1 + v \left(\frac{T_c - T}{T_c} \right) \right] \quad (14)$$

Bu yerda suv uchun $B = 235,6 * 10^{-3} n/m$; $v = -0,625$; $m = 1,256$; T -kritik harorat $T=647,15K$, T_c -suvni temperaturasi.

Xulosa. Barcha paxta tozalash korxonalarida kuzatilgan holat-namlangan tola toyi vaznini kamayishi amaliyotda tola sotib oluvchi e'tiroziga sabab bo'lib keladi. Buni asosiy sababi tolani kondensator tarnovida qatlamda ustki qismini toyni yon tashqi tomoniga tushib qolishi natijasida saqlash jarayonida bug'lanib ketishi hisoblanadi. Paxtani dastlabki ishlashning texnologik jarayonlarida 3-4 minut namlash uchun vaqt imkoni yo'qligi, tolani havodan namlikni sorbsiya usulida olish hisobiga namlanishi samarasi yetarli emasligi sababli boshqa usullarni qo'llash maqsadga muvofiq deb xisoblaymiz. Amaliyotda paxta va tolani namlash nuqtalarida kondensatsiya bo'lgan namlik ma'lum muddat tashqi havo bilan kontaktda bo'lishi hisobiga bug'lanib ketishi natijasida samaradorlik pasayishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, olingan tajribaviy va hisobiy natijalarni qiyosiy tahlili tavsiya etilayotgan tolani namlanish kinetikasi formulalari namlash jarayonini to'liq ifodalay olishini ko'rsatdi. Tajribaviy va hisobiy natijalardagi farqi xatolik maksimum 6,3 % ni tashkil etar ekan. Tola yuzasidagi suv tomchisini bug'lanishi yoki havodan kondensatsiya hisobiga oshishi, havo harorati undagi namlikni porsial bosimi o'zgarmas bo'lganda suv va bug'ning dinamik qovushqoqligi va suvning sirt taranglik kuchlariga bog'liq bo'ladi. Tolani namlanishi uni zichligiga ta'sir etishi, zichlik oshgan sayin namlanish miqdori kamayishi kuzatildi.

Reference

1. Nikitin R.P. Issledovaniye metodov sovershenstvovaniya protsessa uvlajneniya xlopkovogo volokna pered pressovaniyem: Dissertatsiya na soiskaniye stepeni kandidata texnicheskix nauk.- Tashkent, 1978.- s. 43-47.
2. Gulyayev R.A., Imamutdinov M.M. O rezultatax ispitaniy uvlajnitelya xlopkovogo volokna UVR // Problemi tekstily. -2010. -№3. -S. 10-14.
3. Lugachev A.Y., Gulyayev R.A., Mardonov B.M. O rezultatax ispitaniy opitno-promishlennogo obrazsa uvlajnitelya xlopka-sirsa «UXS» na Chinazskom xlopkozavode // Problemi tekstily. - 2016. -№1. -S. 13-23.
4. Zairov F.A. Issledovaniye uvlajneniya xlopkovogo volokna i yego vliyaniye na fiziko-mexanicheskiye svoystva. Tashkent.1979. diss.kan.texn.nauk s 68-74
5. Gulyayev R.A. Metodi sozdaniya kompleksnoy texnologii uvlajneniya xlopka –sirsa i xlopkovogo volokna na xlopkoochistitelnix zavodax. Diss. d.t.n, Tashkent 2016.
6. Ibragimov X.I. Sovershenstvovaniye teorii i texnologii podgotovki xlopka sirsa k protsessu djinirovaniya dlya soxraneniya prirodnix svoystv volokna i semyan./diss.d.t.n. Kostroma. 2009 354s.
7. Losyanskiy L.G.Mexanika jidkosti i gaza. M.Nauka, 1973, 847 s.
8. Efficiency of cotton and fiber wetting in cotton ginning plants. Bosma E3S Web Conferences 497, 03055 (2024) ICECEA 2024,7b., N.A.Khusanova, I.R.Shamsiyev, M.A.Gapparova
9. A.Parpiyev, N.A.Xusanova. Paxta tolasini namlash agentlarini xususiyatlari// “Paxta tozalash, to‘qimachilik, yengil sanoat, matbaa, ishlab chiqarish texnika texnologiyalarni modernizatsiyalash sharoitida iqtidorli yoshlarning innovatsion g‘oyalari va ishlanmalari” Respulika ilmiy-amaliy onlayn tezislar to‘plami. TTESI, 2020 yil 18 noyabr,103-106 b.
10. Likov A.V. Teplomassaobmen. Moskva. EnergiY. 1982 s 275-284.
11. L.M.Nikitina. termodinamicheskiye parametri i koeffitsiyenti massaperenosa vo vlajnix materialax. Moskva. energiy. 1968 s 9-17.
12. Lugachev A.YE, Gulyayev R.A. Razrabotka texnologii obemnogo uvlajneniya volokna pered pressovaniyem. Vestnik molodix uchenix, Sankt-Peterburg.2004, №1 s.12-15.

УДК 681.511.4

AVTOMATIK ROSTLASH SISTEMALARIDA ADAPTIV TO‘G‘RILASH QURILMASINI QO‘LLASH

X.B.Mirzaaxmedova

Tashkent Institute of Textile and Light Industry

***Annotatsiya.** Chastotaviy xarakteristikalarini maqsadli o‘zgartirish metodlaridan eng ko‘p qo‘llaniladigan – proporsional – integrodifferensial rostlagichlarning parametrlarini o‘zgartirishga asoslanadi. Samarali bo‘lib hisoblanadigan va avtomatik rostlash sistemalarida maxsus adaptiv to‘g‘rilovchi qurilmalar qo‘llanishiga asoslanadigan metodlaridan biri bu ma‘lum ko‘rinishda o‘zining parametrlarini o‘zgartirgan holda, avtomatik rostlash sistemasining dinamik xususiyatini to‘g‘rilaydi va shu bilan birga boshqarish obyektining noturg‘unligini kompensatsiya qilishga asoslanib ishlaydi.*

Maqolada avtomatik rostlash sistemasining dinamik hususiyatlarini adaptiv mavhum chiziqli ikki kanalli to‘g‘rilovchi qurilmasi taklif etildi. Adaptiv mavhum chiziqli ikki kanalli to‘g‘rilovchi qurilmaga ega avtomatik rostlash sistemasida tadqiqot o‘tkazildi va boshqarish ob‘ektida noturg‘un parametrlariga ega avtomatik rostlash sistemasida taklif etilayotgan tog‘rilagich qo‘llanilganida, uning samaradorligi ko‘rsatib berilgan. Ko‘rib chiqilayotgan ishda PID – rostlagichi va dinamik xarakteristikalarini ketma – ket adaptiv mavhum chiziqli ikki kanalli to‘g‘rilagich qurilmasiga ega avtomatik rostlash sistemalari xususiyatlarini tadqiq etish

natijalari keltirildi. Mavhum chiziqli ikki kanalli to'g'rilagichning strukturasi keltirildi va tahlil qilindi. Ikki kanalli mavhum chiziqli to'g'rilovchi qurilmaga ega avtomatik boshqarishning adaptiv sistemasining sxemasi ko'rib chiqildi va unda chiziqli filtr sifatida ikkinchi tartibli Chebisheva filtridan foydalanildi.

Olingan natijalarga ko'ra, taklif etilayotgan to'g'rilovchi qurilma ishlab chiqarishda mavjud rostlash sistemalari tarkibiga kiritilishi mumkin va undan foydalanilgan holda ish rejimining samaradorligini oshirish imkoni mavjudligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: avtomatik rostlash, adaptiv sistema, to'g'rilovchi qurilma, filtr, chastotaviy xarakteristika, boshqarish sifati.

Аннотация. Наиболее распространенными методами целенаправленного изменения частотных характеристик регулирующего устройства являются методы, основанные на изменении параметров пропорционально-интегродифференциальных регуляторов. Эффективным является метод на основе применения в системах автоматического регулирования специальных адаптивных корректирующих устройств, которые, определенным образом меняя свои параметры, корректируют динамические свойства системы автоматического регулирования, тем самым компенсируя нестационарность объекта управления. В статье предложено адаптивное псевдолинейное двухканальное корректирующее устройство динамических свойств систем автоматического регулирования. Проведено исследование свойств систем автоматического регулирования с адаптивным псевдолинейным двухканальным корректирующим устройством. Показана эффективность использования предложенного корректора в системах автоматического регулирования с нестационарными параметрами объекта управления. Приведена схема системы автоматического регулирования с адаптивным псевдолинейным двухканальным корректирующим устройством и в качестве полосового фильтра использован фильтр Чебышева второго порядка. Предлагаемое корректирующее устройство можно добавлять в состав уже действующих на производстве систем регулирования, реализованных на базе микропроцессорных контроллеров, без дополнительных затрат на аппаратную часть и тем самым повышать качество регулирования.

Ключевые слова: автоматическое регулирование, адаптивная система, корректирующее устройства, фильтр, частотная характеристика, качество управления.

Annotation. The most common methods of purposefully changing the frequency characteristics of a control device are methods based on changing the parameters of proportional-integro-differential regulators. An effective method is based on the use of special adaptive corrective devices in automatic control systems, which, changing their parameters in a certain way, correct the dynamic properties of the automatic control system, thereby compensating for the non-stationarity of the control object.

The article proposes an adaptive pseudo-linear two-channel correcting device for the dynamic properties of automatic control systems. The properties of automatic control systems with an adaptive pseudo-linear two-channel correction device have been studied. The efficiency of using the proposed corrector in automatic control systems with non-stationary parameters of the control object is shown. A diagram of an automatic control system with an adaptive pseudolinear two-channel correction device is presented and a Chebyshev filter of the second order is used as a bandpass filter.

The proposed corrective device can be added to the composition of control systems already in operation in production, implemented on the basis of microprocessor controllers, without additional hardware costs and thereby improve the quality of regulation.

Keywords: automatic regulation, adaptive system, corrective devices, filter, frequency response, control quality.

Kirish. Jarayonlarni rostdashning adaptiv sistemalaridan biri bo'lib, chastotaviy xarakteristikalari muvozanatlashtiriladigan sistemalar hisoblanadi. Bajarilishida sodda va ma'lum bir chastotada amplituda – chastotaviy xarakteristikasi (AChX) qiymatlarini stabilashtiradigan sistema bo'lib, avtomatik rostdash sistemasi hisoblanadi. Bunday sistemalarni yaratishda ikkita muammo yuzaga keladi, ulardan birinchisi fazalarni o'lchab olishda qiynchilik tug'ilishi, ayniqsa halaqitlar mavjud bo'lganida, ikkinchisi – chiziqli boshqarish qurilmalarining parametrlari o'zgarishi bir vaqtning o'zida ham amplituda – chastotaviy xarakteristikasi (AChX), ham fazoviy xarakteristikalarining (FChX) o'zgarishiga olib keladi. Shuning uchun chiziqli sistemalarda bir vaqtning o'zida berilgan xarakteristikalarining talab etilayotgan qiymatlarini ta'minlash imkoni mavjud emas. Rostlovchi qurilmaning chastotaviy xarakteristikalarini maqsadli o'zgartirish metodlaridan eng ko'p qo'llaniladigani proporsional–integrodifferensial rostlagichlarning (PID-rostdagichlar) parametrlarini o'zgartirishga asoslanadi. Kam qo'llaniladigan, ammo samarador bo'lib hisoblanadigan avtomatik rostdash sistemalarida (ARS) maxsus adaptiv to'g'rilovchi qurilmalar qo'llanishiga asoslanadigan metodlari mavjud, va ular ma'lum ko'rinishda o'zining parametrlarini o'zgartirgan holda, ARS dinamik xususiyatini to'g'rilaydi va shu bilan birga boshqarish obyektining noturg'unligini kompensatsiya qiladi.

PID – rostlagichi va dinamik xarakteristikalarini ketma – ket adaptiv mavhum chiziqli ikki kanalli to'g'rilagich qurilmasiga ega ARS xususiyatlarini tadqiq etish natijalari tahlili ko'rib chiqildi.

Nazariy tadqiqotlar. Adaptatsiya usullari, rostdash sistemaning ishlash jarayonida rostlagich parametrlari o'zgaraydi va sistema ishga tushishidan oldingi sozlanmaga mos kelishi bilan asoslanadi. Bundan tashqari, boshqarish objekti parametrlarining o'zgarishiga bog'liq bo'lgan holda rostdash sistemaning ish rejimida to'g'rilagichning uzatish koeffitsienti yoki u hosil qiladigan fazoviy siljish o'zgarib boradi. Bunday o'zgarishlar ARS rostdash sistemaning sifati qoniqarsiz deb topilganidagina sodir bo'ladi. Ushbu holat sistemaning turg'unligini ta'minlash imkonini beradi va o'tkinchi jarayon sifatini oshiradi. Adaptiv sistemani amalga oshirish uchun mavhum chiziqli ikki kanalli to'g'rilovchi qurilmaning tanlanishi quyidagicha tavsiflanadi. ARS dinamik xususiyatlarini o'zgartirish qo'llaniladigan to'g'rilagichlarni chiziqli, nochiziqli va mavhum chiziqli turlariga ajratish mumkin. Chiziqli to'g'rilagichlarning asosiy kamchiligi, uning parametrlari o'zgarishida, bu o'zgarishlar AChX va FChX ga ham ta'sir ko'rsatishidir. Ushbu holatda, zarur fazoviy chastotaviy xarakteristikaga erishishda, o'rta va yuqori chastota muhitida o'sib boruvchi AChX ni olish mumkin va ushbu holat ARS ning turg'unlik zaxirasi kamayishiga olib keladi. Shuningdek, zarur AChX ga ega bo'lgan holda, $-\pi$ rad ga yaqin manfiy qiymatni oluvchi ochiq sistemaning FChX sini ham hosil qilishi mumkin va ushbu holat ham sezilarli darajada turg'unlik zaxirasini kamaytiradi. O'tkazilgan tadqiqot, zamonaviy matematik qurilmalardan, masalan noqat'iy mantiqdan foydalanilganida ham chiziqli to'g'rilagichlarning adaptatsiya jarayoni diapozoni bo'yicha va boshqarish objekti parametrlarining o'zgarishi xarakteri bo'yicha cheklangan bo'lganidagina amalga oshishi mumkin ekanligini ko'rsatdi. Nochiziqli to'g'rilagichlarni qo'llashda, chastotaviy xarakteristikalar kirish signalining garmonik tebranishlar amplitudasiga bog'liqligi ham inobatga olish kabi muammo yuzaga keladi.

Dinamik xarakteristikalarining adaptiv mavhum chiziqli to'g'rilagichni qo'llash talab etiladigan amplitudali va fazoviy chastotaviy xarakteristikalariga ega bo'lish imkonini beradi. Odatda bu qurilma ikkita kanalga ega (amplitudali va fazoviy) va ular bir – biriga bog'liq bo'lmagan holda sozlanadi. Shu bilan birga mavhum chiziqli to'g'rilovchi qurilmalarning chastotaviy xarakteristikalari kirish signalining garmonik tebranishlar amplitudasiga bog'liq emas.


O'tkazilgan tajriba yordamida adaptiv sistemalarni joriy etishda mavhum chiziqli to'g'rilagichlarni qo'llash samaradorliroq bo'lib hisoblanishi isbotlab berildi. Ularni qo'llash, boshqarish obyektining parametrlarini va ta'sir etuvchi g'alayonlar xarakterlarining keng diapozonida avtomatik rostdash sistemalariga qo'yiladigan talablarni bajarish imkonini beradi. Mavhum chiziqli to'g'rilovchi qurilmani boshqaruvchi ta'sirlarni shakllantirishda, ishtirok etuvchi va boshqarish sifatini oshiruvchi qo'shimcha vosita deb ham qarash mumkin.

Tajribaviy izlanishlar. Mavhum chiziqli ikki kanalli to‘g‘rilovchi qurilma ko‘rib chiqildi. 1 – rasmda taklif etilayotgan mavhum chiziqli ikki kanalli to‘g‘rilagichning strukturasi keltirilgan. Bu to‘g‘rilagich rostlagich yordamida ketma – ketlikda yoqiladi. 1 – rasmda ko‘rsatilganidek, to‘g‘rilovchi qurilma ikkita kanallardan iborat: amplitudali (yuqori) va fazoviy (pastki). Amplitudali kanal aperiodik zveno va modulni ajratuvchi zvenodan iborat.

Amplitudali kanalning uzatish funksiyasi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$W_a(s) = \frac{K}{Ts + 1},$$

bu yerda K – to‘g‘rilagich amplituda kanalining aperiodik zvenosining statik uzatish koeffitsienti; T – vaqt doimiysi.



1-rasm. Mavhum chiziqli ikki kanalli to‘g‘rilagich sxemasi

E , $E1$ – to‘g‘rilagichning kirish va chiqish signallari; $W_a(s)$ – to‘g‘rilagichning amplitudali kanalining uzatish funksiyasi; $W_\phi(s)$ – to‘g‘rilagichning fazoviy kanalining uzatish funksiyasi; sign – belgini aniqlash bloki.

Aperiodik zveno yuqori chastotali halaqitlarni o‘tkazmagan holda, past chastotali filtr kabi ishlaydi. Fazoviy kanal quyida keltirilgan uzatish funksiyasi mavjud integrodifferensiallovchi zvenoga ega

$$W_\phi(s) = \frac{T_2s + 1}{T_1s + 1},$$

bu yerda T_1 , T_2 – to‘g‘rilagichning fazoviy kanalining integrodifferensiallovchi zvenoning vaqt doimiysi.

To‘g‘rilovchi qurilmaning adaptatsiya jarayoni, to‘g‘rilagichning amplitudali kanalining aperiodik zvenosining uzatish statik koeffitsienti K ni o‘zgartirish va to‘g‘rilagichning fazoviy kanalining integrodifferensiallovchi zvenosining vaqt doimiylarini T_1 va T_2 larni o‘zgartirish yo‘li orqali amalga oshiriladi. Garmonik chiziqlantirish natijasida olingan to‘g‘rilagichning amplituda – fazoviy chastotaviy xarakteristikasi (AFChX) quyidagi ko‘rinishga ega:

$$W(j\omega) = a + jb, \quad (1)$$

bu yerda a , b – quyida keltirilgan formuladan aniqlanadigan garmonik chiziqlantirishning koeffitsientlari

$$a = \frac{K}{\pi\sqrt{1 + \omega^2 T^2 \gamma^2}} [(\pi - 2\alpha - 2\theta) \cos\theta + \sin\theta + \cos\alpha \sin(\alpha + \theta) + \sin\alpha \cos(\alpha + \theta)],$$

$$b = \frac{K}{\pi\sqrt{1 + \omega^2 T^2 \gamma^2}} [(-\pi + 2\alpha + 2\theta) \sin\theta + \cos\theta + \sin\theta \sin 2\alpha - \cos\theta \cos 2\alpha],$$

$\gamma = T/T_2$; ω - garmonik tebranishlarning burchak chastotasi;

$\theta = -\arctg\omega T$ - to‘g‘rilagichning amplitudali kanalining aperiodik zvenosi orqali kiritiladigan fazoviy kechikish; α – to‘g‘rilagich fazoviy kanalining integrodifferensiallovchi zveno orqali kiritiladigan fazoviy siljishi:

$$\alpha = \arctg \frac{T\omega(1-\nu)}{1 + \omega^2 T^2 \nu},$$

$$\nu = T_2 / T_1.$$

Chastotasi $\omega=0.4$ rad/c bo'lganida, $T=1$ qiymatda, 1.70 dan 0.5 diapozonida to'g'rilagichning amplitudali K kanalining sozlanma parametrlarini o'zgartirgan holda 0 dan -21dB chegarasida AChX talab etayotgan qiymatni kiritish mumkin. $T_1=0.1c$ qiymat bo'lganida 1.2 dan 100.0c gacha intervalda to'g'rilagichning fazoviy kanalining T_2 sozlanmalar parametrini o'zgartirgan holda, mos ravishda 0 dan 83^0 gacha to'g'rilovchi qurilma orqali kiritiladigan fazoviy siljishning talab etiladigan qiymatini kiritish mumkin.

Ikki kanalli mavhum chiziqli to'g'rilovchi qurilmaga ega avtomatik boshqarishning adaptiv sistemasining sxemasi 2 – rasmda keltirilgan bo'lib, unda chiziqli filtr sifatida ikkinchi tartibli Chebisheva filtridan foydalanilgan. Ushbu filtr chastotasi $\omega_0=0.4$ rad/c bo'lgan qidiruv signalini o'tkazishga sozlangan.


Adaptiv sistemaning ishlash prinsipi quyidagichadir: vaqt o'tishi bilan sistemaning ish jarayonidagi boshqarish obyektining parametrlari o'zgarib boradi. Ya'ni, boshqarish obyektining uzatish koeffisientlari va fazoviy siljishlarida o'zgarishlar sodir bo'ladi. Ishlash jarayonida adaptiv mavhum chiziqli ikki kanalli to'g'rilovchi qurilma uzatish koeffisientining o'zgarishlarini va ma'lum chastotada boshqarish obyektining fazoviy siljishini aniqlaydi, va mos ravishda sistemaga fazoviy siljishni kiritadi, so'ng esa boshqarish obyektining parametrlarini o'zgarishlarini kompensasiyalash maqsadida uzatish koeffisientini o'zgartiradi.

Berilgan adaptiv sistemaning muhim jixati shundaki, ochiq sistemaning fazoviy siljish qiymati, sistemaga sinusoidal qidiruv signali uzatilganidan keyin ochiq va yopiq sistemaning amplituda qiymatidan aniqlanadi.

Ochiq sistemaning fazoviy siljishi quyida keltirilgan formula bilan aniqlanadi:

$$\cos\varphi_o(\omega_0) = \frac{A_o^2(\omega_0) - A_y^2(\omega_0) - A_y^2(\omega)A_o^2(\omega_0)}{2A_y^2(\omega_0)A_o(\omega_0)}, \quad (2)$$

bu yerda $A_o(\omega_0)$, $A_y(\omega_0)$ – ochiq va yopiq sistemaning amplitudasi bo'yicha uzatish koeffisienti.



2-rasm. Adaptiv mavhum chiziqli ikki kanalli to'g'rilovchi qurilmaga ega ARS sxemasi


G – rostlash sistemasi kiritadigan ta'sirlar; U – boshqaruvchi ta'sirlar; Y – rostlash ob'ektining chiqish qiymati; $W_{op}(s)$ – rostlash ob'ektining uzatish funksiyasi; W_{reg} – rostlagichning uzatish funksiyasi; W_{MITQU} – mavhum chiziqli ikki kanalli to'g'rilovchi qurilmaning uzatish funksiyasi; F – chiziqli filtr; MChTQSB – mavxum chiziqli ikki kanalli to'g'rilovchi qurilmani sozlash bloki; ChXAB – chastotaviy xarakteristikalarini aniqlash bloki; $A_0 \sin \omega_0 t$ – qidiruv signali.

Hosil bo'lgan (2) formula yopiq va ochiq sistemaning AChX lari orasidagi bog'liqlik asosida olindi va bog'liqlik quyidagi formuladan aniqlanadi

$$|W_y(j\omega)|e^{j\varphi_y(\omega)} = \frac{|W_o(j\omega)|e^{j\varphi_o(\omega)}}{1 + |W_o(j\omega)|e^{j\varphi_o(\omega)}},$$

bu yerda $|W_y(j\omega)|$, $|W_o(j\omega)|$ - yopiq va ochiq sistemaning AChX; $\varphi_y(\omega)$, $\varphi_o(\omega)$ – yopiq va ochiq sistemaning FChX.

Sistema ish sifati qoniqtiradigan holatda ishga tushirilganidan so‘ng, sistemaga birinchi qidiruv signali uzatiladi, keyin esa qidiruv signalining A_0 amplitudasi va xatolik amplitudasi qiymati asosida va ChXAB blokidagi rostlanayotgan kattalik ochiq va yopiq sistemaning ω_0 chastotasidagi AChX etalon qiymatlari aniqlanadi, shuningdek $\cos\varphi_o(\omega_0)$ etalon qiymatlari (2) formuladan aniqlanadi. ChXAB blokida sistemaga ikkinchi va keyingi qidiruv signallarini uzatgandan keyin, etalon qiymatidan ω_0 chastotada ochiq va yopiq sistemaning AChX xatolik qiymatlari aniqlanadi. Ushbu jarayondan so‘ng, MChTQSB blokida to‘g‘rilagichning



amplitudali kanalining sozlanma koeffitsienti K va chastotaviy xarakteristikalarini stabillashni ta‘minlab beruvchi to‘g‘rilagich fazoviy kanalining vaqt doimiysi T_2 hisoblab olinadi.

Avtomatik rostlash sistemalari odatda mikroprosessorli kontroller bazasida qurilganligi sababli, K koeffitsienti va vaqt doimiysi T_2 larni to‘g‘rilagichning AChX va FChX qismli – chiziqli funksiyasidan foydalanilgan holda aniqlab olish soddaroqdir. ARS ni tadqiq etishda qo‘llaniladigan AChX va FChX uchun $\omega_0=0.4$ rad/c chastotada 1 va 2 jadvalda qismli – chiziqli funksiyaning bazaviy nuqtalari keltirilgan. K va T_2 ni sozlash koeffitsientlarini sozlash mexanizmi fazoviy siljishning o‘zgargan qiymati va boshqarish ob‘ektining uzatish koeffitsienti aniqlanganidan keyin, talab etilayotgan fazoviy siljish qiymatlari va sistemaning chastotaviy xarakteristikalarining o‘zgarmasligini ta‘minlovchi to‘g‘rilagichning uzatish koeffitsienti aniqlanadi. Bu qiymatlar FChX uchun joriy qiymat summasi va o‘zgarishlar kattaligi sifatida aniqlanadi, AChX uchun esa – boshqarish obyekti va to‘g‘rilagichning uzatish koeffitsientlar ko‘paytmasining o‘zgarmaslik shartidan aniqlanadi. Shundan so‘ng, qismli-chiziqli funksiyalardan K va T_2 larning zarur qiymatlari aniqlanadi.

1-Jadval

AChX ning bazaviy nuqtalari ($T_1=0.1$)

T_2	1.2	1.5	2.0	2.5	3.0	3.5	4.0	5.0	7.0	10.0	20.0	40.0	50.0	100
φ_k, grad	0	5	12	19	25	30	35	41	51	60	72	78	80	83

2-Jadval

FChX ning bazaviy nuqtalari ($T_1=0.1$)

K	1.7	1.5	1.3	1.1	1.0	0.8	0.6	0.5	0.4	0.3	0.2	0.15
A_k, dB	0	-1	-2.2	-3.7	-4.5	-6.5	-9.0	-10	-12.5	-15	-18	-21

3-rasm. Adaptiv mavhum chiziqli ikki kanalli to‘g‘rilovchi qurilmaga ega rostlanuvchi sistemaning modeli

Adaptiv mavhum chiziqli ikki kanalli to'g'rilagichga ega sistema xususiyatlarining tadqiqoti Matlab R2014a dasturiy paketida o'tkazildi. 3-rasmda adaptiv mavhum chiziqli ikki kanalli to'g'rilovchi qurilmaga ega rostlash sistemasining Matlabda yig'ib olingan modeli keltirilgan. Uzatish koeffisientlari va to'g'rilagichning amplituda va fazoviy kanallarining uzatish funksiyalarining vaqt doimiysi to'g'rilagich bloki sozlanmasida S – funksiya apparati yordamida o'zgartirib olindi. S – funksiyada 1,2 – jadvallarda berilgan qiymatlar joriy etilgan.


Avtomatik rostlash sistemasini modellashtirish birinchi, ikkinchi va uchinchi tartibli obyektlar uchun amalga oshirildi. 4 – rasmda PID – rostlagichi mavjud (2 –egri chiziq) va adaptiv mavxum chiziqli ikki kanalli to'g'rilovchi qurilmaga ega rostlash zanjiriga qo'shimcha tarzda ketma-ket ulangan rostlagichga (1 – egri chiziq) ega rostlash sistemasidagi o'tkinchi jarayon egri chiziqlari keltirilgan. Ushbu egri chiziqlar xarakteri, rostlash sistemasining rostlash ob'ekti parametrlarining o'zgarishiga ko'nikma hosil qila olish xususiyatini tahlil qilish imkonini beradi.

Natijalar tahlili. Boshqarish ob'ekti quyida keltirilgan uzatish funksiyasiga ega ikkinchi tartibli zveno bilan modellashtirildi.

$$W_o(s) = \frac{K_o}{T_{o1}s^2 + T_{o2}s + 1},$$

bu yerda K_o – boshqarish ob'ektining statik uzatish koeffisienti; T_{o1} , T_{o2} – boshqarish ob'ektining vaqt doimiysi.

Ob'ektga pog'onali ta'sir etilganda, o'tkinchi jarayon aperiodik bo'lib hisoblanishi uchun, ob'ektda Sigler – Nikols metodi bo'yicha ikkala sistemaning PID – rostlagichlarida sozlash ishlari olib borildi: $K_o=1.0$, $T_{o1}=2.828c$, $T_{o2}=7.000c$. PID rostlagichda: $K_p=0.998$, $K_i=0.1742$, $K_d=0.1000$.



4-rasm. O'tkinchi jarayon grafiklari

1– to'g'rilovchi qurilmaga ega avtomatik rostlash sistemasida rostlash ob'ektining chiqish parametrlari; 2 – to'g'rilovchi qurilmaga ega bo'lmagan avtomatik rostlash sistemasida rostlash ob'ektining chiqish parametrlari; 3–rostlash sistemasiga uzatiladigan impulsli halaqitlarning ko'rinishi.

Shuningdek to'g'rilagichning sozlanmalari ham kiritib olindi: $K=1.7$, $T=1.0$, $T_1=0.1$, $T_2=1.200$. Sozlanishlarning bunday qiymatida to'g'rilagich minimal fazoviy siljishni va AChX ning minimal zaiflashishini kiritadi.

Sistemani ishga tushirgandan keyin va t_1 vaqt momentida o'tkinchi jarayonlar yakunlanganidan so'ng, ikkala sistemaga ham impulsli halaqitlar uzatiladi (3–egri chiziq). Impulsli halaqitlar kirishidagi o'tkinchi jarayon ikkala sistemada ham aperiodik bo'lib hisoblanadi. Sistemaga qidiruv signali uzatilganidan keyin t_2 vaqt momentida adaptiv to'g'rilagich mavjud ARS da to'g'rilagichning K va T_2 etalon qiymatlari aniqlanadi. t_3 vaqt oralig'ida boshqarish ob'ektining vaqt doimiysi T_{o1} 2.828 qiymatdan 6.324 qiymatgacha o'zgarishi sodir bo'ladi, lekin ushbu vaziyatda K_o o'zgar olmaydi. Boshqarish ob'ektining bunday parametrlarida va PID – rostlagichining dastlabki sozlanmalarida, o'tkinchi jarayon pog'onali

ta'sirlarga t_4 vaqt momentida (4-rasm) uzatiladigan ikkinchi impulsli halaqitlarda tebranuvchan bo'ladi. To'g'rilagichga ega sistemaga, keyingi qidiruv signali uzatilganida adaptiv to'g'rilagichning sozlanish jarayoni t_5 vaqt momentida, 1.20c qiymatdan 8.24c qiymatgacha sodir bo'ladi. Ikkala sistemaga t_6 vaqt momentida keyingi impulsli halaqitlar uzatilganida, ARS ning o'tkinchi jarayoni to'g'rilagich mavjud bo'lmagan vaziyatda tebranma so'nuvchi bo'ladi, to'g'rilagich mavjud ARS da esa aperiodik bo'ladi (4 – rasm). t_6 vaqt momentidagi 1 – egri chiziq boshqarish obyektining parametrlari o'zgartirilganida va unga to'g'rilagich o'rnatilganida, to'g'rilagich mavjud ARS to'g'rilagichi yo'q ARS ga (2 – egri chiziq) nisbatan anchagina yaxshi ekanligini ko'rsatadi, chunki o'tkinchi jarayon aperiodik bo'lib o'zgaradi. Obyektning vaqt doimiysini $T_{01}=13.0c$ qiymatigacha o'zgartirganda to'g'rilagichi mavjud sistemaning ish sifati qoniqarli bo'lib hisoblanadi, to'g'rilagichi yo'q sistema esa $T_{01}=8.4c$ vaqtdayoq noturg'un bo'ladi.

Xulosa. Mavxum chizikli ikki kanalli to'g'rilovchi qurilmani qo'llash, keng diapozonda ishlash rejimida o'zgarib boruvchi statsionar bo'lmagan parametrlarga ega obyektlarni roslash sistemasini amalga oshirish imkonini beradi. Taklif etilayotgan to'g'rilovchi qurilma ishlab chiqarishda mavjud roslash sistemalari tarkibiga kiritish mumkin. Bunday roslash sistemalari mikroprosessorli kontroller bazasida va apparat qismlari uchun ortiqcha harajatsiz amalga oshirilgan bo'lib, ularni qo'llash asosida roslash sifatini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Reference

1. Gayduka A.R., Plaksienko E.A. Adaptivniye sistemi upravleniya. Yujniy Federalniy Universitet. 2018. C. 14-24.
2. Soldatov V.V., Uxarov P.E. Adaptivnaya nastroyka system upravleniya s PID – regulyatorami v usloviyax informatsionnoy neopredelennosti // pribori I sistemi. Upravleniye, control, diagnostika. 2014. C 16-20.
3. A.I.Ruban Adaptivniye sistemi upravleniya s identifikatsiyey// Krasnoyarsk SFU 2015//ISBN 978-5-7638-3194-8.
4. Skorospeshkin M.V. Adaptivniy lineyniy nechetkiy korrektor dinamicheskix svoystv system avtomaticheskogo regulirovaniya // Sovremenniye texnika I texnologii: Tr.12-y Mejdunar. nauch.-prak. konf. Studentov, aspirantov I molodix uchenix, Tomsk, 2016. C. 162-165.
5. Solovev K.A., Muraveva E.A., Sultanov R.G. Adaptation of fuzzy controller. Oil and Gas Business, 2014, vol. 12, no. 3, pp. 123–128 (in Russ.).
6. Demidova G.L., Lovlin S.Yu., Tsvetkova M.Kh. Synthesis of follow-up electric drive of telescope's azimuth axis with reference model in position contour. *Vestnik ISPU*, 2011, no. 2, pp. 77–81. (In Russian).
6. Kostoglotov A.A., Lazarenko S.V., Pugachev I.V. Method of synthesis of multi-mode control under the expected uncertainty using the analysis of the phase-space decomposition on the basis of the generalized power maximum condition. AIP Conference Proceedings, 2019, vol. 2188, art. 030005. DOI: 10.1063/1.5138398.
7. Ojha V., Abraham A., Snasel V. Heuristic design of fuzzy inference systems: A review of three decades of research. *Engineering Applications of Artificial Intelligence*, 2019, vol. 85, pp. 845–864. DOI: 10.1016/j.engappai.2019.08.010.
8. Berdnikov V., Lokhin V. Synthesis of guaranteed stability regions of a nonstationary nonlinear system with a fuzzy controller. *Civil Engineering J.*, 2019, vol. 5, no. 1, pp. 107–116. DOI: 10.28991/cej-2019-03091229.
9. Alsafadi L.A., Chulin N.A., Mironova I.V. Synthesis of fuzzy controller based on simple PID controller. *Procedia Computer Science*, 2019, vol. 150, pp. 28–38. DOI: 10.1016/j.procs.2019.02.008.
10. Muravyova E.A., Radakina D.S. Using the fuzzy controller to control process parameters. *Int. Sci. J. "INDUSTRY 4.0"*, 2018, vol. 3, no. 5, pp. 236–239.

11. Lukichev D.V., Demidova G.L. Fuzzy control system of positioning servo drives of elastic coupling rotary supports. *Vestnik ISPU*, 2013, no. 6, pp. 60–64.
12. Kaminski M., Szabat K. Neuro-fuzzy state space controller for drive with elastic joint. Proc. 11th IEEE Int. Conf. on Power Electronics and Drive Systems. Sydney, Australia, 2015, pp. 373–378. doi: 10.1109/PEDS.2015.7203559.
13. Ignatyev V.V., Soloviev V.V., Beloglazov D.A., Boldyreff A.S. Development of a method for automatic generation and optimization of fuzzy controller parameters using genetic algorithm. In: *Artificial Intelligence in Intelligent Systems*, Silhavy R. (ed.), vol. 229, pp. 404–416. DOI: 10.1007/978-3-030-77445-5_38.
14. Derugo P., Szabat K. Implementation of the low computational cost fuzzy PID controller for two-mass drive system. Proc. 16th Int. Power Electronics and Motion Control Conference and Exposition, PEMC. Antalya, Turkey, 2014, pp. 564–568. doi: 10.1109/EPEPEMC.2014.6980554.

UDK 681.515.8

TO‘G‘ RI OQIMLI QOZONNI BOSHQARISH SISTEMASIDA QO‘LLANILADIGAN PID ROSTLAGICHINING TAHLILI

U.O.Xo‘janazarov, N.A.Niyazova

Tashkent Institute of Textile and Light Industry

Annotatsiya. Maqolada to‘g‘ri oqimli qozonni boshqarish sistemasini tahlil qilish vazifasi ko‘rib chiqilgan bo‘lib, qizdirish qurilmalaridan birining soddalashtirilgan modeli qurib olindi. To‘g‘ri oqimli qozonning soddalashtirilgan sxemasi keltirildi va qozon ketma –ket ulangan qizdirish qurilmasidan iborat ekanligini ko‘rish mumkin. Ko‘rilayotgan ishda asosiy e‘tibor qozondagi harakatni nazorat qilishga qaratilgan va eng muhim jihati so‘ngi qizdirish qurilmasi chiqishidagi turbinani harakatga keltiruvchi bug‘ning haroratidi ekanligi ta‘kidlanadi. O‘zgaruvchan qiymatlarni o‘lchash imkoniyati mavjudligi hisobga olingan holda, kaskadli boshqaruvni shakllantirish taklif etildi. Ichki konturda P rostlagichni qo‘llash yetarlicha ekanligi keltirib o‘tildi. Qizdirish qurilmasining tashqi kontur parametrlari statsionar emas va ular qozondagi yuklamaga bog‘liqdir. Shuning uchun, koeffitsientlari lokalizatsiya metodi asosida hisoblab olinadigan PID rostlagichni qo‘llash taklif etildi. Ish jarayonida asosiy rejimlari qizdirish qurilmalarini boshqarish sistemasi samarali ekanligini isbotlovchi modellashtirish jarayonining natijalari keltirildi. Berilgan ish rejimida to‘g‘ri oqimli qozon o‘zida statsionar bo‘lmagan boshqaruv obyektini aks ettiradi, chunki yuklamaning chiziqchilik qonuniyati bo‘yicha o‘zgarib borishi, obektning parametrlari o‘zgarishiga olib keladi. Ushbu vaziyatda ham hisoblangan PID rostlagichi sistemadan talab etilayotgan vazifalarni ta‘minlab beradi.

Kalit so‘zlar: to‘g‘ri oqimli qozon, qizdirish qurilmasi, kaskadli boshqarish, nostatsionar obyekt, PID – rostlagich, lokalizatsiya metodi.

Аннотация. В статье рассмотрена задача анализа системы управления котлом с прямоточным котлом, построена упрощенная модель одного из нагревательных приборов. Приведена упрощенная схема прямоточного котла, и видно, что котел состоит из последовательно подключенного нагревательного устройства. В рассматриваемой работе основное внимание уделяется контролю движения в котле, и подчеркивается, что наиболее важным аспектом является температура пара, приводящего в движение турбину на выходе из конечного нагревательного устройства. Учитывая возможность измерения переменных значений, было предложено формирование каскадного контроля. Во внутреннем контуре было указано, что достаточно применить П регулятора. Параметры внешнего контура нагревательного прибора нестационарные и зависят от нагрузки на котел. Поэтому было предложено использовать ПИД-регулятор, коэффициенты которого рассчитываются на основе метода локализации.

В ходе работы были представлены результаты процесса моделирования, основные режимы которого доказывают эффективность системы управления нагревательными приборами. Котел с прямоточным котлом в заданном режиме работы отражает в себе нестационарный объект управления, так как изменение нагрузки по закону линейности приводит к изменению параметров объекта. Даже в этой ситуации, вычисляемый ПИД-регулятор обеспечивает выполнение задач, требуемых от системы.

Ключевые слова: *прямоточный котел, нагреватель, каскадное управление, нестационарный объект, ПИД регулятор, метод локализации.*

Annotation. *The article considers the problem of analyzing the control system of a boiler with a direct-flow boiler, and a simplified model of one of the heating devices is constructed. A simplified diagram of a direct-flow boiler is shown, and it can be seen that the boiler consists of a series-connected heating device. In this paper, the main attention is paid to the control of movement in the boiler, and it is emphasized that the most important aspect is the temperature of the steam driving the turbine at the outlet of the final heating device.*

2. Xurramov Sh.R. Teoreticheskie osnovi kontaktnogo vzaimodeystviya v dvuxvalkovix modulyax i ee ispolzovanie v sovershenstvovanii prossessov mexanicheskoy obrabotki. Dis. ... dokt. texn. nauk. Tashkent, 2022. – 192 s.
3. Selyuk D.V. Osenka vliyaniya rejima raboti elastichnogo kolesa na parametri ego kacheniya i deformiruemyy opornoy poverxnosti // Jurnal avtomobilnix injenerov. 2016, №6(101), S.16-20.
4. L.E. Pelevin, Yu.D. Abrashkevich, M.N. Balaka, G.A. Arjaev. Modelirovanie prossessa vzaimodeystviya elastichnogo kolesa s deformiruemyy opornoy poverxnostyu // Gornoe oborudovanie i elektromexanika. – 2013. № 7. S. 10-16.
5. Balakina E.V. Deformatsii elastichnogo kolesa i ix vzaimodeystvii so snosami reaktsiy opornoy poverxnosti. // Izvestiya Volgogradskogo GTU. 2014, №19(146), S.1-8
6. Goryacheva I.G., Zobova A.A. Dinamicheskaya zadacha o kachenii proskalzivaniya uprugogo silindra po uprugomu poluprostranstvu // DAN RF, 2018, №1(481), S.24-26.
7. Solovyev V.I., Shuxman S.B., Kapralova M.A. Forma kontakta elastichnogo kolesa s deformiruemyim gruntom i raschet glubini kolei // Izvestiya MGTU MAMI, 2012, №2 (14) Tom 1, S.348-351.
8. Xitrov E.G. Model dlya osenki radialnoy deformatsii kolesa lesnoy mashini s uchedom deformatsii pochvogrunta // Vestnik MGU lesa-Lesnoy vestnik, 2015, №6, T.19, S.87-90.
9. Kim Yu.A. i dr. Vliyaniya velichini davleniya vozduxa shinax koles na geometricheskie parametri pyatna kontakta pri vzaimodeystvii s opornoy poverxnostyu. Trudi BGTU, 2018, seriya 1, №2, S.2-7
10. Xurramov Sh.R., Turgunov K.K., Annaev N.U., Aliboev K.Yu. Modelirovanie krivix kontakta valkov kojevennix otjimmix mashin. Tekstiliy jurnal Uzbekistana, 2022, №2, S.71-79.
11. Xurramov Sh.R. Analiticheskoe opisanie formi krivix kontakta valkov v dvuxvalkovom module // Izvestiya visshix uchebnix zavedeniy, Texnologiya tekstilnoy promishlennosti», 2021. – №4 (394). – S. 153-158
12. Kurbanova F.Z. Issledovanie kontaktnogo vzaimodeystviya v valkovix parax dlya sovershenstvovaniya prossessov mexanicheskoy obrabotki listovix materialov. Dis. ... dokt. fil. (PhD). Namangan, 2022. – 120 s.
13. Xolturaev F.S. Matematicheskoe modelirovanie i sovershenstvovanie prossessa otjima koji valkovimi mashinami. Dis. ... dokt. fil. (PhD). Namangan, 2021. – 117 s.
14. Turgunov K.K. Issledovanie kontaktnogo vzaimodeystviya v valkovix parax kojevennix mashin dlya povisheniya kachestva produkcii i effektivnosti produkcii. Dis. ... dokt. fil. (PhD). Namangan, 2023. – 119 s.
15. Amanov A., Bakhadirov G., Amanov T., Tsoy G., Nabiyeu A. Determination of Strain Properties of the Leather Semi-Finished Product and Moisture-Removing Materials of Compression Rolls. J. Materials, 2019, 12, pp.16-20.
16. Khurramov Sh. R., Khalturayev F.S., Kurbanova F.Z. Deformation and Filtration Characteristics of a Leather Semi-Finished Product”. Cyber-Physical Systems: Design and Application for Industry 4.0, 2021, vol.342. pp 227-241.
17. Amanov A., Khurramov Sh., Bahadirov G., Abdukarimov A., Amanov T. “Modeling of strain and filtration properties of a semi-finished leather product” Journal of Leather Science and Engineering. 2021.

I.X. Sidiqov, Z.E. Iskandarov, S.X. Yuldashev

Tashkent Institute of Textile and Light Industry

Annotatsiya. Paxta g'arami parametrlarini tezkor nazorat qilish paxtaning sifatli saqlanishini boshqarishni axborot bilan ta'minlashning eng muhim elementidir. Zamonaviy yuqori texnologiyali avtomatik boshqaruv tizimlaridan foydalanmasdan paxta g'aramlari haroratni tezkor nazorat qilish va boshqarishni samarali amalga oshirish mumkin emas.

Maqolada ochiq paxta g'aramlarida paxtaning sifatli saqlanishi paxtaning ifloslik darajasi, navi, namligi, zichigi va tashqi omillar havoning harorati va namligiga bog'liqligi o'rganilgan. Paxta g'arami parametrlarini boshqarish tizimlarini tahlil qilish maqsadida harorat, havoning nisbiy namligi, g'aramlarda yoki omborlarda paxta haroratini o'lchash usullari va qurilmalarining parametrlarning eng muhimlariga qisqacha metrologik tavsif berilgan va o'rganib chiqilgan. Jumladan paxta g'aramidagi paxta xomashyosining haroratini o'lchovchi qurilmalar TSH-1 termoshupi, PTX-1 rusumli termoshupi, KT-1 qurilmasi, TSH-01 va MG-30 rusimli elektron harorat o'lchash termoshuplari o'rganilgan. Bulardan tashqari yuzadan chiquvchi elektromagnit to'lqinlarning xususiyatlarini o'zgarishi orqali paxta xomashyosining holatini baholash uchun infraqizil nurlanish yordamida, chastotasini o'zgarishiga asoslangan va raqamli nurlanish datchiklari o'rganilgan.

Maqolada paxta g'aramidagi paxta xomashyosining haroratini boshqarish tizimlari: mikroprotsessorli nazorat tizimlari va kompyuter texnikasidan foydalanishga asoslangan nazorat qilish tizimlari o'rganilgan va tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: havoning nisbiy namligi, hajimli gigometr, rezistorli gigometrlar, elektrolitik gigometr, interfeys, kontroller.

Аннотация. Оперативный контроль параметров хлопкоочистки является важнейшим элементом предоставления информации для управления качественным хранением хлопка. Без использования современных высокотехнологичных систем автоматического управления невозможно эффективно контролировать и управлять температуру хлопкоочистительных машин.

В статье изучается качество хранения хлопка в открытых бунтах, который зависит от степени загрязнения, вида, влажности, плотности хлопка, а также внешних факторов, таких как температура и влажность воздуха. С целью анализа систем управления параметров хлопковых бунтов, дано и изучено краткое метрологическое описание важнейших параметров, таких как температура, относительная влажность воздуха, методы и устройства измерения температуры хлопка в бунтах или складах. В частности, были исследованы приборы для измерения температуры хлопка-сырца в хлопковых бунтах, термоскоп ТШ-1, термоскоп типа ПТХ-1, прибор КТ-1, электронные термоизмерители температуры типа ТШ-01 и МГ-30. Кроме того, были изучены инфракрасные, частотные и цифровые датчики излучения для оценки состояния хлопкового сырья путем изменения свойств электромагнитных волн, излучаемых с поверхности.

В статье рассмотрены и проанализированы системы регулирования температуры хлопка-сырца в хлопковом бунте: микропроцессорные системы управления и системы управления, основанные на использовании компьютерных технологий.

Ключевые слова: относительная влажность воздуха, объемный гигрометр, резисторный гигрометр, электролитический гигрометр, интерфейс, контроллер.

Annotation. Operational control of cotton ginning parameters is an essential element of providing information for managing quality cotton storage. Without the use of modern high-tech automatic control systems, it is impossible to effectively monitor and manage the temperature of cotton gins.

The article studies the quality of cotton storage in open bunks, which depends on the degree of contamination, type, humidity, density of cotton, as well as external factors such as temperature and humidity. In order to analyze the control systems for the parameters of cotton riots, a brief metrological description of the most important parameters, such as temperature, relative humidity, methods and devices for measuring the temperature of cotton in coils or warehouses, is given and studied. In particular, instruments for measuring the temperature of raw cotton in cotton bolls, thermoscope TSh-1, thermoscope type PTX-1, device KT-1, electronic temperature gauges type TSh-01 and MG-30 were investigated. In addition, infrared, frequency and digital radiation sensors have been studied to assess the condition of cotton raw material by changing the properties of electromagnetic waves emitted from the surface.

The article discusses and analyzes systems for regulating the temperature of raw cotton in a cotton reel: microprocessor control systems and control systems based on the use of computer technology.

Key words: relative air humidity, volumetric hygrometer, resistor hygrometer, electrolytic hygrometer, interface, controller.

Kirish. Paxta g'aramining haroratini aniqlashning asosiy omillari, ichki havo parametrlarining qiymatlari to'plami (temperatura, nisbiy namlik, bosim) va paxta g'aramining tashqarisidagi havo parametrlari qiymatlari to'plamidir (temperatura, namlik va boshqalar).

Ochiq paxta g'aramlarida optimal haroratni ta'minlash uchun g'aram maydonlarining o'lchamlari talab darajasida, yani balandligi yer sathidan 0,4 m bo'lishi va yog'in-sochin suvlarini chiqib ketishini ta'minlash uchun o'rtasini 0,05-0,07 m ga ko'tarish kerak, navi, sinfini va iflosligini hisobga olgan holda ko'rsatilganidek tabaqalab to'plash, shamollatish tizimlari va boshqalar bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Paxta g'aramlarida maqbul haroratni ta'minlash uchun haroratni tavsiflovchi parametrlarning qiymatlari to'g'risida tezkor ma'lumotlarga asoslanib, uning barcha tizimlarini maqsadli boshqarishni o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, paxta g'arami parametrlarini tezkor nazorat qilish paxtaning sifatli saqlanishini boshqarishni axborot bilan ta'minlashning eng muhim elementidir. Zamonaviy yuqori texnologiyali avtomatik boshqaruv tizimlaridan foydalanmasdan paxta g'aramlari haroratini tezkor nazorat qilish va boshqarishni samarali amalga oshirish mumkin emas.

Nazariy tadqiqotlar. Tashqi sharoitlarning g'aramlardagi paxtaning sifatli saqlanishiga ta'sirini shakllantirish usullari ko'rib chiqilgan. Bunda, tashqi sharoitlarning g'aramlardagi paxtaning sifat ko'rsatkichlarini o'zgartirmay saqlash uchun ma'lum darajada aniqlik bilan ta'siri turli xil matematik bog'liqliklar bilan tavsiflanadi. Shunday qilib, ochiq paxta g'aramlarida paxtaning sifatli saqlanishi paxtaning ifloslik darajasi, navi, namligi, zichigi va tashqi omillar havoning harorati va namligiga bog'liq hisoblanadi.

Paxta g'aramidagi haroratning o'zgarishini quyidagi matematik model ko'rinishida yozish mumkin

$$\Phi(t) = f(T_p, C_h, T_h, \varphi_h, \varphi_p, x, t), \quad (1.1)$$

bu yerda T_p – paxta g'arami ichidagi harorati;

SH - havodagi CO₂ konsentratsiyasi;

T_h - havo harorati;

φ_h - havoning nisbiy namligi;

φ_p - paxta g'aramidagi paxtaning namligi;
 x - biologik omillar (paxtaning navi, paxtaning rangi va boshqalar);
 t - vaqt.

Adabiyotlarning tahlili [6, 39, 40, 50, 56, 72, 85] shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda ochiq paxta g'aramidagi haroratni rostdashning ma'lum ko'rsatkichlari va tashqi omillar o'rtasidagi bog'liqlikni aniq tavsiflovchi yagona universal matematik model mavjud emas. Biroq, ba'zi mavjud modellar paxta g'aramidagi parametrlarni nazorat qilish va boshqarish masalalarini hal qilishda samarali qo'llanilishi mumkin.

Amaliy maqsadlar uchun paxta g'aramidagi haroratning o'zgarishini cheklovchi omillar prinsipiga asoslangan modeli eng samarali ko'rinadi [6, 56], unga ko'ra bitta cheklovchi omilni iste'mol qilish tezligi (eng "sekin") ortiqcha bo'lgan boshqalarning tezligini belgilaydi. Cheklovchi omillar prinsipiga asoslangan g'aramidagi haroratning o'zgarishining modelini yaratish uchun paxta g'aramidagi haroratni o'zgarishining tashqi muhitning individual parametrlariga bog'liqligini bilish kerak.

Bugungi kunda ham miqdoriy, ham sifat xususiyatlari, qolaversa tashqi muhitning turli parametrlaridan paxta g'aramidagi haroratning o'zgarishlari o'rganildi.

Paxta g'aramidagi parametrlarining aniq bir to'plami uchun paxta g'aramidagi haroratning o'zgarishini intensivligi (cheklovchi omillar prinsipiga muvofiq) alohida parametrlarning mavjud bog'liqliklari bo'yicha topilganlar orasidan minimal qiymati sifatida aniqlanadi.

Vaqt davomida, kun tartibining davomiyligi, g'aramdagi paxta xomashyosining namligi va harorati biroz o'zgaradi [6, 49, 50, 56, 83, 84]. Shuning uchun kunlik sikl davomida haroratni nazorat qilish va boshqarish uchun paxta g'aramidagi haroratning o'zgarishini matematik modelidan foydalanish mumkin. Ma'lumki, issiqlik oqimi o'zgarishining zaruriy sharti paxta g'arami ichidagi haroratidir.

Tajribaviy izlanishlar. Paxta g'aramlaridagi paxta xomashyosini xususiyatlarini o'zgartirmasdan sifatli saqlash to'g'risida yuqorida muhokama qilingan g'oyalar hozirgi vaqtda paxta g'arami parametrlarini boshqarish va saqlash tizimlarining algoritmlarini ishlab chiqish uchun asosdir. Bundan tashqari, ushbu algoritmlarni ishlab chiqishda paxta g'aramlarini eng murakkab avtomatlashtirish obyektlari ekanligini hisobga olish kerak [6, 8, 17, 21, 74]. Ushbu holat nazorat va boshqarish obyekti sifatida paxta g'aramining beqarorligi va undagi axborotlarning noaniqligi bilan bog'liqdir.

Xususan, katta massaning mavjudligi asosan paxta g'aramining harorat va namlik sharoitlarini nazorat qilish hamda saqlash obyekti sifatida beqarorligini belgilaydi. G'aramlarga paxta xomashyosi to'plangandan paxta xomashyosini qayta ishlash jarayoni boshlanishigacha bo'lgan vaqt davomida katta massa zichligining va haroratining oshishi tufayli obyektning vaqt doimiysi 1,8 soat-2,5 baravar ortadi. Shu sababli, issiqlik chiqarish koeffitsienti 1,2 baravar ortadi va g'aram ichidagi haroratga qarab kechikish vaqti 4-8 soat ga oshadi. Shunga o'xshash o'zgarishlar paxta g'aramida namlik rejimida ham sodir bo'ladi. Bundan tashqari, ko'p sonli bashorat qilinmagan qo'zg'atishlarning mavjudligi paxta g'aramining nazorat va boshqarish obyekti sifatida axborot noaniqligini keltirib chiqaradi. Shunday qilib, paxta g'aramining haroratini nazorat qilishni avtomatlashtirish obyekti sifatida tahlil qilish, ushbu tuzilmadagi parametrlarini avtomatik boshqarish tizimlariga ma'lum talablarni shakllantirishga imkon beradi.

Xususan, boshqarish tizimlari yuqori ishonchlilik va aniqlik, moslashuvchanlik va texnik intellekt xususiyatlariga ega bo'lishi kerak, chunki ular ko'pincha axborot yetishmovchiligi va noaniqlik sharoitlarida ishlashga mo'ljallangan.

Shu sababli, bugungi kunda zamonaviy kompyuter texnologiyalari va axborotni tahlil qilish va qaror qabul qilishning intellektual texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan paxta g'aramidagi haroratni avtomatik boshqarishning yangi samarador tizimlarini ishlab chiqish zarurati mavjuddir [7, 23, 29, 43, 75, 99, 101, 111].

Paxta g'arami parametrlarining metrologik xususiyatlari. Paxta g'arami parametrlarini uzluksiz o'lchash imkoniyati yo'q, shuning uchun, bilvosita yoki virtual

analizatorlardan foydalaniladi. **Paxta g'arami** parametrlarini boshqarish tizimlarini tahlil qilishni boshlashdan oldin, ushbu parametrlarning eng muhimiga qisqacha metrologik tavsif berish kerak.

Harorat. Paxta g'aramining muhim parametrlaridan biri uning ichidagi harorat va tashqarisidagi havo haroratidir. Harorat havo isishi darajasini tavsiflaydi va nazorat tizimlarida u Selsiy, °C darajasida o'lchanadi. Havoning haroratini nazorat qilish uchun mo'ljallangan bir nechta qurilmalar mavjud. Biroq, avtomatik boshqarish tizimlarida faqat qarshilikli termometrlar va termojuftlar keng qo'llaniladi [67, 102].

Qarshilik termometrlari yordamida haroratni nazorat qilishda boshqariladigan muhitning harorati nazorat qilinadigan muhitning haroratiga qarab sensorning elektr qarshiligining kattaligi bilan baholanadi.

Paxta g'aramlaridagi harorat o'zgarishini nazorat qilish turli termoshuplar yordamida amalga oshirilgan. Bulardan biri TSH-1 rusumli termoshupi bo'lib, u 4 m uzunlikdagi po'lat quvur, uchi, himoya qutisi, tutqich va qisqich muftalardan iborat. TSH-1 termoshupining kamchiligi shundaki, ularni paxtaning katta massasiga kiritish juda ko'p kuch sarflashni talab qilishi va paxta g'aramlarining haroratni o'lchashda axborotlarning kamligi bilan izohlanadi. Ikkinchisi PTX-1 rusumli o'rnatilgan termoshup paxta xom ashyosining haroratini mavjud termoshuplarga qaraganda tezroq o'lchaydi. PTX-1 termoshupning asosiy kamchiligi shundaki, u butun makro hajmdagi muhit haroratini nazorat qilish uchun axborotlarning yetarli darajada emasligidir. Uchinchisi KT-1 qurilmasi paxta xom ashyosining haroratini g'aramlarda va omborlarda davriy nazorat qilish uchun mo'ljallangan.

Asbobning haroratni o'lchash diapazoni -40 °C dan + 80 °C gacha. Qurilma yuqoridagi harorat termoshuplaridan mexanizatsiyalashganligi, ya'ni paxta xom ashyosi massasiga kiritishda og'ir qo'l mehnati yo'qligi va harorat datchiklari bilan shtanglar sonining ko'paytirilganligi, shuningdek, bir vaqtning o'zida o'lchashning kengaytirilganligi bilan farq qiladi. To'rtinchisi TSH-01 rusumli elektron harorat o'lchash termoshupi.

Elektron termoshup paxta g'aramlarini haroratini nazorat qilish uchun zamonaviy element bazalaridan va informatsion texnologiya elementlariga va axborot-kommunikatsiya tizimlari bilan integrallashish imkoniyatiga ega bo'lgan zamonaviy o'lchov asbobidir. TSH-01 rusumli elektron harorat o'lchash termoshupida haroratni o'lchash diapazoni 0 °C dan +100 °C gacha bo'lib o'lchash xatoligi ± 1 °C dan ko'p emas. Beshinchisi MG-30 rusumli elektron harorat o'lchash termoshupi.

U keng spektrda issiqlik sezgirlikka ega xamda 2-20 mkm spektral oraliqda issiqlik nurlanishlarni qabul qiladi. Prizmalı zond dastlab etallon namuna bilan kalibrlab olinadi, keyin nazorat obyektiga kiritilib, so'ng o'lchov o'tkaziladi.

Havoning nisbiy namligi. Paxta g'aramining navbatdagi juda muhim parametri havoning nisbiy namligidir. Havoning nisbiy namligi-bu P suv bug'ining ma'lum bir haroratdagi Ps suv bug'ining to'yinganlik bosimiga nisbati sifatida belgilangan fizik parametr, foiz sifatida ifodalanadi [10-42, 79]. Havoning nisbiy namligini o'lchash uchun ishlatiladigan asboblar gigrometrlar deb ataladi.

Namlikni o'lchashning turli usullariga asoslangan gigrometrlarning ko'plab konstruksiyalari mavjud. Biroq, quyida keltirilgan qurilmalar avtomatik boshqarish tizimlarida keng qo'llaniladi.

Hajimli gigrometr. Ushbu qurilmalarning ishlash prinsipi havoning nisbiy namligidan dielektrik xususiyatlaridan foydalanishga asoslangan.

Rezistorli gigrometrlar. Ushbu qurilmalarning ishlashi havoning elektr qarshiligining nisbiy namlikka bog'liqligidan foydalanishga asoslangan.

Elektrolitik gigrometrlar. Ushbu qurilmalar namlikni intensiv ravishda yutadigan quruq elektrolitlarni sezgir element sifatida ishlatishiga asoslangan: lityum xlorid, fosfor pentoksid [11, 12, 44, 47, 79]. Ushbu sezgir elementlar havo namligining ko'plab elektr pirometrik sensorlarining (EPS) asosiy elementidir. EPS chiqish qiymati havo namligiga bog'liq bo'lgan sezgir elementning elektr o'tkazuvchanligi hisoblanadi. Shuning uchun ushbu qurilmalar

namlikni avtomatik boshqarish tizimlarining bir qismi sifatida ishlash uchun maqbuldir.

Chigiti paxta namligini aniqlash. Meyorlangan (hisobiy) namlik – xom ashyo yoki mahsulotning konditsion massasini aniqlash uchun meyoriy hujjat bilan belgilanadigan namlikning massaviy nisbatida (yoki namlikning massaviy ulushida) meyoriy namlik ifodalanadigan shartli namlik.

Namlik – paxtadagi suv miqdori (foizlarda). Namlikning cheklangan meyori – yuqori namlikka ega bo‘lgan xom ashyoni qabul qilishni yoki mahsulot ishlab chiqarishni cheklovchi meyoriy hujjat bilan belgilanadigan namlik meyori.

Paxta tozalash sanoatida paxta va uning mahsulotlari namligini quritish shkaflarida (UZ-7M, SHSX-1) (1101,5)⁰C haroratda va tezkor usulda USX-1, VXS, VXS-M1 va “Sifat” tezkor aniqlovchi o‘lchash uskunalarda (1952)⁰C haroratda namunani quritish yo‘li bilan aniqlanadi.

Namlikni aniqlashdan maqsad – quritish shkaflari va tezkor aniqlovchi o‘lchash qurilmalarini qo‘llash yo‘li bilan paxta namligining massaviy nisbatini aniqlashdir.

Natijalar tahlili. Paxta g‘aramlari haroratini nazorat qilish va boshqarish uchun bir nechta tizimlar mavjud, ular quyidagilardan iborat:

- **Analog nazorat qilish tizimlari.** Raqamli hisoblash va zamonaviy axborot texnologiyalari sohasida erishilgan ulkan yutuqlarga qaramay, mamlakatimizdagi paxta tayyorlash maskanlari va paxta tozalash korxonalaridagi paxta g‘aramlaridagi haroratni nazorat qilishning analog vositalari hali ham qo‘llanilmoqda.

Ma‘lumki paxtaning elektr parametrlari - dielektrik o‘tkazuvchanligi, yo‘qotishning tangens burchagi, o‘tkazuvchanligi - ko‘p jihatdan uning haroratiga bog‘liq. Shunga asoslanib, yuqoridagi elektr parametrlarini tegishli datchiklar bilan o‘lchab, paxta harorati haqida axborot olish mumkin.


Ushbu usul yordamida o‘lchashda datchiklar paxtani g‘aramlash vaqtida oldindan o‘rnatiladi va o‘tkazgich yordamida indikatorga ulanadi. Bundan tashqari, nazorat qilish infraqizil nurlanish yordamida amalga oshirilgan. Yuzadan chiquvchi elektromagnit to‘lqinlarning xususiyatlarini o‘zgarishi orqali paxta xomashyosining holatini baholash mumkin.

Yuqoridagi usul orqali infraqizil nurlanish yordamida, intensivligi o‘zgarishiga asoslangan va raqamli nurlanish datchiklaridan foydalanilgan.

Paxta g‘aramidagi haroratni nazorat qilish uchun tipik analogli tizimlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, paxta g‘aramining hajmida harorat taqsimotini to‘liqroq baholash uchun olingan axborotlarning malum bir nuqtalarga xosligi, paxta xomashyosini o‘z-o‘zidan qizishining mahalliy markazlarining koordinatalari to‘g‘risida ma‘lumotlarning yo‘qligi, tizimlar kuchsiz axborot ta‘minotiga ega va harorat o‘zgarishiga ta‘sir qiluvchi turli xil noaniqliklarni hisobga olmaydi. Bundan tashqari analogli nazorat qilish tizimlari paxta g‘arami haroratini faqat nazorat qilib, avtomatik ravishda kerakli qiymatlarda ushlab turish imkonini bermaydi.

Mikroprotessorli nazorat tizimlari. Paxta g‘aramlarining haroratini nazorat qilish va boshqarish tizimini rivojlantirishning navbatdagi bosqichi paxta g‘aramidagi haroratga ta‘sir qiluvchi o‘zgaruvchan omillarni yuqori moslashuvchanlik bilan hisobga olish imkonini beruvchi mikroprotessorli o‘lchagichlar - rostlagichlardan foydalanish hisoblanadi.

Paxta g‘aramlarini haroratini TCA6408A rusumli mikrokontrolleriga asoslangan nazorat qilishning avtomatik tizimi mavjuddir [113]. Tavsiflangan tizimning prinsipl sxemasi 1 – rasmda ko‘rsatilgan.



1-rasm. Dasturlanuvchi kontrollerning prinsipl sxemasi

Nazorat qilish tizimining ishlashi mantiqiy qurilmaning buyruqlari asosida datchikni o'lchash moslamasiga ketma-ket ulaydi (so'raydi), bu yerda datchiklardan olingan analog signallar nazorat qilinayotgan parametrlarning joriy qiymatlari raqamli signallariga aylantiriladi. Bundan tashqari, o'lchash qurilmasida xalaqit signallar filtrlanadi va o'lchanayotgan parametrlarning belgilangan ko'rsatish formatiga muvofiq korreksiyalaydi.

Ushbu nazorat tizimining kamchiligi uning ishlash algoritmini qayta dasturlash imkoniyatlarining murakkabligi va nazorat qilinayotgan parametrlarning qiymatlarini arxivlash imkoniyatining mavjud emasligidir.

- Kompyuter texnikasidan foydalanishga asoslangan nazorat qilish tizimlari. Axborot noaniqligining qiyin sharoitlarida real vaqt rejimida paxta g'aramining haroratini nazorat qilish va uni belgilangan qiymatlarda ushlab turish zarurati ushbu parametrlarni nazorat qilish tizimlarida hisoblash texnikasi vositalaridan foydalanishni talab qiladi.

Paxta g'aramining haroratini boshqarishning zamonaviy avtomatik tizimi - bu belgilangan chegaralarda ushbu parametrlarning qiymatini saqlab turish uchun zarur bo'lgan parametrlar to'g'risida to'liq ma'lumot olish va qayd etish vazifalari, dasturiy va texnik ta'minot vositalari majmuasidir.


Yaqin vaqtlargacha avtomatik boshqarish tizimlari moslashuvchan dasturlashtiriladigan kontrollerlardan foydalanishga asoslangan edi. Biroq oxirgi yillarda shaxsiy kompyuterlar (SHK) asosidagi boshqarish tizimlari bunday tizimlarga jiddiy raqobat bera boshladi. Shaxsiy kompyuterlar mos keluvchi zamonaviy IBMlarning arzonligini hisobiga yangi ishlab chiqilayotgan boshqarish tizimlari ko'proq ularga asoslangandir.

Dasturlashtiriladigan mantiqiy kontroller (DMK) va shaxsiy kompyuterni o'z ichiga olgan paxta g'aramining haroratini nazorat qilish uchun zamonaviy avtomatik tizimni ko'rib chiqaylik [122]. Tizim umumiy boshqaruv blokiga ulangan to'rt harorat datchiklari-1, ketma-ket ulangan qayd etish qurilmasi-2 va kontroller-3, uning bir chiqishi kompyuter-4 bilan bog'langan, boshqa chiqishi rele-5 bilan bog'langan, u tunneldagi havoni so'rib oluvchi ventilyator-6 ni ulab, g'aramdagi issiq va nam havoni so'rib chiqarib tashlash yo'li bilan sovutishni amalga oshiradi. Paxta xomashyosi g'aramlarida haroratni nazorat qilib, g'aramlardagi harorat 8 joydan (4 ta burchaklar tomondan, 4 tasi esa yon, old va orqa tomonlardan) 4 metr chuqurlikda o'lchanadi. Paxta uchun normal harorat agar u 2-3 kun ichida bir xil tursa, 35 °S dan ortmasligi kerak (sentabr-oktabr oylarida). Qolgan davrlarda qish havosida tashqi haroratdan paxtaning ichidagi harorat 15-16 °C atrofida issiq tomonga farq qilib, saqlanayotgan paxta to'dalaridagi harorat birinchi o'lchashda 35 °C dan ortiq bo'lsa yoki keyingi o'lchashlarda bir nuqtaning o'zida 2-3 darajaga ortib ketsa, g'aramdagi issiq va nam havoni so'rib chiqarib tashlanadi va shu yo'li bilan sovutiladi. Paxtaning o'z-o'zidan qizib ketishining oldini olish uchun issiq havo tunnellarga o'rnatilgan havo so'ruvchi qurilmalar yordamida chiqarib tashlanadi. Havo so'rish uchun UVP,

VS-8M, VS-10M qurilmalaridan foydalaniladi. Ushbu tizimning funksional sxemasi 2-rasmda ko'rsatilgan va u quyidagilarni o'z ichiga oladi.

Nazorat qilish tizimining ishlashi parametrning qiymatini tavsiflovchi datchiklardan olinayotgan signallar kontrollerning kirish modullariga beriladi va u yerda ular o'zgartiriladi va masshtablanadi. Kirish modullaridan olingan o'zgartirilgan signallar keyingi mantiqiy tahlil qilish uchun kontroller tomonidan o'qitiladi. Belgilangan tahlil asosida kontroller chiqish modullariga axborot signallarini uzatadi. Ushbu modullardan nazorat qilinayotgan parametrning qiymati haqidagi ma'lumotlar RS-485 interfeysi orqali operatorning shaxsiy kompyuteriga yuboriladi, u yerda operator uchun qulay shaklga keltiriladi.

Ko'rib chiqilayotgan tizim quyidagi funksiyalarni bajaradi: operatorning shaxsiy kompyuter ekranida ishonchli operatsion ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va taqdim etish; axborotni tashqi tizimlarga taqdim etish; texnologik jarayon tarixiga oid ma'lumotlar arxivini yaratish va ularni tahlil qilish uchun qulay shakllarda (matn, grafik, gistogramma va boshqalar) taqdim etish.



2-rasm. DMK va shaxsiy kompyuter yordamida paxta g'arami haroratini nazorat qilish uchun avtomatik tizimning funksional sxemasi

Tavsiflangan tizimni tahlil qilish natijasida shuni ta'kidlash mumkinki, uning afzalliklari paxta g'aramidagi harorat to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish, qayta ishlash, tezkor taqdim etish va arxivlash uchun katta imkoniyatga ega ekanligidir. Tizimning kamchiliklari uning ishonchli ishlashi katta hajmdagi kirish ma'lumotlariga bog'liqligi, boshqarish obyekti parametrlarining oldindan aytib bo'lmaydigan o'zgarishlari sharoitida adaptatsiyalashish qobiliyatining pasligidir.

Xulosa. Hozirgi kunga qadar paxta xomashyosining sifatli saqlash talablarini bajaradigan va paxta g'aramlarda texnologik jarayonlarning energiya sarfini kamaytiradigan arzon nazorat qilish tizimlarini ishlab chiqish kerak. Xususan, mavjud nazorat qilish tizimlarida faqat paxta g'aramining haroratini o'lchash kerakli aniqlikni ta'minlab bermaydi. G'aramlardagi paxta xomashyosini tog'ri va sifatli saqlash talablari va energiyani tejash qoidalariga rioya qilish uchun faqat paxta g'aramining haroratini emas, g'aramdagi paxtaning namligi, havoning harorat va nisbiy namligi, bosim va biologik omillarni xisobga olgan xolda operativ nazorat qilish zarur. Paxta g'aramlarini nazorat qilish va boshqarish obyektlari sifatida axborotlarning noaniqligi va nosstatsionarliligi bilan xarakterlanadi. Paxta g'aramlarida haroratni nazorat qilishni faqat

axborotlarni qayta ishlashning intellektual texnologiyalariga asoslangan zamonaviy avtomatik boshqaruv tizimlarini qo'llash bilan samarali amalga oshirish mumkindir.

Bugungi kunda axborotni tahlil qilish va qarorlar qabul qilish uchun zamonaviy kompyuter vositalari va intellektual texnologiyalardan foydalanishga asoslangan paxta g'aramidagi haroratni nazorat qilishning aniq tizimlarini ishlab chiqish zarurati tug'iladi.

References

1. Valiyev F.A., Nuriyev M.N. Rasprostraneniye tepla v masse xlopka –sirsa vo vremya samosogrevaniya. Nauchnyy jurnal. Byulleten nauki i praktiki. 2016 g. №6. 147-151.
2. R.A.Sailov.Vliyaniye protsessa xraneniya na posleuborochnoye sostoyaniye xlopka-sirsa. Texnologiya tektstilnoy promishlennosti.2009g.№5. (320)
3. Gulyayev R.A, Lugachev A.YE., Mardonov B.M. Razrabotka optimizirovannoy texnologii uvlanjneniya xlopka- sirsa i issledovaniye yeye vliyaniya na soxraneniye prirodnix i pryadilnix svoystv xlopkovogo volokna. Jurnal Texnologiya legkoy promishlennosti. Uzbekistan. 2017 god.str.15-19.
4. M.T.Xodjiyev,A.P.Sorkin.Vliyaniye protsessa uplotneniya na sostoyaniye xlopka sirsa pri yego dlitelnom xraneniye.Izvestiya vishix uchebnix zavedeniy. Texnologiya tekistilnoy promishlennosti. 1997. №3.(237)
5. Zikriyoyev E.Z. «Paxtani dastlabki qayta ishlash» O'quv qo'llanma. Toshkent, «Mexnat» 2002 y.
6. Zirosnichenko, G.I. Oborudovaniye i texnologiya proizvodstva pervichnoy obrabotki xlopka / G. I. Mirosnichenko. -M., 1980 – 228s.
7. Salimov A.M., Lugachev A.YE., M.T.Xodjiyev “Texnologiya pervichnoy obrabotki xlopka”. Uchebnoye posobiye.T.: “Adabiyot uchqunlari”, 2018. -148str.
8. Karimov Z.C., Ahmedov A.A va boshqalar. Elektron termoshup O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi tomonidan FAP 00749 patenti.
9. Samarskiy A.A. Chislenniye metodi: Ucheb, posobiye dlya vuzov-M.:Nauka. Gl. red. fiz-mat. lit., 1989.— 432 s.— ISBN 5-02-013996-3.
10. Uskov A.A., Kuzmin A.V. Intellektualniye texnologii upravleniya. Iskusstvenniye neyronniye seti i nechetkaya logika. — M.: Goryachaya liniya - Telekom, 2004. -143 s.
11. Soldatov V.V., Sudnik Y.A., Savosin S.I. Mikroprotsessornaya sistema avtomatizirovannogo kontrolya vlajnosti zerna i vozduxa v xranilishе / Avtomatizatsiya i informatsionnoye obespecheniye proizvodstvennix protsessov v sel'skom xozyaystve. Sbornik dokladov X mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii (16-17 sentabrya 2008 g., g. Uglich). Chast 1. — M.: izd-vo «Izvestiya», 2008. - S. 373 - 379.
12. Usov Y.P. Sredstva promishlennoy avtomatizatsii. - [http: www.rlda.ru/index.htm](http://www.rlda.ru/index.htm)
13. Yakushenko S.Y. Sovremenniye informatsionniye sistemi. - [http: www.rlda.ru/index.htm](http://www.rlda.ru/index.htm)

IKKI QAVVATLI TRIKOTAJ TO‘QIMALARINING BIR DAVRLI CHO‘ZILISH DEFORMATSIYASI KO‘RSATKICHLARINI PARAMETRIK TAHLILI

D.X.Ubaydullayeva, E.T.Laysheva, M.F Axmedova, R.A.Begmanov
Tashkent Institute of Textile and Light Industry

Annotatsiya. Ushbu maqolada elektron boshqaruv tizimiga ega bo‘lgan “LONG XING” rusumli 10 klass yassi ignadonli trikotaj mashinasining texnologik imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda to‘qima namunalarining tarkibiy chiziqli zichligi 32x2 teks PAN ipi olingan bo‘lib, trikotaj to‘qimasining tuzilishli yangi 4 ta variantda ikki qavatli trikotaj to‘qimalari olingan bo‘lib, bir davrli cho‘zilish deformatsiyasi hamda sifat ko‘rsatkichlari tadqiq qilinib, to‘qima tuzilishining o‘zgarishi deformatsiya xususiyatlariga ta’siri o‘rganilgan. Ushbu yangi olingan ikki qavatli trikotaj to‘qimalarining shakl saqlash xususiyati bilan birga ularining mexanik xususiyatlari tahlil qilinib, mustahkamlik ko‘rsatkichining shakl saqlash xususiyatiga ta’siri tahlil qilingan. Yangi tuzilishli to‘qimalarning to‘liq deformatsiyasini tahlil qilishda qoldiq deformatsiya miqdorini cho‘zilish deformatsiyani aniqlash va to‘qima variantlarining bo‘ylama va ko‘ndalang bo‘yicha bir davrli cho‘zilish deformatsiyadan olingan ko‘rsatkichlarning tasodifiy qiymatlarining variatsiya koeffitsiyenti va kvadratik notekislik ko‘rsatkichlari normal taqsimlanish qonuniyatiga bo‘ysunishi tekshirildi va olingan tajriba natijalarining ishonchlilik darajalarini Fisher mezoni bo‘yicha solishtirilib, ikki qavatli trikotaj to‘qimalaridan ustki mahsulotlar ishlab chiqishda ularning shakl saqlash xususiyatini qayshoq, elastik, plastik deformatsiya ko‘rsatkichlari bo‘yicha tahlili, tajriba natijalarining dispersiyalari shakl saqlash xususiyatining ularning to‘qima tuzilishning o‘zgarishiga bog‘liqligi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: bir davrli cho‘zilish deformatsiyasi, bo‘ylama, ko‘ndalang, ikki qavatli trikotaj to‘qima, normal taqsimlanish qonuniyati, dispersiya, qayshoq deformatsiya, elastik deformatsiya, plastik deformatsiya, Fisher mezoni, shakl saqlash xususiyati.

Аннотация. В данной статье за счет эффективного использования технологических возможностей плосковязальной машины 10 класса «LONG XING» с электронной системой управления получены образцы полотен из пряжи ПАН структурной линейной плотностью 32x2 текс и получены двухслойные трикотажные полотна в 4 новых вариантах структуры трикотажного полотна. Исследованы деформация удлинения за один цикл и показатели качества, изучено влияние изменения структуры полотна на деформационные свойства. Были проанализированы свойства сохранения формы этих новых двухслойных трикотажных полотен, а также их механические свойства, а также влияние показателя прочности на свойства сохранения формы. При анализе полной деформации новых структурированных полотен определялась величина остаточной деформации по деформация растяжения и проверялось соответствие коэффициента вариации и квадрата неравномерности случайных величин показателей, полученных при продольной и поперечной одно цикловой деформации удлинения вариантов полотен закону нормального распределения, а также сравнивались уровни достоверности полученных экспериментальных результатов по критерию Фишера. При разработке верхних изделий из двухслойных трикотажных полотен анализировались их форма устойчивые свойства по показателям упругой, эластичной и пластической деформации, изучалась дисперсия экспериментальных результатов, а также зависимость форма устойчивых свойств от изменения их фактуры.

Ключевые слова: деформация одно циклового растяжения, продольная, поперечная, двухслойное трикотажное полотно, нормальный закон распределения, дисперсия, вязкая деформация, упругая деформация, пластическая деформация, критерий Фишера, свойство сохранения формы.

Abstract. *In this article, due to the effective use of the technological capabilities of the LONG XING class 10 flat knitting machine with an electronic control system, samples of fabrics from PAN yarn with a structural linear density of 32x2 tex were obtained, and two-layer knitted fabrics in 4 new variants of the knitted fabric structure were obtained. The elongation deformation per one cycle and quality indicators were investigated, the effect of changing the fabric structure on the deformation properties was studied. The shape-retaining properties of these new two-layer knitted fabrics, as well as their mechanical properties, and the effect of the strength indicator on the shape-retaining properties were analyzed. When analyzing the total deformation of the new structured fabrics, the value of residual deformation by tensile deformation was determined and the conformity of the variation coefficient and the square of unevenness of random values of the indicators obtained during longitudinal and transverse one-cycle elongation deformation of fabric variants to the law of normal distribution was checked, and the reliability levels of the experimental results obtained were compared according to the Fisher criterion. When developing outerwear from two-layer knitted fabrics, their form and stable properties were analyzed according to the indicators of elastic, flexible and plastic deformation, the dispersion of experimental results was studied, as well as the dependence of the form and stable properties on changes in their texture.*

Key words: *single-cycle stretching deformation, longitudinal, transverse, double-layer knitted fabric, normal distribution law, dispersion, elastic deformation, elastic deformation, plastic deformation, Fisher criterion, shape retention property.*

Kirish. Trikotaj ishlab chiqarishni rivojlantirish jahon bozori tendensiyalari, yangi texnologiyalar asosida assortiment turlarini kengaytirish, sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish bilan belgilanadi. Nazariy jihatdan bu muommaning yechimi trikotaj mahsulotlarining xususiyatlarini nazariy tahlil qilish, trikotaj xossalari bo'yicha optimal parametrlarga ega bo'lgan to'qimalar ishlab chiqarish muhim hisoblanadi. Ushbu ilmiy ishning maqsadi to'qima tuzilishi turlicha bo'lgan ikki qavvatli trikotaj to'qimalarining xususiyatlarini tahlil qilish orqali shaklsaqdash xususiyati yuqori bo'lgan turlarini ishlab chiqish imkonini beradi. Shu maqsadda elektron boshqaruvga ega zamonaviy yassi ignadonli trikotaj to'quv mashinasida ikki qavvatli to'qimaning 4 ta variantlaridan namunalar olindi.

Ustki kiyimlar ishlab chiqarishda ikki qavvatli trikotaj to'qimalaridan keng foydalaniladi. Ikki qavvatli trikotaj to'qimalari ishlab chiqarish oddiy to'qimalarni murakkablashtirilib, naqshli to'qimalar olish hisobiga olingan mato bo'lib, asosan ustki trikotaj mahsulotlari foydalaniladi. Ustki trikotaj mahsulotlari kiyimlar uchun foydalaniladigan to'qimalarning shakl saqlash xususiyati eng muhim xususiyatlaridan hisoblanadi [1,2,3,4,5]. Trikotaj mahsulotlarining shakl saqlash xususiyati bo'yicha o'rganilgan tadqiqotlar asosan to'qima tarkibini o'zgartirish, qo'shimcha ip qo'yish, to'qima tarkibiga elementlar qo'shish orqali amalga oshirilgan [6-13]. To'qimalarning bir davrli deformatsiyalari talili orqali ularning shakl saqlash xususiyatini tadqiq etish va to'qimalarning sifatini baholash imkoniyatini beradi.

Tajriba o'tkazish metodikasi. Shakl saqlash xususiyatini aniqlash uchun dastlab namunalarining uzilish kuchi aniqlanildi (1-jadval). Uzilish kuchini aniqlash uslubi yarim davrli cho'zilish deformatsiyani aniqlash AG-1 asbobida gorizontal va vertikal bo'yicha aniqlanildi. Bunda namunalar xalqa ustunchalari va xalqa qatori bo'yicha 200x50 mm 5 tadan kam bo'lmagan namunalar tayyorlandi.

Asbobning pastki va yuqori qisqichlariga belgilangan chiziq (100mm) bo'yicha qistiriladi, asbob ishga tushiriladi. Kompyuter boshqaruv orqali barcha ma'lumotlar (uzilish kuchi N, ulishdagi uzayish mm) monitorda qayd etiladi. Bir davrli cho'zilish deformatsiyasini aniqlash uchun har bir variant to'qima namunalarining uzilish kuchidan 5 % miqdorda yuk qo'yilib, bir davrli cho'zilish deformatsiyasini aniqlash uskunasi (stoyka) yordamida 2 soat davomida (1 soat – yuk bilan, 1 soat – yuksiz) tajriba olib boriladi [14-15].

1-jadval

ko'rsatkichlar	yo'nalish	1 namuna	2 namuna	3 namuna	4 namuna	GOST
Uzilish kuchi, R, N	Bo'ylama	289,76	354,66	452,665	479,26	479,26
	Ko'ndalang	415,4	321,73	363,435	301,03	301,03
Uzilishdagi uzayish, L,%	Bo'ylama	14	13	17	16	GOST 8847-85 6 N da 40-100% gacha 2 guruh
	Ko'ndalang	15	22	18	20	

To'liq deformatsiya (qayshqoq, elastik va plastik) xususiyatini stoyka asbobida vaqt davomiyligida aniqlanildi va natijalar 2-jadvalda keltirildi.

2-jadval

Variant	Yo'nal vaqt	Bo'lama						Ko'ndalang							
		1 ¹	1	10	20	30	40	60	1 ¹	1	10	20	30	40	60
1 variant	yuk	164	167	171	171	172	173	173	156	158	159	159	160	160	160
	yuksiz	130	125	121	119	118	116	114	131	126	122	118	116	115	115
2 variant	yuk	140	141	145	145	147	147	148	144	145	148	149	150	152	153
	yuksiz	125	120	118	117	115	114	114	125	120	118	117	116	114	114
3 variant	yuk	147,3	147,5	148	148	148	148	179	181	182	182	182	183	183	183
	yuksiz	114,6	111,6	111,3	110	108,6	108	106	131	126	124	122	119	117	116
4 variant	yuk	155	158	160	160	162	162	163	210	218	222	222	225	225	228
	yuksiz	126	121	119	117	115	115	114	150	140	135	130	125	123	120

Tajriba uchun olingan trikotaj namunalari boshlang'ich uzunligi bilan qo'zg'almas yuqori qisqichga mahkamlanadi. Namunaning pastki uchiga massali yuk osiladi. Osiladigan yukning massasi odatda haqiqiy mustahkamlik ko'rsatkichining 5% ni tashkil etadi. Yuk ta'sirida namuna cho'ziladi, qisqa vaqt ichida (3 sek) namunaning cho'zilishini qayshqoq deformatsiya qismiga yoziladi. Har bir namuna (11,1,10,20,30,40,60) vaqt ichida cho'zilishini qayd etilib turiladi. Shu vaqt ichida elastik va plastik deformatsiya miqdori oshadi.

To'liq mutloq deformatsiya:

$$l_T = L_1 - L_0, \text{ mm yoki } l_T = l_K + l_{\text{O}} + l_{\text{II}}, \text{ mm} \quad (1)$$

To'liq nisbiy deformatsiya:

$$\varepsilon_T = \frac{l - L_0}{L_0} \cdot 100 = \frac{l_T}{L_0} \cdot 100, \text{ foiz} \quad (2)$$

yoki

$$\varepsilon_T = \varepsilon_K + \varepsilon_{\text{O}} + \varepsilon_{\text{II}}, \text{ foiz} \quad (3)$$

Bo'ylama bo'yicha bir davrli cho'zilish deformatsiyasini Fisher mezonlari asosida tekshiramiz.

3-jadval

Deformatsiya	Variantlar			
	I	II	III	IV
Umumiy	73	48	79	63
Qayshqoq	43	23	64,4	37
Elastik	16	11	8,6	12
Plastil	14	14	6	14

Tajriba natijalarini tahlili. Namunalarning bo‘ylamasi bo‘yicha bir davrli deformatsiyasi tahlil qilinganda birinchi namunada umumiy cho‘zilish deformatsiyasi 73 % ni tashkil etdi, shundan 43 % (58,9%) qayshqoq deformatsiyani, 16 % (21,9%) elastik deformatsiyani, 14 % (19,2 %) plastik deformatsiyani tashkil etdi. Ikkinchi namunada umumiy deformatsiya 48%, shundan qayshqoq deformatsiya 23% (47,9%), elastik deformatsiya 11% (22,9%), plastik deformatsiya 14 % (29,2%)ni tashkil etdi. Uchinchi variant namunaning umumiy deformatsiyasi 79 %, shundan 64,4% (81,5 %) qayshqoq deformatsiya, elastik deformatsiya 8,6% (10,9%)ni, plastik deformatsiya 6 % (7,6%)ni tashkil etdi. To‘rtinchi variant umumiy deformatsiyasi 63% ni shundan 37 % (58,7%) qayshqoq deformatsiya 12 % (19,1 %) ni, 12 (19,1%) elastik deformatsiyani, plastik deformatsiya 14% (19,1%) ni tashkil etdi.

O‘tkazilgan tajribalar asosida variatsiya koeffitsiyenti va kvadratik notekislik ko‘rsatkichlari aniqlandi.

$$S^2_{\{y\}} = \frac{1}{m-1} \cdot \left(\sum_{i=1}^m (y_i - \bar{y})^2 \right) \quad (4)$$

$$\text{O‘rtacha qvadratik og‘ish } S_{\{y\}} = \sqrt{S^2_{\{y\}}}, \quad S_{\{y\}} = \frac{1}{m-1} \cdot \left(\sum_{i=1}^m (y_i - \bar{y})^2 \right) \quad (5)$$

$$\text{Kvadratik notekislik } C_n = \frac{S_{\{y\}}}{y} \cdot 100, \% , \quad C_T = \frac{\sigma_T}{\eta} \cdot 100, \% \quad (6)$$

I variant (bo‘ylama) uchun:

$$S^2_{\{y\}} = \frac{1}{m-1} \cdot \left(\sum_{i=1}^m (y_i - \bar{y})^2 \right) = \frac{1}{29} \cdot 218 = 7,52;$$

$$S_{\{y\}} = \sqrt{S^2_{\{y\}}} = \sqrt{7,52} = 2,74$$

$$C_n = \frac{S_{\{y\}}}{y} \cdot 100, \% = \frac{2,74}{73} \cdot 100 = 3,75$$

II variant (bo‘ylama) uchun:

$$S^2_{\{y\}} = \frac{1}{m-1} \cdot \left(\sum_{i=1}^m (y_i - \bar{y})^2 \right) = \frac{1}{29} \cdot 342 = 11,79$$

$$S_{\{y\}} = \sqrt{S^2_{\{y\}}} = \sqrt{11,79} = 3,43$$

$$C_n = \frac{S_{\{y\}}}{y} \cdot 100, \% = \frac{3,43}{48} \cdot 100 = 7,14$$

III variant (bo‘ylama) uchun:

$$S^2_{\{y\}} = \frac{1}{m-1} \cdot \left(\sum_{i=1}^m (y_i - \bar{y})^2 \right) = \frac{1}{29} \cdot 416 = 14,34$$

$$S_{\{y\}} = \sqrt{S^2_{\{y\}}} = \sqrt{14,34} = 3,78$$

$$C_n = \frac{S_{\{y\}}}{y} \cdot 100, \% = \frac{3,78}{79} \cdot 100 = 4,78$$

IV variant (bo‘ylama) uchun:

$$S^2_{\{y\}} = \frac{1}{m-1} \cdot \left(\sum_{i=1}^m (y_i - \bar{y})^2 \right) = \frac{1}{29} \cdot 648 = 22,34$$

$$S_{\{y\}} = \sqrt{S^2_{\{y\}}} = \sqrt{22,34} = 4,73$$

$$C_n = \frac{S\{y\}}{y} \cdot 100, \% = \frac{4,73}{63} \cdot 100 = 7,5$$

Olingan natijalar 3-jadvalda keltirilgan.


4-jadval

I variant			II variant			III variant			IV variant		
$S^2\{y\}$	$S\{y\}$	CV %	$S^2\{y\}$	$S\{y\}$	CV %	$S^2\{y\}$	$S\{y\}$	CV %	$S^2\{y\}$	$S\{y\}$	CV %
7,52	2,74	3,75	11,79	3,43	7,14	14,34	3,78	4,78	22,34	4,73	7,5

Olingan natijalar ahamiyatliliği Fisher mezoni asosida tekshirildi

Fisher mezoni:

Agar U_1 va U_2 tasodifiy qiymatlar NTQ (Normal taqsimlanish qonuni) bo'yicha 2 ta dispersiya solishtiriladi F (Fisher) mezoni bo'yicha baholanadi.



Xususi hol: $F = \frac{S_1^2}{S_2^2}$, suratda ikkalasining katta dispersiyasi.

Lekin Fisher taqsimoti

$$F \left\{ \begin{array}{l} f = m_1 - 1 \\ f = m_2 - 1 \end{array} \right. , \text{ hamda } \alpha \left. \right\} \text{ e'tiborga olinadi.}$$

$$F_R = \frac{S_1^2\{y\}}{S_2^2\{y\}} = \frac{\frac{1}{m_1 - 1} \sum (y_{2_1} - \bar{y}_1)^2}{\frac{1}{m_2 - 1} \sum (y_{2_2} - \bar{y}_2)^2} \quad (7)$$

bu $F_T\{P_D = 1 - \alpha; f_1 = m_1 - 1; f_2 = m_2 - 1\}$ bilan solishtiriladi.

I variant va II variant uchun:

$$F_R = \frac{S_1^2\{y\}}{S_2^2\{y\}} = \frac{11,49}{7,52} = 1,53$$

$$F_T = \left\{ \begin{array}{l} \alpha = 0,05, P_D = 0,95 \\ f_1 = m_1 - 1, f_2 = m_2 - 1 \end{array} \right\} \left\{ \begin{array}{l} \alpha = 0,05, P_D = 0,95 \\ f_1 = 29, f_2 = 29 \end{array} \right\} = 1,85$$

$F_R < F_T$ bo'lsa, $\sigma_1^2 \neq \sigma_2^2$ ikki yoqlama kritik chegaralarda baholanadi.

II variant va III variant uchun:

$$F_R = \frac{S_1^2\{y\}}{S_2^2\{y\}} = \frac{14,34}{11,49} = 1,25$$

$$F_T = \left\{ \begin{array}{l} \alpha = 0,05, P_D = 0,95 \\ f_1 = m_1 - 1, f_2 = m_2 - 1 \end{array} \right\} \left\{ \begin{array}{l} \alpha = 0,05, P_D = 0,95 \\ f_1 = 29, f_2 = 29 \end{array} \right\} = 1,85$$

$F_R < F_T$ bo'lsa, $\sigma_1^2 \neq \sigma_2^2$ ikki yoqlama kritik chegaralarda baholanadi.

III variant va IV variant uchun:

$$F_R = \frac{S_1^2\{y\}}{S_2^2\{y\}} = \frac{22,34}{11,49} = 1,94$$

$$F_T = \left\{ \begin{array}{l} \alpha = 0,05, P_D = 0,95 \\ f_1 = m_1 - 1, f_2 = m_2 - 1 \end{array} \right\} \left\{ \begin{array}{l} \alpha = 0,05, P_D = 0,95 \\ f_1 = 29, f_2 = 29 \end{array} \right\} = 1,85$$

$F_R > F_T$ bo'lsa N_0 gipoteza $R_d=0,95$ ishonch ehtimolligida rad qilanadi, ya'ni $\sigma_1^2 \geq \sigma_2^2$ deb hisoblanadi.

I variant va IV variant uchun:

$$F_R = \frac{S_1^2\{y\}}{S_2^2\{y\}} = \frac{22,34}{7,52} = 2,97$$

$$F_T = \left\{ \begin{array}{l} \alpha = 0,05, P_D = 0,95 \\ f_1 = m_1 - 1, f_2 = m_2 - 1 \end{array} \right\} \left\{ \begin{array}{l} \alpha = 0,05, P_D = 0,95 \\ f_1 = 29, f_2 = 29 \end{array} \right\} = 1,85$$

$F_R > F_T$ bo'lsa N_0 gipoteza $R_d=0,95$ ishonch ehtimolligida rad qilanadi, ya'ni $\sigma_1^2 \geq \sigma_2^2$ deb hisoblanadi.

Olingan natijalar quyidagi 5-jadvalda keltirilgan

5-jadval

I variant va II variant		II variant va III variant		III variant va IV variant		I variant va IV variant	
F_R	F_T	F_R	F_T	F_R	F_T	F_R	F_T
1,53	1,85	1,25	1,85	1,94	1,85	2,97	1,85

Ko'ndalang bo'yicha bir davrli deformatsiyasi ko'rsatkichlarini Fisher mezoni bo'yicha tekshiramiz.

6-jadval

deformatsiya	Variantlar			
	I	II	III	IV
Umumiy	60	53	83	128
Qayishqoq	29	28	52	78
Elastik	16	11	15	30
Plastik	15	14	16	20

Namunalarning ko'ndalang bo'yicha bir davrli deformatsiyasi bo'yicha tahlil qilinganda IV variant qayshqoq deformatsiyasi 78 % (61%) tashkil etdi, bundan I variantga nisbatan 48 % (48,3) ga, II variantga nisbatan 50 % (52,8%) ga, III variantga nisbatan 26 % (62,6%)ga yuqoriligi aniqlandi.

I variant (ko'ndalang) uchun:

$$S^2_{\{y\}} = \frac{1}{m-1} \cdot \left(\sum_{i=1}^m (y_i - \bar{y})^2 \right) = \frac{1}{29} \cdot 270 = 9,31;$$

$$S_{\{y\}} = \sqrt{S^2_{\{y\}}} = \sqrt{9,31} = 3,05$$

$$C_n = \frac{S_{\{y\}}}{y} \cdot 100, \% = \frac{3,05}{60} \cdot 100 = 5,08$$

II variant (ko'ndalang) uchun:

$$S^2_{\{y\}} = \frac{1}{m-1} \cdot \left(\sum_{i=1}^m (y_i - \bar{y})^2 \right) = \frac{1}{29} \cdot 602 = 20,75$$

$$S_{\{y\}} = \sqrt{S^2_{\{y\}}} = \sqrt{20,75} = 4,55$$

$$C_n = \frac{S_{\{y\}}}{y} \cdot 100, \% = \frac{4,55}{53} \cdot 100 = 8,58$$

III variant (ko'ndalang) uchun:

$$S^2_{\{y\}} = \frac{1}{m-1} \cdot \left(\sum_{i=1}^m (y_i - \bar{y})^2 \right) = \frac{1}{29} \cdot 1120 = 38,62$$

$$S_{\{y\}} = \sqrt{S^2_{\{y\}}} = \sqrt{38,62} = 5,71$$

$$C_n = \frac{S_{\{y\}}}{y} \cdot 100, \% = \frac{5,71}{83} \cdot 100 = 6,87$$


IV variant (ko'ndalang) uchun:

$$S^2_{\{y\}} = \frac{1}{m-1} \cdot \left(\sum_{i=1}^m (y_i - \bar{y})^2 \right) = \frac{1}{29} \cdot 394 = 13,58$$

$$S_{\{y\}} = \sqrt{S^2_{\{y\}}} = \sqrt{13,58} = 3,68$$

$$C_n = \frac{S_{\{y\}}}{y} \cdot 100, \% = \frac{3,68}{128} \cdot 100 = 2,87$$

I variant			II variant			III variant			IV variant		
$S^2\{y\}$	$S\{y\}$	CV	$S^2\{y\}$	$S\{y\}$	CV	$S^2\{y\}$	$S\{y\}$	CV	$S^2\{y\}$	$S\{y\}$	CV
		%			%			%			%
9,31	3,05	5,08	20,75	4,55	8,58	38,62	5,71	6,87	13,58	3,68	2,87



Olingan natijalar ahamiyatliliği Fisher mezonlari asosida tekshirildi

Fisher mezonı:

Agar U_1 va U_2 tasodifiy qiymatlar NTQ (Normal taqsimlanish qonuni) bo'yicha 2 ta dispersiya solishtiriladi F (Fisher) mezonı (7) formula bo'yicha baholanadi.

Xususi hol: $F = \frac{S_1^2}{S_2^2}$, suratda ikkalasining katta dispersiyasi.

I variant va II variant uchun:

$$F_R = \frac{S_1^2\{y\}}{S_2^2\{y\}} = \frac{20,75}{9,31} = 2,23$$

Аннотация. Мақоллада mitti mokili dastgohlarda arqoq iplarini homuzaga tashlash jarayoni, uning nazariy va amaliy asoslari batafsil tahlil qilingan. Tadqiqot davomida arqoq ipining harakati, tormozlanishi va tarangligi bilan bog'liq jarayonlar chuqur o'rganildi. Arqoq ipini homuzaga tashlash texnologiyasining takomillashuvi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Maqolada mitti moki, qabul qilish qutisi, arqoq ipining harakati va taranglikni boshqarish mexanizmlari o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi. Ossillogrammalar va siklogrammalar yordamida arqoq ipining uziluvchanligiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilindi va baholandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, arqoq ipining tarangligi va deformatsiyasi tashlash tezligi va yo'naltiruvchilardagi ishqalanish koeffitsienti bilan bog'liq ekani aniqlandi. Bundan tashqari, maqolada arqoq ipining uzilishini oldini olish, mitti mokili dastgohlarda samaradorlikni oshirish va ipning harakat parametrlarini optimallashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari mitti mokili to'quv dastgohlarining texnologik jarayonlarini yaxshilash, iplarning uzilishini kamaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan. Shuningdek, maqolada arqoq iplarining taranglik darajasiga ta'sir qiluvchi turli omillar o'rganilgan va ularning ishlab chiqarish jarayoniga ta'siri tahlil qilingan. Ushbu natijalar to'quv texnologiyalarini yanada rivojlantirish, iplarning barqarorligini oshirish va matolar sifatini yaxshilash uchun muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari sanoat korxonalarida qo'llanilishi mumkin bo'lib, ishlab chiqarish jarayonining yanada samarali tashkil etilishiga yordam beradi.

Калит so'zlar: to'quvshilik, arqoq ipi, mitti moki, to'quv dastgohi, taranglik, homuza, arqoq tashlash mexanizmi.

Аннотация. В данной статье проводится всесторонний анализ процесса прокладки уточных нитей в зев на ткацких станках с прокладчиком, а также его теоретических и практических аспектов. В ходе исследования подробно рассмотрены механизмы движения, торможения и натяжения уточной нити, что имеет ключевое значение для повышения эффективности производственного процесса. Анализируются взаимодействие прокладчика, приемного устройства и механизмов контроля натяжения уточной нити. На основе осциллограмм и циклограмм определены основные факторы, влияющие на разрыв уточных нитей. Результаты показывают, что натяжение и деформация уточной нити напрямую зависят от скорости прокладывания и коэффициента трения направляющих элементов. Также предложены рекомендации по предотвращению обрывов уточных нитей, повышению характеристик ткацких станков и оптимизации параметров движения нити. Полученные данные могут быть использованы для совершенствования ткацких технологий, повышения устойчивости нитей в процессе ткачества и увеличения общей производительности оборудования. В статье анализируются различные факторы, влияющие на натяжение уточных нитей, и их влияние на технологический процесс производства. Результаты исследования особенно важны для текстильной промышленности, так как они позволяют минимизировать потери сырья, улучшить качество готовых тканей и повысить эффективность работы ткацких станков. Исследование направлено на практическое применение в промышленных условиях, что делает его актуальным для предприятий текстильной отрасли.

Ключевые слова: ткачество, уточный нить, прокладчик, ткацкий станок, натяжение, зев, механизм прокладывание уточной нити.


Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the process of inserting weft yarns into the shed in projectile looms, focusing on both theoretical and practical aspects.

The study examines in detail the mechanisms of weft yarn movement, braking, and tension, which are crucial for improving production efficiency. The interaction between the projectile, the receiving unit, and the weft tension control mechanisms is analyzed. Using oscillograms and cycle diagrams, the main factors affecting weft yarn breakage are identified and evaluated. The results show that weft yarn tension and deformation are directly influenced by insertion speed and the friction coefficient of guiding elements. Furthermore, recommendations are proposed to reduce the frequency of weft yarn breakages, enhance the performance of projectile looms, and optimize yarn movement parameters. The obtained data can be applied to further develop weaving technologies, improve yarn stability during the weaving process, and increase overall equipment productivity. The article also analyzes various factors affecting weft yarn tension and their impact on the production process. The findings of this study are particularly significant for the textile industry, as they help minimize raw material losses, improve fabric quality, and enhance the efficiency of weaving looms. The research is aimed at practical applications in industrial settings, making it highly relevant for textile manufacturing enterprises.

Key words: weaving, weft yarn, projectile, weaving loom, tension, shed, filling insertion.

Kirish. Mitti mokili to‘quv dastgohlarida arqoq ipini homuzaga tashlash uchun arqoq mokilardan foydalaniladi. Arqoq ipini homuzaga tashlovchi mokilardan foydalanish natijasida dastgoh tezligi sezilarli darajada oshgan. Arqoq iplari, qo‘zg‘ almas bobinalardan chuvatib olinadi. Arqoq iplarni homuzaga tashlash jarayonida, mitti mokilardan tashqari dastgohlarda quyidagi mexanizmlar ishtirok etadi: mitti moki qisqichini ochuvchi, mitti mokini ko‘taruvchi, arqoq ipini qaytaruvchi, qaychilar, milk hosil qiluvchi mexanizmlar, qabul qilish qutisi mexanizmlari, mitti mokilarni tormozlash mexanizmi, arqoq ipini tormozlashni nazorat qiluvchi, arqoq iplarini qabul qiluvchi qutidan zarb qutisiga etkazib beruvchi konveyer. Mitti moki qutida dastlabki holatni egallagandan so‘ng mitti moki prujinasiga ochib beruvchi mexanizm ilgagi kiradi. Keyin mitti moki ko‘taruvchi mexanizm bilan zarb chizig‘ iga uzatiladi. Berilgan dasturga asoslanib, ranglarni o‘zgartirish mexanizmi mitti moki zarb chizig‘ iga ko‘tarilganidan keyin ko‘tarish mexanizmi to‘xtaydi, ilgak ortga harakatlangan holda, ochiladi. Arqoq ipini ildirib oluvchi ilgaklar arqoq ipini qo‘yib boradi, arqoq ipini ilgakdan mitti mokiga berish holati sodir bo‘ladi. Mitti moki arqoq ipini ildirib olganidan so‘ng zarb mexanizmi unga 20-26 m/s tezlik bilan harakat beradi va mitti moki homuzaga bo‘ylab erkin parvoz qilib, qabul qilish qutisi tomonga harakatlanadi, natijada arqoq ipini homuzaga tashlash sodir bo‘ladi. Qabul qilish qutisida mitti moki tormozlash mexanizmi yordamida to‘xtatiladi va nazoratchi yordamida tekshiriladi. Keyin arqoq ipi qaytarish mexanizmi yordamida mato milkiga uzatiladi va milk hosil qiluvchi mexanizmining ignasi tomonidan bukiladi hamda milk hosil qilinadi. Bundan tashqari qaytarish mexanizmi, mitti moki prujinasini ochib beruvchi mexanizm va mitti mokiga zarb beruvchi mexanizmlarning to‘g‘ri ishlashini ta‘minlab beradi. Mitti moki prujinasini ochib beruvchi mexanizmi mitti mokining qisqichlari bilan tutib qolingani arqoq iplarini bo‘shatish va mitti mokilarni qabul qilish qutisidan yo‘naltiruvchi teshikka itarib chiqarish uchun mo‘ljallangan. Mitti moki ipni qo‘yib yuborgan vaqtda mitti moki taxtlash mexanizmi yordamida yo‘naltiruvchi teshikka uzatiladi, undan so‘ng yo‘naltiruvchi teshiklardan mitti mokilar zarb qutisiga transportirovka qiladigan konveyerga uzatiladi.

Nazariy tadqiqotlar. 1-rasmda mitti mokili dastgohlarni arqoq ipi bilan ta‘minlash texnologik sxemasi tasvirlangan.




1-rasm. Mitti mokili dastgohlarni arqoq ipi bilan ta‘minlash texnologik sxemasi

Tadqiqot ishining siklli diagrammasiga asosan arqoq ipini homuzaga tashlash, dastgoh asosiy valining 140^0-295^0 , ya'ni 155^0 aylanishini tashkil etadi. So'ngra arqoq ipini homuzadan kompensator yordamida zarb qutisi tomonga, ya'ni qarama-qarshi yo'nalishiga tortib olish ro'y beradi. Arqoqni tormozlash asosiy valning 180^0 aylanish burchagida ro'y bera boshlaydi [1-2].

Ossillogrammadan (2-rasm) ko'rinib turibdiki, taranglik tormozlash momenti boshlanishi maksimumga qadar kattalashadi, qolaversa, aynan shu vaqtda arqoq ipining harakati jarayonida unga nisbatan qattiq zarba ro'y beradi. Bunday tormozlash, matoda arqoq ipi miqdorning meyorida ortiq bo'lmasligi ushuncha zarurdir. Ushbu dastgohlarning arqoq ipini tormozlash mexanizmlari qat'iy siklogramma asosida ishlaydi, ya'ni tormozlash jarayoni asosiy valning ma'lum bir holatida ro'y beradi, mitti moki esa qabul qilish qutisiga turli vaqtda uchib kiradi va to'xtaydi. Mokining uchib chiqish vaqti dastgohning taxtlash eniga, bosh valning aylanish chastotasiga, mitti moki uchib chiqishining boshlang'ich tezligiga, arqoq ipining chiziqli zichligiga va boshqa bir necha sabablarga ko'ra o'zgarib turadi. Agar mitti moki qabul qilish qutisi tomonga uchib chiqib, arqoq ipining to'xtab qolishi boshlanishidan avvalroq to'xtab qolsa, unda dastgohni to'xtab qolishiga yoki matoda nuqson paydo bo'lishiga olib keladi. STB dastgohlarida, amaliy jihatdan mokining uchib shiqishi bilan bog'liq har qanday holatda to'quvchilik jarayonida uzilish bo'lmasligi uchun, ipni navbatdan tashqari tormozlash nazarda tutilgan.

Arqoq ipining tarangligiga turli omillarning ta'sirini yanada mukammalroq tahlil qilish uchun 2-rasmda aks ettirilgan ossillogramma zonalarga bo'lingan.

Arqoq tashlash bilan bog'liq sikldagi har bir zona u yoki bu omillarning ta'siri ostida vujudga keladi.



$$T = 2 \frac{sN}{\text{mm}}$$

1-arqoq ipi tarangligi

2-nol faza

3-bosh valning to'liq bir marta aylanishi

2-rasm. Arqoq ipi tarangligining ossillogrammasi

Birinchi zona (2-rasm, I) mitti mokining tezlanish vaqtiga to'g'ri keladi (dastgoh bosh valining 140^0 ga burilishida). Ushbu zona mitti moki maksimal tezlikka erishganida tugaydi (dastgoh bosh valining 155^0-160^0 ga burilishida). Mitti moki bilan birga ipning bir nesh qismi ham harakatlanadi. Juda ham qisqa vaqt – 0,006 soniyada – mitti moki va ipning tezligi noldan 19-26 m/s gasha ortadi. Ushbu zonadagi taranglik noldan ma'lum bir qiymatgacha o'zgaradi, taranglikni o'sib borishi deyarli qisqa lahzada ro'y berib, ossillogrammadagi qayd etilgan birinchi cho'qqi hosil bo'ladi. Taranglik mitti mokining tezligiga bog'liq bo'lib, u o'z navbatida torsion valning burilish burchagining kattaligiga bog'liq bo'ladi. Mitti moki bilan harakatlanayotgan ipning ortiqcha qismi kompensator tomonidan ushlab qolinadi.

Ikkinchi zona (2-rasm II) homuzada erkin parvoz qilayotgan mitti moki va uning ortidan harakatlanayotgan arqoq ipining homuzadan o'tish vaqtiga mos keladi (dastgoh bosh valining 160^0 ga burilishida). II zona ikkinchi cho'qqining eng yuqori nuqtasida, taranglik hosil

bo'lganida tugaydi, bu arqoq ipining bevosita bobinadan eshilish davriga mos keladi (dastgoh bosh valining 185^0 ga burilishida). Ushbu zonadagi taranglik kompensatorning siljish burchagiga, arqoq ipining chiziqli zichligiga, zonadagi ipning og'irligi va ipning tarkibiga bog'liq bo'ladi.

Uchinshi zona (2-rasm III) shunisi bilan xususiyatliki, ushbu zonadagi taranglik ma'lum bir darajada kamayganidan so'ng barqarorlashadi va butun interval davomida ushbu barqarorlik saqlanib boradi (dastgoh bosh valining 185^0 - 230^0 ga burilishida). Ushbu zonadagi taranglikning kattaligi arqoq ipi bilan ta'minlab beruvchi bobinadan ipning chuvalib chiqishi, uning yo'naltiruvchi element bilan ishqalanishi va ushbu elementlarning ip bilan qamrab olish burchaklariga bog'liq bo'ladi.

Ushbu jarayon arqoq ipni tormozlash dastakchasi bilan to'xtatilish jarayoni boshlanguncha davom etadi. Arqoq ipini tormozlashning boshlanish vaqtida taranglik shiddat bilan ortadi, bu ossillogrammadagi uchinchi va to'rtinchi zonalar chegaralaridagi keskin ko'tarilish bilan mos keladi. Ushbu kattalik arqoq ipining chiziqli zichligi, mitti mokining tezligi, ta'minlab beruvchi bobinadagi ipning chuvalib chiqish sharoitiga bog'liq bo'ladi.

To'rtinchi zona (2-rasm IV) taranglikni bir muncha oshishi bilan ta'riflanadi. Bu arqoq ipiga tormozlash mexanizmi va nazoratchi ta'sirida ro'y beradi (dastgoh bosh valining 230^0 - 304^0 ga burilishida). Ushbu zonadagi taranglikning qiymati uchinshi zonadagi taranglik, tormozlash mexanizmi dastagining ta'siri va arqoq nazoratshisi ta'sirining umumiy yig'indisidan hosil bo'ladi.

Mitti mokining ortidan harakatlanayotgan ma'lum uzunlikdagi arqoq ipi ushbu zonada maksimal darajadagi uzunlikka ega bo'lishini inobatga oladigan bo'lsak, bobinadan chuvalib chiqayotgan ipning holati ushbu zona ushuni muhim ahamiyat kasb etadi.

Siklining beshinchi zonasi (2-rasm V) arqoq ipini homuzaga tashlashda mitti mokini qabul qilish qutisining birinchi tormoz ostiga uchib kirishidan boshlanadi (dastgoh bosh valining 304^0 - 3^0 ga burilishida). Ushbu lahza mitti moki va u bilan harakatlanayotgan ipning boshlang'ich qismining tezligini shiddat bilan kamayishi bilan xarakterlanadi. Biroq ipning egiluvshanligi va chap qutidan o'ng qutiga qarab o'tish jarayonidagi harakatda bo'lishi sababli, inersiya kuchi ostida homuzada biroz ortiqcha ipning hosil bo'lishiga olib keladi.

Ushbu lahzadagi ip tarangligi, ossillogrammadagi nol shizig'iga to'g'ri keladi. Arqoq ipi ma'lum bir sharoitda zahiraga ega bo'lganida, homuzaga shunday uzunlikdagi ip hosil bo'ladi, uni kompensator yig'ib olmay qoladi. Buning natijasida homuzada xalqa hosil bo'ladi, bu esa to'qima shakllanishida texnologik jarayonning buzilishi hisoblanadi. Arqoq iplarini homuzaga tashlashda, homuzadagi ortiqsha iplar kompensator tomonidan mitti moki qaytib kelgunga qadar yig'ib olingan bo'lishi kerak.

Ushbu zonadagi ipning tarangligi dastlabki zonalardagi taranglikka, mitti mokining uchib kelish tezligiga, ipning chiziqli zichligigiga, arqoqni tormozlashning to'g'ri ishlashi va hokazolarga bevosita bog'liq bo'ladi.


Mokining qaytib kela boshlashi bilan taranglikli oltinchi zonasi boshlanadi (2-rasm VI). U zonaning butun intervalida taranglikning doimiy bo'lishi, faqat ma'lum bir lahzalarda unchalik sezilarli bo'lmagan tebranishlarning hosil bo'lishi bilan ajralib turadi.

Arqoq ipi homuzada bo'lgan va milk hosil qiluvchining tutgichlari tomonidan tutib turilganda, bobinadan kelayotgan boshqa qismdan kesib qo'yiladi (dastgoh bosh valining 3^0 - 43^0 ga burilishida). Ushbu vaqt davomida arqoq ipning uchi qaytargish yordamida, uni mitti mokiga uzatish uchun, dastlabki holatiga qaytariladi.

Tajribaviy izlanishlar. To'quv dastgohlarining texnologik jihatdan mukammal bo'lmaganligi, xizmat ko'rsatuvchi xodimlar malakasining pastligi va xomashyoning past sifatligi va boshqa sabablarga ko'ra iplarning uzilish sabablari [3-6] ishda tadqiq etiladi. Arqoq ipining uzilishi va arqoq ipini homuzaga tashlash texnologik jarayoni o'zgaruvchanligining asosiy sababi lahzali o'zgarishlar va iplarda deformatsiyalarning hosil bo'lishi hisoblanadi. Shuning ushuni qo'shimcha tarzda yordamshi mexanizmlar bilan birgalikda iplar harakatlarining

o'zgarish parametrlarini hisoblash va to'quvchilikda arqoq iplari uziluvchanligini tadqiq etishning tahliliy usullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tadqiqotning asosiy usuli tariqasida qayishqoq muhitda to'qlinlarning tarqalishi nazariyasi qo'llaniladi. Iplarga qo'yilgan bo'ylama kush (zarb) ta'sirida ip sirti bo'ylab katta tezlik bilan tarqaladigan to'qlin K paydo bo'ladi (3 - rasm).



3-rasm. NA hududda bo'ylama to'qlinning harakatlanish sxemasi.

Natijada ip zarb ta'sirida yuklanmagan 0 va yuklangan 1 sohalarga ajralib qoladi. Dinamik zarb ip bo'ylab

$$a = \sqrt{\frac{E}{\rho_0}}$$

tezlik bilan tarqaladi, bunda E – ipning elastik moduli;

ρ_0 – deformatsiyalanmagan ipning zichligi.

Ma'lumki, bo'ylama to'qlinning tarqalish tezligi iplarning fizika – mexanik xossalari bog'liq. To'qimashilik iplari murakkab fizik – mexanik va texnologik xususiyatlarga ega. Ularning kesimlari turli tolalardan tashkil topgan va yagona tutash muhit emas. Bulardan tashqari iplar yuklanganda ularning kesimlarida tolalarni siljishi, ularni uzunligi bo'ylab buramlarni qayta taqsimlanishi, ayrim tolalarni uzilib ketishi kabi holatlar kuzatiladi. Shuning uchun turli iplarda dinamik to'qlinlarni tarqalish tezligi turlicha va doimiy qiymatga ega bo'lmaydi. Ko'pchilik hisoblashlarda $a = 800$ m/sek o'rtacha qiymat qabul qilinadi [6-10]. Mitti moki esa o'rtacha $v = 25$ m/sek tezlik bilan harakatlanadi. Demak mitti moki, masalan, eni 90 sm li to'qimada 25 m/sek o'rtacha tezlik bilan harakatlanishi davomida to'qlin u bilan eng kamida qirq marta ta'sirlashadi - mitti moki va A yo'naltirgich (1.3 – rasm) orasidagi masofani kamida 40 marta bosib o'tadi. Mitti moki to'qimaning eniga bir marta etib borguniga qadar bo'ylama to'qlin ipning mokidan tormozlovchi qurilmagacha bo'lgan qismini bir necha marta takroran bosib o'tishga ulguradi. To'qlin A va S yo'naltirgichlar, V kompensator va tormozlovchi qurilmalar bilan ta'sirlashganda ikkita – bo'ylama harakatni davom ettiruvchi (birlamchi) va orqaga qaytgan to'qlinlarga ajraladi. Birlamchi to'qlinning intensivligi qaytgan to'qlinlikidan ancha katta bo'ladi. Ayrim hisoblashlarga ko'ra [2,11-13] qaytgan to'qlindagi ip materiali bo'ylama deformatsiyasining qiymati birlamchi to'qlindagisining 5-10 % ini tashkil etadi.

Bu erda olib borilayotgan tadqiqotlarning asosiy maqsadi birlamchi bo'ylama to'qlinni tormozlovchi bilan ta'sirlashishi natijalarini baholashdan iborat.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ip bo'ylab tarqalayotgan to'qlinlarni A va S yo'naltirgichlar, V kompensator va tormozlovchi qurilmalar bilan ta'sirlashganda ikkita – bo'ylama harakatni davom ettiruvchi (birlamchi) va orqaga qaytgan to'qlinlarga ajralishini inobatga olinmadi (rasmlarda qaytgan to'qlinlar ifodalanmagan).

Mitti mokining vazni etarli darajada katta ekanligi va harakat bir lahzada boshlanishini inobatga oladigan bo'lsak, faraz qilish mumkinki, vaqtning qisqa bir bo'lagida $t_0 \leq t \leq t_1$, ipning 1 qismi, doimiy parametrlar qismi bo'lib hisoblanadi. Bunda 1 qismdagi ip bo'lagining tezligi mitti mokining tezligi bilan teng bo'ladi (1 qism doimiy parametrlar qismi bo'lganligi ushun). Iplarning tarangligi quyidagi tenglamalar asosida aniqlanadi:

$$x'_1 = -a\varepsilon_1 \quad (1)$$

$$T_1 = \varepsilon_1 E = \rho_0 a^2 \varepsilon_1 \quad (2)$$

Bu erda a - ipni 1 soxasidasi tezlik; ε_1 – nisbiy deformatsiya;

T_1 – taranglik kushi.

1-tenglama o'rganilayotgan ipdan K bo'ylama to'qlinning o'tish vaqtidagi harakat miqdorini saqlash qonunidan olinadi (1.3-rasm), 2-tenglama esa shizikli elastik iplar uchun Guk


qonunini aks ettiradi. Shunday qilib, 1 qismdagi arqoq ipning tarangligi va nisbiy deformatsiyasi quyidagi tenglamalar yordamida aniqlanadi:

$$\varepsilon_1 = \frac{x'_1}{a} = \frac{U_1}{a} \quad (3)$$

$$T_1 = \rho_0 \cdot a^2 \cdot \varepsilon_1 = \rho_0 \cdot a \cdot U_1 \quad (4)$$

Hisob-kitoblar to'quvchilik iplariga nisbatan yaqin va real bo'lgan iplar uchun o'tkazilgan $a = 800$ m/sek, $\rho_0 = 1,25 \cdot 10^{-3}$.

Biroz vaqtdan keyin $\frac{NA}{a} = t_1 > t_0$ zarb mexanizmining ta'siri, vaqtning boshlang'ich lahzasida gorizontal qismning uzunligi – NA bo'lgan, A1 nuqtadagi ip o'tkazgishga o'tadi, $t \geq t_1$ bo'lganda K bo'yлама to'lqin ipning 2 qismiga o'tadi (1 va 4-rasmlar).



4-rasm. AB qismlarda bo'yлама to'lqinning harakat sxemasi.

2 qismdagi ip bo'lagining harakat tezligi K bo'ylaşma to'lqinlar frontida harakat miqdorini saqlash qonunidan aniqlanadi. OX va OY o'qlaridagi, proeksiyada talqin etilgan harakat miqdori qonuni (5-rasm) quyidagi tenglamalarda keltirilgan:

$$X'_2 - X'_0 = a(\varepsilon_2 - \varepsilon_0) \cos \theta_2 \cos \varphi_2$$

$$Y'_2 - Y'_0 = a(\varepsilon_2 - \varepsilon_0) \sin \theta_2 \sin \varphi_2$$

Ipining dastavval deformatsiyalanmagan va mutlaq sokinlik holatida, deb faraz qilinayotganligi bois, $\varepsilon_0 = X'_0 = 0$ ligi aniq va shuning uchun keyingi tenglamani quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$X'_2 = a\varepsilon_2 \cos \theta_2 \cos \varphi_2 \quad (5)$$

$$Y'_2 = a\varepsilon_2 \sin \theta_2 \sin \varphi_2 \quad (6)$$

T_2 taranglik va ε_2 nisbiy deformatsiyani aniqlash uchun quyidagi tenglamaga ega bo'lamiz:

$$T_2 = \rho_0 a^2 \varepsilon_2 \quad (7)$$

$$T_1 = T_2 e^{f_2 \theta_2} \quad (8)$$

Bu erda f_2 – A nuqtadagi ishqalanish koeffitsienti.

(5-8) tenglamalar ma'lum bo'lgan $X'_2, Y'_2, T_2, \varepsilon$ nisbiyliklarning tizimini hosil qiladi. (7) va (8) tenglamalardagi T_1 va T_2 larni olib tashlagan holda


$$\varepsilon_2 = \varepsilon_1 e^{-f_2 \theta_2} \quad (9)$$

ni topamiz. ε_1 deformatsiya masalaning echimidan ma'lum bo'lganligi bois, (9) tenglamada ε_2 deformatsiyani aniqlash uchun xizmat qiladi. X'_2, Y'_2 qismlarning tezligini (2.5), (2.6) tenglamalarga muvofiq aniqlaymiz. Ipining BS qismlari (1 va 5-rasmlar) ikkita qismga bo'linadi. 3 qism arqoq tashlash mexanizmining (1 va 5-rasmlar) zarb kuchi ta'sirida hosil bo'lgan, 1 qism esa absolyut sokinlik qism hisoblanadi. 3 qismda va K frontda quyidagi tenglamaga egamiz:

$$X'_3 = a\varepsilon_3 \cos \theta_3 \cos \varphi_3 \quad (10)$$

$$Y'_3 = a\varepsilon_3 \sin \theta_3 \sin \varphi_3 \quad (11)$$

$$T_3 = \rho_0 a^2 \varepsilon_3 \quad (12)$$



5-rasm. BC hududlarda bo‘ylama to‘lqinning harakatlanish sxemasi

Kompensator yuzasida Eyer tenglamasi quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$T_2 = T_3 e^{f_3(\theta_2 + \theta_3)} \quad (13)$$

Bunda f_3 – kompensatorning yon tomonidagi ishqalanishning dinamik koeffitsienti.

(10-13) tenglamalar noma’lum bo‘lgan $X'_2, Y'_2, T_2, \varepsilon$ nisbiyliklar tizimini hosil qiladi. (7)

va (8) tenglamalardagi T_1 va T_2 larni olib tashlagan holda

$$\varepsilon_2 = \varepsilon_1 e^{-f_2 \theta_2} \quad (14)$$

ni topamiz.

CE qismlarda (1 va 6-rasmlar) ip gorizonttal shaklga ega bo‘ladi va shuning uchun ushbu qismdagi harakat parametrini aniqlash uchun, quyidagi tenglamaga ega bo‘lamiz:

$$X'_4 = a\varepsilon_4 \quad (15)$$


$$T_4 = \rho_0 a^2 \varepsilon_4 \quad (16)$$

$$T_3 = T_4 e^{f_4 \theta_3} \quad (17)$$

T_3 va T_4 larni tenglamadan olib tashlagan holda, tenglamadan (16-17)

$$\varepsilon_4 = \varepsilon_3 e^{-f_4 \theta_3} \quad (18)$$

ni topamiz.



6-rasm. CE hududdagi bo‘ylama to‘lqinlarning harakatlanish sxemasi.

F hudud θ_5 burchakni hosil qiladi (amaliyotdan ma’lum). 5 qismdagi ipning parametrlari (1 va 7-rasmlar) quyidagi tenglamalardan topiladi:

$$X'_5 = a\varepsilon_5 \cos \theta_5 \quad (19)$$

$$Y'_5 = a\varepsilon_5 \sin \theta_5 \quad (20)$$


$$T_5 = \rho_0 a^2 \varepsilon_5 \quad (21)$$

$$T_4 = T_5 e^{f_5 \theta_5} \quad (22)$$

Ushbu tenglamalardan


$$\varepsilon_5 = \varepsilon_4 e^{-f_5 \theta_5} \quad (23)$$

ni topamiz.



7-rasm. EF hududlardagi bo'ylama to'liqning harakatlanish sxemasi.

FN hudud - o'ramning yuzasidan ipning shiqib ketish nuqtasi, ip dastavval biroz qiyshiq chiziq shaklida bo'ladi va taranglikdan xoli bo'ladi.



8-rasm. FN hududda bo'ylama to'liqning harakatlanish sxemasi.

FN hududda dastavval ip to'g'ri chiziqli ko'rinishda bo'lsin (1 va 8-rasmlar). Unda ipning 6 hududdagi harakatlar parametrini aniqlash uchun quyidagi tenglamalarga ega bo'lamiz:

$$X'_6 = a\varepsilon_6 \cos\theta_6 \quad (24)$$

$$Y'_6 = a\varepsilon_6 \sin\theta_6 \quad (25)$$

$$T_6 = \rho_0 a^2 \varepsilon_6 \quad (26)$$

$$T_5 = T_6 e^{f_6 \theta_6} \quad (27)$$

$$\varepsilon_6 = \varepsilon_5 e^{-f_6 \theta_6} \quad (28)$$


Ipning to'g'ri chiziqlilik bo'yicha qabul qilingan faraz faqat K bo'ylama to'liqinni, o'ramning yuzasidan chuvalib chiqish nuqtasigacha etib kelish lahzasigacha bo'lgan bo'lsa, o'rinli hisoblanadi. Chuvalib chiqish nuqtasida ip urilib o'tishi bo'yicha ikki tuzilishdagi tezlikka, ya'ni chuvalib ketish nuqtasida ipning aynan o'zidagi va aylanma tezlikka ega bo'ladi. Shuning uchun FN hududida ipning harakat shakli bo'ylama to'liqindan keyin to'g'ri chiziqli bo'lmaydi.

Tenglamalardan (3, 4), (7, 8, 9), (13, 14), (17, 18), (22, 23), (27, 28) kelib chiqishicha, ipning tarangligi va deformatsiyasi 1 hududda maksimal ahamiyatga ega bo'ladi, bundan kelib chiqib, yuqorida qabul qilingan vazifaga ko'ra, ipning uzilishi faqat 1 hududda zarba berilgan onda ro'y beradi. Olingan tenglamalarni (3, 4), (7, 8, 9), (13, 14), (17, 18), (22, 23), (27, 28) harakatlar parametrini to'liqindan o'tishdagi dastlabki bosim sifatida qabul qilish kerak.

Yuqorida qabul qilingan qarorlar va raqamli hisob-kitoblar natijalarining tahlilidan kelib chiqib, nisbatan yuqori taranglik 1 hududga to'g'ri keladi va shuning uchun ipning uzilishi unga zarb berilishi zahoti va faqat 1-hududga, agar mitti mokining ishga tushirilish vaqtida taranglik ruxsat etilgan qiymatidan oshib ketsa, sodir bo'ladi. Biroq amaliyotda ipning uzilishi 1-6 hududlarning har birida sodir bo'lishi mumkin (4-9-rasmlar).

Bularning asosiy sabablari ipning alohida qismlariga qaytarish jarayonlarining va bo'ylama to'liqlarning ta'siri [3,14-16] natijasida yuzaga keladigan: taranglikning T dan 2T gasha qisqa lahzalarda o'sib borishi, tormozlash mexanizmining zarbli ta'siri, shuningdek chegaralanuvchi shartlar va ipning fizika-mexanikaviy xususiyatidan bo'lishi mumkin.

t vaqtning bir necha lahzalarida, K to‘lqin 4-hududning chap qismidan harakatlanayotganda (1 va 9-rasmlar), tormozlash mexanizmi ishga tushsin. Bunday topshiriqning qo‘yilishi mutlaqo asosli, shunki K bo‘ylama to‘lqin ipning yonidan 800 m/s tezlikda harakatlanadi [16]. Tormozlash mexanizmining zarbasi natijasida ipda ikkita P va Q bo‘ylama to‘lqinlar hosil bo‘ladi (9-rasm). Natijada 7 va 8 hududlar paydo bo‘ladi.



9-rasm. Ipga zarb berilganda bo‘ylama to‘lqinning harakatlanish sxemasi.

7 hududni ko‘rib shiqamiz. Q bo‘ylama to‘lqin sokinlik to‘lqini hisoblanadi. Haqiqatdan ham, L nuqtada tormozlash, ip qismlarining to‘xtashi ro‘y beradi. Q yo‘nalishda

$$X'_7 - X'_4 = a(\varepsilon_7 - \varepsilon_4) \quad (29)$$

ga ega bo‘lamiz.

Biroq $X'_7=0$, $X'_4 = a\varepsilon_4$ bo‘lganligi bois, (31) tenglamadan

$$0 - a\varepsilon_4 = a\varepsilon_7 - a\varepsilon_4$$

ni topamiz.

Ko‘rib turganimizdek, 7 hududda deformatsiya $\varepsilon_7 = 0$, bundan kelib shiqadiki,

$$T_7 = \rho_0 a^2 \varepsilon_7 = 0 \quad (30)$$

ya‘ni, 7 hudud sokinlik hududi bo‘lib shiqadi.

8 hududni ko‘rib shiqamiz. 8 hududda deformatsiya 4 hududdagi deformatsiyaning ikki karrasi ekanligini isbotlaymiz. R yo‘nalishda quyidagi tenglamaga ega bo‘lamiz:

$$X'_8 - X'_4 = a(\varepsilon_4 - \varepsilon_8) \quad (31)$$

Ko‘rinib turibdiki, $X'_8 = 0$, shunki 8 hududning barcha qismi doimiy parametrlar hududi bo‘lib hisoblanadi va M nuqtada ham $X'_8 = 0$. $X'_8 = 0$ ni (2.32) tenglamaga qo‘yamiz

$$0 - a\varepsilon_4 = a\varepsilon_4 - a\varepsilon_8$$

bundan

$$\varepsilon_8 = 2\varepsilon_4 \quad (32)$$

ega bo‘lamiz.

Shunday qilib, tormozlash mexanizmining zarb berish vaqtida o‘ng tomonda deformatsiya ε_4 ikki barobarga ko‘payadi va $\varepsilon_4 > [\varepsilon]$ yoki $T_8 > [T]$ bo‘lgan hollarda ipning uzilishiga sabab bo‘ladi.

Natijalar tahlili. 1 va 2 jadvallarda arqoq ipini tashlash intervali 20 dan 26 m/s.gasha va ipning yo‘naltiruvchidagi ishqalanish koeffitsienti $f=0,1$ va $f=0,2$ bo‘lgandagi taranglik va deformatsiyalanish hisob-kitoblarining natijalari keltirilgan.

1-jadval

Zonalar bo‘yicha arqoq ipi deformatsiyasining hisobiy natijalari

№	Arqoq tashlash tezligi, m/s.	Arqoqning zonalar bo‘yicha deformatsiyalanishi % hisobida					
		ε_1	ε_2	ε_3	ε_4	ε_5	ε_6
1	20	2,5	2,47	2,41	2,38	2,35	2,32
			2,44	2,32	2,27	2,21	2,16
2	21	2,6	2,57	2,51	2,48	2,45	2,42
			2,54	2,42	2,36	2,30	2,25
3	22	2,8	2,76	2,70	2,67	2,64	2,61

№	Arqoq tashlash tezligi, m/s.	Arqoqning zonalar bo'yicha deformatsiyalanishi % hisobida					
		ε_1	ε_2	ε_3	ε_4	ε_5	ε_6
			2,73	2,60	2,54	2,48	2,41
4	23	2,9	2,86	2,80	2,76	2,73	2,70
			2,83	2,70	2,63	2,57	2,51
5	24	3,0	2,96	2,89	2,86	2,82	2,79
			2,93	2,79	2,72	2,65	2,59
6	25	3,1	3,06	2,99	2,95	2,92	2,88
			3,03	2,88	2,81	2,74	2,68
7	26	3,3	3,26	3,18	3,14	3,11	3,07
			3,22	3,07	2,99	2,92	2,85

suratda – arqoq ipi yo'naltiruvchisining ishqalanish koeffitsienti $f = 0,1$ bo'lganda;
maxrajda – arqoq ipi yo'naltiruvchisining ishqalanish koeffitsienti $f = 0,2$ bo'lganda.

2-jadval

Zonalar bo'yicha arqoq ipi tarangligining hisobiy natijalari

№	Arqoq tashlash tezligi, m/s.	Arqoq ipining zonalar bo'yicha tarangligi sN da.					
		T ₁	T ₂	T ₃	T ₄	T ₅	T ₆
1	20	20,0	19,8	19,3	19,1	18,8	18,6
			19,5	18,6	18,2	17,7	17,3
2	21	20,8	20,6	20,1	19,8	19,6	19,4
			20,3	19,4	18,9	18,4	18,0
3	22	22,4	22,1	21,6	21,4	21,1	20,9
			21,8	20,8	20,3	19,8	19,3
4	23	23,2	22,9	22,4	22,1	21,8	21,6
			22,6	21,6	21,0	20,6	20,1
5	24	24,0	23,7	23,1	22,9	22,7	22,3
			23,4	22,3	21,8	21,2	20,7
6	25	24,8	24,5	23,9	23,6	23,4	23,0
			24,2	23,0	22,5	21,9	21,4
7	26	26,4	26,1	25,4	25,1	24,9	24,6
			25,8	24,6	23,9	23,4	22,8

suratda – arqoq ipi yo'naltiruvchisining ishqalanish koeffitsienti $f = 0,1$ bo'lganda;
maxrajda – arqoq ipi yo'naltiruvchisining ishqalanish koeffitsienti $f = 0,2$ bo'lganda.

1 va 2 - jadvallar tahlili shuni ko'rsatadiki, taranglik va deformatsiyalanish qiymati, arqoq ipini tashlash tezligi oshganda va ipning yo'naltiruvchi ishchi organlari mexanizmlaridagi ishqalanishi kamayib borganda, bobina - mitti moki qismida o'sib boradi.

Xulosa. 1. Tadqiqotlar natijasida to'lqinlarning elastik muhitda tarqalishi nazariyasiga asoslanib aniqlandiki, arqoq ipini tashlash tezligining oshishi bilan uning deformatsiyasi va tarangligi o'rta hisobda 30 % ga oshadi va arqoq ipini tashlash mexanizmlari yuzasidagi ishqalanish koeffitsienti oshganida arqoq ipining tarangligi va deformatsiyasi 19 % ga kamayadi.

2. Arqoq iplarning uziluvchanligini oshishining asosiy sabablaridan biri tormozlash mexanizmi dastakchalarining arqoq ipiga zarbli ta'sir ko'rsatishidir. Arqoq iplarning hududlar

bo'yisha mitti moki – bobina hududida tarangligi va deformatsiyasi ipning yo'naltiruvchilardagi ishqalanish koeffitsienti 0,1 bo'lganda 45 % ga, 0,2 bo'lganda esa 70 % ga kamayadi. Ip yo'naltiruvchilaridagi ishqalanish koeffitsientining oshib borishi bilan bir qatorda, arqoq ipning tarangligi va deformatsiyasi 1,6 barobarga kamayayishi nazariy tadqiqotlar asosida aniqlandi.

Referense

1. S.S.Raximxodjaev, Rasulov X.Y., Issledovaniya natyajeniya utka na stankax STB // Tekstil, odejda, obuv, sredstva individualnoy zashiti v XXI veke. IV Mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konferensiy. g. Shaxti, 18-19 aprelya 2013g. Shaxti FGBOU VPO «YURGUES».
2. Petuxov V.A. Modernizatsiya besshelnoznix tkatskix stankov: - Kiev.: Texnika, 1987. – 119 s
3. Ergashov M. Svoystva i vzaimodeystvie voln v niti. Tashkent.: Fan, 2001. - 159 s.
4. Ergashov M. Volnovie zadachi soudareniya niti s tverdimi telami. Tashkent.: Fan, 2001. – 142
4. S.S.Raximxodjaev, Rasulov X.Y. Analiticheskie issledovaniya natyajeniya utocheni na projektornix stankax // Fan, ta'lim va ishlab shiqarish integratsiyalashuvi sharoitida innovatsion texnologiyalarning dolzarb muammolari. To'qimashi-2016. 2016 yil 14-15 dekabr. - 108-110 b.
5. S.S.Raximxodjaev, Issledovaniya novovy sistemi natyajeniya utoshini na stankax s mikroprokladshikami // I Mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konferensiy. Razvitie intellektualno-tvorcheskogo potentsiala molodeji: iz proshlogo – v sovremennost. g. Donetsk 8 fevralya 2018 g. – S. 76-77.
6. "Projectile Loom: Features, Weaving Mechanism, Advantages and Disadvantages" November 5, 2024, on the Textile Engineering website.
7. Weft Thread Tension during Filling Insertion Proses on Projectile Weaving Machines Scientific, vol. 20, no. 2, pp. 83-91, 2016. Instituto Politeness National.
8. Kim S. J., Jung G. J. Effect of the Projectile and the Air-jet Weaving Machine Characteristics on the Physical Properties of Worsted Fabrics for Garment (I)-Tension Characteristics & Loom Mechanism //Fashion & Textile Research Journal. – 2005. – T. 7. – №. 1. – S. 101-105.
9. Tapie E., Guo Y. B., Shim V. P. W. Yarn mobility in woven fabrics—a computational and experimental study //International Journal of Solids and Structures. – 2016. – T. 80. – S. 212-226.
10. Rasulov X.Y., Raximxodjeyev S.S. NATYAJENIYE NITEY OSNOVI PO MERE SRABATIVANIYA TKASKOGO NAVOYA // Universum: texnicheskiye nauki: elektron. nauchn. jurn. 2024. 7(124)
11. Khamraeva S., Kadirova D., Rakhimkhodzhaev S. Development of technology for producing functional fabrics with variable structure //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 538. – S. 04020.
12. Khamrayeva S., Kadirova D., Rakhimkhodjeyev S. Study on the mechanics of textile thread in woven //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2021. – T. 304. – S. 03035.
13. Xamrayeva S., Kadirova D., Raximxodjeyev S. Study of the parameters of functional bed linen //American Institute of Physics Conference Series. – 2024. – T. 3045. – №. 1. – S. 030021.
14. Xamrayeva S., Daminov A., Kadirova D. Study of the influence of polyurethane thread on technological parameters and physical-mechanical properties of elastic fabrics //American Institute of Physics Conference Series. – 2024. – T. 3045. – №. 1. – S. 030020.
15. Kadirova D., Daminov A., Rakhimkhodjaev S. Technology of production of technical belts and the study of their properties //International Journal of Recent Technology and Engineering. – 2019. – T. 8. – №. 3. – S. 549-552.
16. Ortikov, O. A., Rasulov, X. Y., Kadirova, D. N., & Raximxodjeyev, S. S. (2017). Optimizatsiya natyajeniya nitey na tkaskix stankax s mikroprokladchikami.

**PNEVMOMEXANIK YIGIRISH MASHINASINING TAKOMILLASHGAN
TRANSPORTIROVKALASH KANALI PARAMETRLARINI YIGIRILGAN IP SIFAT
KO‘RSATKICHLARIGA TA’SIRI TADQIQOTI**

N.J.Kamoliddinzoda, S.L.Matismailov
Tashkent Institute of Textile and Light Industry

Anatatsiya: Ipnining xossa ko‘rsatkichlariga ta’sir etuvchi omillar sifatida kirayotgan maxsulotning chiziqiy zichligi, tolalarni diskretlash jarayoni, tolalarni kameraga transportirovka qilish, kameraning aylanish tezligi, ipga berilayotgan buram, tortuvchi vallar tezligi va o‘rash zichliklari ta’sir etadi. Tolalarni yigirish kamerasiga uzatish jarayonida kanalning ichki yuzasi bilan tolalarning o‘zaro ta’sirlashishi natijasida chigalliklar hosil bo‘ladi. Bu esa ipning noteksligini, tukdorligiga, ipdagi uzilishlar sononi oshishiga, uzilishdagi pishiqligining esa kamayishiga olib keladi. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida takomillashgan transportirovka kanali taklif etildi. Takomillashgan transportirovka kanalining tuzilishi olti qirrali va silliq qilib tayyorlangan. Kanalning kirish qismidan to chiqish qismigacha qirralar burchak ostida tayyorlangan. Yangi takomillashgan tolalarni transportirovkalash kanalini qo‘llash natijasida texnologik jarayonning o‘tishi, ip sifati va ishlab chiqarish samaradorligiga oshirishga erishildi. Takomillashirilgan transportirovkalash kanalining ratsional parametrlarini aniqlash uchun to‘la omilli tajriba o‘tkazildi. Tajriba natijalari bo‘yicha regressiya tenglamalar va grafiklari olindi, transportirovka kanalining ratsional parametrlari qo‘llab olingan ipning solishtirma uzish kuchi 11,718 sN/teks, ipning noteksligi esa 11,9 % ga yaxshilashga erishildi.

Kalit so‘zlar: tola, pnevmomexanik; transportirovkalash kanali; tugunak; tukdorlik; havo uyurtasi, chiziqiy zichlik; uzish kuchi; yigirilgan ip.

Annotatsiya: Факторы, влияющие на свойства пряжи, включают линейную плотность входящего продукта, процесс дискретизации волокон, транспортировку волокон в камеру, скорость вращения камеры, крутку пряжи, скорость вращения оттяжных валов и плотность намотки. В процессе передачи волокон в прядильную камеру в результате взаимодействия волокон с внутренней поверхностью канала образуются зажугченности. Это приводит к увеличению, ворсистости, обрывности пряжи и снижению прочности пряжи. Для устранения этих недостатков был предложен усовершенствованный транспортирующий канал. Структура усовершенствованного транспортирующего канала шестиугольная и гладкая. Кромки выполнены под углом от входа к выходу канала. Использование нового усовершенствованного канала транспортировки волокон привело к повышению производительности процесса, качества пряжи и эффективности производства. Для определения рациональных параметров усовершенствованного транспортного канала был проведен полнофакторный эксперимент. На основании результатов эксперимента получены уравнения и графики регрессии, а удельная разрывная прочность пряжи, полученная при рациональных параметрах канала транспортировки, составила 11,718 сН/текс, а неровнота пряжи улучшилась на 11,9%.

Ключевые слова: волокно, пневмомеханическая пряжа; транспортный канал; ворсистость; воздушная масса, линейная плотность; разрывная нагрузка; пряжа.

Abstract: Factors affecting yarn properties include the linear density of the incoming product, the fiber discretization process, the fiber transport into the chamber, the chamber rotation speed, the yarn twist, the rotation speed of the pull rollers, and the winding density. During the fiber transport into the spinning chamber, the interaction of the fibers with the inner surface of the channel causes balls to form. This leads to yarn fragility, hairiness, an increase in the number of yarn breaks, and a decrease in tensile strength. To eliminate these shortcomings, an improved transport channel was proposed. The structure of the improved transport channel is hexagonal and

smooth. The edges are made at an angle from the inlet to the outlet of the channel. The use of the new improved fiber transport channel resulted in an increase in process productivity, yarn quality, and production efficiency. A full factorial experiment was conducted to determine the rational parameters of the improved transport channel. Based on the experimental results, regression equations and graphs were obtained, and the specific tensile strength of yarn obtained under rational parameters of the transportation channel was 11.718 cN/tex, and the yarn fineness was improved by 11.9%.

Keywords: fiber, pneumomechanical, transfer channel, neps, hairiness, air mass, breaking strength, yarn.

Kirish. Respublikamiz to‘qimachilik sanoatini rivojlanishida mahalliy xomashyolardan foydalangan holda energiya va resurs tejamkor yangi texnologiyalar yaratish yoki mavjudlarini takomillashtirish, yuqori ekspluatatsion xususiyatlarga ega to‘qimachilik-yordamchi moddalarni yaratish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Sohaning eksport salohiyatini kengaytirish, mahalliy to‘qimachilik mahsulotlarining xorijiy bozorlarga kengroq kirib borishi uchun katta sharoitlar yaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-yanvarda qabul qilingan “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni bu yo‘nalish ravnaqida yangi o‘shirish bosqichini boshlab berdi .

Farmonga ko‘ra, 2025–2027 yillarda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirishning asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari etib quyidagilar belgilandi:

- mahsulotlar eksportini 2025 yilda 4 milliard dollarga, 2026-yilda 5 milliard dollarga va 2027 yilda 7 milliard dollarga yetkazish;

- AQSH va Yevropa davlatlari bozorlariga tayyor mahsulotlar eksportini 500 million dollarga yetkazish;

- ilg‘ or texnologiyalar va zamonaviy dizaynerlik ishlanmalarini keng joriy qilish hamda xalqaro brendlarni jalb qilish orqali jami eksportda tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari ulushini 70 foizga yetkazish;

- ip-kalavani chuqur qayta ishlashni yanada rivojlantirish maqsadida 5 milliard dollar miqdorida xorijiy investitsiyalar va kreditlar jalb qilish [1].

Nazariy tadqiqotlar. So‘ngi yillarda Pnevмомexanik yigirish mashinasida yigirilayotgan ipning fizik mexanik xossa ko‘rsatkichlarini yaxshilash borasida ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borildi [2,3]. Ipng xossa ko‘rsatkichlariga ta’sir etuvchi omillar sifatida kirayotgan mahsulotning chiziqiy zichligi, ta’minlash va diskretlash jarayoni, tolalarni kameraga transportirovkalash, kameraning aylanish tezligi, ipga berilayotgan buram, tortuvchi vallar tezligi va o‘rash zichligi kabi omillar ta’sir etadi.

Pnevмомexanik yigirish mashinalarida tolalar diskret oqiminining harakatlanishini amalga oshirish uchun ta’minlovchi silindr va diskretlovchi barabandan boshlab to yigirish kamerasigacha havo ishlatiladi [4,5]. Buning uchun har bir mashinaning yigirish kameralaridan havo maxsus ventilyatorlar yordamida so‘rib olinadi. Natijada kameraning ichida havo bosimi kamayib, pnevmokanalda tolalar diskret oqimini yo‘naltiruvchi havo harakati vujudga keladi. Havoning so‘rilish darajasi yoki kamerada havoning siyraklanish darajasi muntazam tekshirilib turiladi. Havoning siyraklanish darajasi pasayib ketsa, tolalarning diskretlovchi barabandan ajralishi va ularning harakati qiyinlashib, qo‘shimcha tugunaklar paydo bo‘lishi mumkin. Tugunaklar doim ipning shakllanishiga to‘sqinlik qilib, uning uzilishini ko‘paytiradi [6].

Pnevмомexanik yigirish mashinasida ip yigirish jarayonida tolalarni yigirish kamerasiga uzatish vaqtida transportirovka kanalining kirish qismida zararli havo uyurmasi hosil bo‘lishi aniqlangan [7,8]. Uyurma tolalar harakatini cheklab qo‘yishi natijasida chigalliklar hosil bo‘ladi. Bu esa yigirilayotgan ipning noteksligiga katta ta’sir ko‘rsatadi .

Chet ellik olimlar kanalning kirish qismida, qo‘shimcha havo yetkazib berish uchun maxsus kanal hamda transportirovkalash kanalining tirqishi qabariq yuzalili sirt shakli takomillashtirilib, ularni birgalikda qo‘llagan. Takomillashtirilgan kanaldag havo oqimini tahlili


shuni ko'rsatdiki, har ikkala shakl havo oqimini to'g'ri yo'naltirish va uyurmalarini minimallashtirishda samarali ekanligini isbotlangan [9,10].

Bundan tashqari tolalarni transportirovkalash vaqtida kanalning ichki yuzasi va tolalar o'zaro ta'sirlashish natijasida ham chigalliklar hosil bo'lishi hamda yigirish kamerasiga bir hil maromda tolalar ta'minlanmasligi aniqlangan [11].

Tajribaviy izlanishlar. Tolalarni transportirovka qilish kanallari konstruksiyasiga yuqori talablar qo'yiladi. Yo'naltiruvchi kanallar ichidagi oqim shunday bo'lishi kerakki, tolalarni transportirovkalash vaqtida egilgan, bukilgan chigallangan tolalar to'g'rilanishi kerak. Bundan tashqari, kanallarning ichki yuzasi doimo silliq bo'lishi kerak, shunda pnevmotransportirovka qilish jarayonida tolalar devorlarga yopishib qolmaydi. Imkoni boricha tola yo'naltiruvchi kanallar kirish qismida zararli havo uyurmalarini hosil bo'lishini oldini olish kerak [12,13].

Ma'lum bo'lgan tola uzatuvchi kanallarning kamchiligi shundaki, kanalning egri chiziqli yuzasiga tolalarning yuqori darajada yopishishi yuzaga keladi, bu esa o'zaro ta'sir maydonining kattalashishi va shu orqali ular orasidagi ishqalanishni oshib ketishiga olib keladi. Bundan tashqari, ushbu kanallarda tolalarni transportirovkalash jarayonida ularning o'zaro chigalashib qolish holatlari ham uchraydi [14].

Yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida takomillashgan transportirovka kanali taklif etildi 1-rasm.



1-rasm. Takomillashgan transportirovka kanalining umumiy ko'rinishi
1-ajratkich, 2-transportirovka kanali, 3-transportirovka kanalining qirralari.

Transportirovka kanalning konstruksiyasini takomillashtirish orqali, tolalar va kanal yuzasi o'rtasidagi ishqalanishni, hamda tolalarning o'zaro chigalashishini kamaytirishiga erishiladi. Tolalarni uzatish kanali ichki yuzasi kesilgan piramida shaklida olti burchakli qilib tayyorlangan. Shu bilan birga, tolalarni tashish yo'nalishi bo'ylab kanalning uzunligi bo'yicha tirqish torayib boradi. Kanal qirralari " α " burchak ostida buralgan qilib yasalgan. Qirralarni " α " burchak ostida tayyorlanishi, tolalarning yigirish kamerasigacha bo'lgan masofa ortadi va kanal yuzasi bilan tolalar o'zaro ta'sir maydoni kamayishi hisobiga chigallanish ham kamaydi.

Texnologik uskunar ishchi parametrlarini tadqiq etishda keyingi paytlarda To'la omilli matematik rejalashtirish usullaridan keng foydalanilmoqda [15]. Buning boisi shundaki, uskuna ishi samaradorligiga bir biriga bog'liq bo'lmagan omillarning bir vaqtda turli darajada ta'sir etishidir.

Ip yigirish texnologiyasiga kirgan bu parametrlarni, ya'ni omillar va optimizatsiya parametrlarini muqobillash uchun To'la omilli tadqiqotlar o'tkazildi.

Ip yigirish uchun BD-330 pnevmomexanik yigirish mashinasi texnologik parametrlarini optimallashtirishda tola xossalari ta'sir etuvchi omillar (kiruvchi parametrlar) quyidagicha tanlab olindi:

x_1 -kameraning tezligi, uch xilda-70000; 75000; 80000 min^{-1}

x_2 - kanal ichidagi havo tezligi 20; 25; 30 m/s
 x_3 -transportirovka kanalning qiyalik burchagi-15°C; 20°C; 25°C
 Optimallashtirish parametri sifatida (chiquvchi omil):
 \bar{Y}_1 - Solishtirma uzish kucha, sN/teks
 \bar{Y}_2 - Ipnining noteksligi, CVm (%)

2-jadval

Omillarining o'zgarish sathlari

Omillar		O'lchov birligi	O'zgarish sathlari			O'zgartirish oralig' i
Nomi	Kodlari		-1	0	1	
Kameraning tezligi	x_1	min^{-1}	70000	75000	80000	5000
Kanal ichidagi havo tezligi	x_2	m/s	20	25	30	5
Transportirovka kanalning qiyalik burchagi	x_3	mm	15	20	25	5

3-jadval

Tajriba matritsasi

T/r	Omillar sathlari			Solishtirma uzish kucha, sN/teks \bar{Y}_{u1}	Dispersiya $S^2\{y_u\}$	Ipnining noteksligi, CVm (%) \bar{Y}_{u2}	Dispersiya $S^2\{y_u\}$
	x_1	x_2	x_3				
1	+	+	0	10,607	0,356	15,273	0,136
2	+	-	0	10,470	0,077	15,470	0,077
3	-	+	0	10,270	0,077	14,603	0,324
4	-	-	0	12,347	0,496	12,347	0,496
5	+	0	+	9,593	0,154	15,460	0,447
6	+	0	-	10,297	0,070	13,297	0,070
7	-	0	+	10,650	0,069	12,983	0,715
8	-	0	-	9,877	0,058	13,543	0,518
9	0	+	+	9,403	0,163	14,737	0,203
10	0	+	-	10,440	0,055	12,273	0,141
11	0	-	+	9,353	0,202	12,353	0,202
12	0	-	-	10,617	0,323	11,950	0,577
13	0	0	0	11,970	0,039	12,637	0,386
14	0	0	0	11,640	0,413	12,640	0,413
15	0	0	0	12,313	0,022	11,313	0,022

Tajribalar o'tkazilib, Solishtirma uzish kuchi va ipning noteksligi bo'yicha olingan regressiya ko'rsatkichlari Koxren va student mezonlari bilan qiyoslandi. Qiymatlar jadvaliy qiymatdan kata chiqqanligi uchun turdoshliligi hamda axamiyatga mosligi aniqlandi. Axamiyatsiz ko'rsatkichlar tashlab yuborilib regressiya tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi.

1. Solishtirma uzish kuchi bo'yicha olingan regressiya tenglamasi.

$$\hat{y} = 11.974 - 0,268x_1 - 0,254x_2 - 0,279x_3 - 0,446x_1^2 - 0,597x_2^2 - 1,424x_3^2 + 0,562x_1x_2 - 0,369x_1x_3 \quad (1.1)$$

2. Ipnining noteksligi bo'yicha olingan regressiya tenglamasi.

$$\hat{y} = 12.197 + 0,753x_1 + 0,596x_2 + 0,559x_3 + 1,61x_1^2 + 0,617x_2^2 - 0,613x_1x_2 + 0,681x_1x_3 + 0,515x_2x_3 \quad (1.2)$$

Yuqoridagi tenglamalarni adekvatligini (moslik) baholash uchun F– Fisher mezonini yordamida baholandi, ya'ni:

$$F_t = \frac{S_{ad}^2\{y\}}{S_{tak}^2\{y\}} \quad (1.3)$$

1. Solishtirma uzish kuchi bo'yicha Fisher mezonini

$$F_1 = \frac{0.485}{0.072} = 6.77$$

2. Ipnining noteksligi bo'yicha Fisher mezonini

$$F_2 = \frac{0.576}{0.131} = 4.388$$

Fisher mezonining jadvaliy kattaligi

$$F_j\{P = 0,95; f_{ad} = 3 ; f_{tak} = 24 \} = 8.64$$


ga teng. Fisher mezonining hisobiy va jadvaliy qiymatlari qiyoslandi.

$$F_1 < F_j \quad 6.77 < 8.64$$

$$F_2 < F_j \quad 4.388 < 8.64$$

Demak, ip uzish kuchining matematik modeli adekvatdir, ya'ni u texnologik jarayonni to'g'ri ekanligini ifodalaydi.

Ipnining solishtirma uzish kuchi va noteksligi bo'yicha regression tenglamalarni tahlil qilish va tushunarli bo'lishi uchun "Mathcad" dasturidan foydalanib ularning izochizilari qurildi (1-rasm).



1-rasm. Ipnining solishtirma uzish kuchi va noteksligi izochizilari
a) Ipnining solishtirma uzish kuchi izochizig' i, b) Ipnining notekslilik izochizig' i

Xulosa. Yangi takomillashgan tolalarni transportirovkalash kanalini qo'llash natijasida texnologik jarayonning o'tishi, ip sifati va ishlab chiqarish samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. To'la omilli tajriba matematik rejalashtirish usulidan foydalanib, yangi konstruksiyali transportirovka kanalining ratsional shaylash parametrlari aniqlandi.

Ratsional parametrlar x_1 – kameraning tezligi 75000 min^{-1} , x_2 – kanal ichidagi havo tezligi 25 m/s , x_3 – transportirovka kanalning qiyalik burchagi 20 mm bo'lganda ipning solishtirma uzish kuchi 11.718 sN/teks , ipning noteksligi esa 11.9% ga yaxshilashga erishildi.

Reference

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.01.2025 yildagi PF-6-son.
Raqamli bosish asosan reklama materiallari, kam adadli etiketkalar, bukletlar, broshyuralar, kitoblar, fotosuratlar va boshqa turdagi bosma mahsulotlar uchun ishlatiladi. Raqamli bosishda inkjet va lazerli printerlar, raqamli ofset bosish mashinalari ishlatiladi [2-3]. Hozirgi kunda inkjet – purkashli printerlar keng foydalanilmoqda. Purkashli printerlar bosuvchi kallakda ignalar o'rni ingichka naychalar — soplolarga (konus naychalarga) ega, u orqali qog'ozga siyohning mayda tomchilari purkaladi. Bosuvchi kallakning matritsasi odatda 12 tadan 64 tagacha soploda ega. Soploda devoriga elektrik qizdiruvchi element o'rnatilgan bo'lib, uning harorati elektr impulsi berilganda 5-10 mks ichida keskin ortadi. Qizdiruvchi element bilan kontaktda joylashgan siyohning hammasi bir zumda bug'lanadi, bu bosimning keskin oshishiga olib keladi, buning oqibatida siyoh soplodan qog'ozga otilib chiqadi. «Otilgandan» keyin siyoh bug'lari kondensatsiyalanadi, soploda pasaygan bosim zonasi hosil bo'ladi va o'nta siyohning yangi portsiyasi (ulushi) suriladi. Ushbu texnologiyadagi purkashli printerlarni imkonli qobiliyati 600-1440 dpi. Shunday qilib, hozirgi vaqtda purkashli printerlar millimetrga 50 tagacha nuqtani o'tkazish qobiliyatini va sekundiga 500 tagacha belgini bosish tezligini ta'minlaydi va bunda bosish sifati lazerli bosish sifatiga yaqin bo'ladi [4].

Turli purkashli bosma tizimlari suyuq bo'yoqlar turlaridan foydalanishni taqozo etadi. Ishlatiladigan bo'yoq turi ko'p jihatdan nafaqat uni uzatish tizimi, balki bosiladigan material yuza xossalari (shimilish qobiliyati), atrof-muhit sharoitlari (yorug'likka bardoshlilik, yeyilishga chidamlilik, atmosfera ta'sirlariga bardoshlilik va h.k.) hamda quritish jarayoni bilan belgilanadi. Suyuq bo'yoqlarni quritish jarayoni bug'lanish va shimilishdan iborat. Issiqlik uzatish yordamida yanada tez natijaga erishish mumkin. UB-bo'yoqlar nurlanish orqali quritiladi. Purkashli bosmada suyuq termobo'yoqlardan ham foydalaniladi.

Termobo'yoqlar ishlab chiqarish jarayoni vaqtida avtomatik quritiladi. Qizdirilganda erigan bo'yoq soviydi va qog'ozda qattiqlashadi. Bo'yoqlar va bosiladigan material bilan o'zaro ta'siri ayniqsa ko'p rangli bosmada bo'yoq qatlami qalinligini va tasvir sifatini belgilaydi. Suyuq bo'yoqlar ishlatilganda qog'ozdagi bo'yoq qatlami qalinligi purkashli bosmada taxminan 0,5 mkm ga yetadi. UB va termobo'yoqlar ishlatilganda 10 dan 15 mkm gacha tashkil etadi [5].

Purkashli bosmada yuqori aniqlikda tasvirni hosil qilishda ishlatiladigan qog'oz suvga chidamli va kam miqdorda suvni qabul qilish kerak. Qog'ozning shimilish qobiliyati foydalaniladigan homashyo va mineral to'ldirgichlarning xossalriga bog'lik. Masalan, paxtaning ikkilamchi tolasidan olingan sellyuloza tarkibli qog'ozlarning shimilish xususiyati pastroq bo'ladi [6-7].

So'nggi paytlarda bosma sifatni nazorat qilishda spektrodensitometrlardan keng foydalanilmoqda. Ular spektrofotometr va densitometr imkoniyatlarini bitta qurilmada birlashtiradi. Aslida, spektrodensitometr densitometr bilan deyarli bir xil, lekin faqat ilg'or hisoblash qobiliyatiga ega. U namunaning aks ettirish spektrini juda ko'p sonli zonalardan aniqlay oladi. Shu bilan birga, spektrodensitometr optik zichlikni to'liq uzunligining keng intervallarida (masalan, spektrni uch zonaga bo'lganda) ko'proq tor zonalar bo'yicha o'lchovlar asosida hisoblashi mumkin. Spektrodensitometrlar bo'yoqlarning aralashishini nazorat qilish, boshidan oldingi va chop etish sexlarida, kolorimetrik va sinov laboratoriyalarida ranglarni nazorat qilish uchun juda mos keladi [8-9]. Optik zichlik kiymatlari asosan bo'yoq qatlamiga uzviy bog'liq hisoblanadi, bo'yoq qatlami qancha qalin bo'lsa, optik zichlik ko'rsatkichi shuncha baland bo'ladi. Optik zichlikning standart ko'rsatkichlari mahsulot tayyorlashning me'yoriy hujjatlarda keltirilgan. Bo'yoq qurishi jarayonida uning qaytish koeffitsiyenti o'zgaradi, bu esa optik zichlik qiymatiga ta'sir ko'rsatadi [10-15]. Purkashli bosmada sifatli mahsulot olishda printerning imkonli qobiliyati va qog'ozning yuza xossaligidan – shimilish qobiliyatini oldindan bilish dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti. Purkashli bosish usulida EPSON L805 markali printerda (1,a-rasm, 1-jadval) rangli tasvirlarni va bosiluvchi materialga bo'yoq o'tishini obyektiv baholash uchun uch qismdan iborat test-obyekt (2-rasm) ishlab chiqildi. Bosma nusxalarni olishda Chernila Epson 673 turidagi suyuq bo'yoq va 80 g/m² li ofset, 230 g/m² yaltiroq fotoqog'oz, 210 g/m² hira fotoqog'oz, 240 g/m² yaltiroq bo'rlangan, 220 g/m² hira bo'rlangan qog'ozlaridan(2-jadval) foydalanildi. "IT markaz" kichik xususiy bosmaxonasida purkashli usulida besh xil qog'ozlarda test-ob'yeckt chop etildi. Bosma sifati ETNALN ET-120 HD portativ spektrodensitometr (1,b-rasm) yordamida test-ob'ektni 3-qismi, ya'ni rang gradatsiyasi ob'ektiv baholandi.



1-rasm. a - EPSON L805 printerni, ETNALN ET-120HD portativ spektrodensitometr tashqi kurinishi

1-jadval


EPSON L805 printerining texnik parametrlari

Bosish texnologiyasi	Inkjet
Maksimal o'lcham	A4
Imkonli qobiliyat, dpi	5760x1440
Ranglar soni	6
Bosib chiqarish tezligi	37 bet/min
Printerni o'lchamlari	537 x 187 x 289 mm

2-jadval

Tadqiqot uchun olingan qog'ozlarning fizik-mexanik ko'rsatkichlari

№	Qog'oz na'munalari	Massa, g/m ²	Qalinlik, mkm	Silliqlik, sek	Oqlik darajasi, %
1	yaltiroq foto qog'oz	220	180	90	84
2	hira foto qog'oz	230	150	110	86
3	yaltiroq bo'rlangan qog'oz	240	200	100	85
4	hira bo'rlangan qog'oz	220	160	100	83
5	ofset qog'ozi	80	106	130	78




2-rasm. Ishlab chiqilgan test-obyekt

Tadqiqot natijalari. Ushbu ishning maqsadi 80 g/m² ofset, 230 g/m² yaltiroq fotoqog'oz, 210 g/m² hira fotoqog'oz, 240 g/m² yaltiroq bo'rlangan va hira bo'rlangan 220 g/m² qog'ozlarida purkashli usulda qog'oz yuzasiga o'tgan bo'yoq miqdorini hamda rangli tasvirlarni sifatini tahlil qilishdan iborat. Ushbu tadqiqotda bosilgan test-ob'ektdagi asosiy ranglar uchun 0 dan 100% gacha rastr elementlarni nisbiy maydonining optik zichligi laboratoriya sharoitida ETNALN ET-120HD spektrodensitometrda o'lchandi. Olingan natijalar 3-jadvalda keltirildi.

Bosilgan test-obyekti bo'yicha optik zichlik ko'rsatkichlari

N/	Qog'oz na'munalari	Optik zichlik, D			
		C	M	Y	K
1	230 g/m ² yaltiroq foto qog'oz	0,77	1,43	1,18	1,64
2	210 g/m ² hira foto qog'oz	0,68	1,26	1,05	1,61
3	240 g/m ² yaltiroq bo'rlangan qog'oz	0,76	1,47	1,22	1,70
4	220 g/m ² hira bo'rlangan qog'oz	0,69	1,11	0,96	1,29
5	80g/m ² ofset qog'ozi	0,85	0,78	0,79	0,93



3-rasm. Na'muna qog'ozlarda bosilgan nusxalarning optik zichligi diagrammasi

1 - 230 g/m² yaltiroq fotoqog'oz; 2 - 210 g/m² hira fotoqog'oz; 3 - 240 g/m² yaltiroq bo'rlangan qog'oz; 4 - 220 g/m² hira bo'rlangan qog'oz; 5 - 80 g/m² ofset qog'ozi

Qurilgan diagramma (3-rasm)dan ko'rinib turibdiki, hira bo'rlangan qog'ozning optik zichligi (4) ofset qog'oz (5)ning optik zichligiga nisbatan yuqori, lekin yaltiroq fotoqog'oz (1), hira fotoqog'oz (2), yaltiroq bo'rlangan (3) ko'rsatkichlardan pastligini ko'rsatdi. Buning asosiy sababi bo'rlangan qog'oz sirtiga kimyoviy ishlov, yani bo'r qatlami qoplangan. Bo'r suspenziya qog'oz yuzasiga qog'oz tayyorlash mashinalarida surkaladi. Qog'ozga bo'r suspenziya surkalgandan keyin quritiladi va kalandirlanadi, natijada oqlik, silliqlik va kapillyarlik darajasi yuqori bo'ladi. Qog'oz yuzasiga termo-mexanik ishlov berilmagani uchun qog'oz sillikka ega ammo sezilar sezilmas g' adir-budirliklar mavjud. Suyuq bo'yoq pigmentlari mayda chuqurchalarga kirib ketish tufayli yuzada ranglarni to'yinganlik darajasi past.

Olingan natijalarda ofset qog'ozining optik zichligi boshqa qog'oz na'munalarning optik zichligiga nisbatan pastroq ekanligi aniqlandi. Ofset qog'ozining g' ovakligi va shimilish xususiyati baland bo'lganligi sababli suyuq bo'yoq pigmentlari organik erituvchi bilan birga qog'oz g' ovaklariga diffuziyalanadi. Shuning uchun bosilgan tasvirning to'yinganligi boshqa qog'oz namunalari bilan solishtirilganda past ko'rsatkichni ko'rsatdi.

Qog'oz va suyuq bo'yog'i bilan o'zaro ta'sirlashuvini tahlil qilish uchun ETNALN ED-120HD portativ spektrodensitometr yordamida optik zichlik qiymatlari o'lchangan. O'lchash natijalari 4-5 jadvallarda berilgan.

Qog'oz na'munalari chop etilgan nusxalar optik zichlik qiymatlari

Rastr elementlarning nisbiy maydoni, %	Cyan (Magenta) ranglar				
	№1	№2	№3	№4	№5
0	0	0	0	0	0
10	0,15 (0.14)	0,14 (0.17)	0,16 (0.13)	0,17 (0.15)	0,12 (0.12)



0,9	20	0,24 (0.20)	0,22 (0.19)	0,27 (0.22)	0,25 (0.19)	0,21 (0.18)
0,8	30	0,35 (0.28)	0,3 (0.26)	0,33 (0.29)	0,34 (0.28)	0,29 (0.24)
0,7	40	0,43 (0.38)	0,4 (0.36)	0,48 (0.40)	0,4 (0.37)	0,43 (0.29)
0,6	50	0,54 (0.52)	0,49 (0.45)	0,54 (0.53)	0,45 (0.48)	0,48 (0.38)
0,5	60	0,66 (0.62)	0,59 (0.52)	0,6 (0.60)	0,55 (0.56)	0,5 (0.43)
0,4	70	0,69 (0.81)	0,62 (0.67)	0,7 (0.79)	0,58 (0.63)	0,54 (0.51)
0,3	80	0,71 (1.20)	0,64 (0.83)	0,71 (0.95)	0,58 (0.76)	0,57 (0.57)
0,2	90	0,8 (1.30)	0,67 (1.17)	0,74 (1.38)	0,65 (1.04)	0,61 (0.66)
0,1	100	0,85 (1.44)	0,80 (1.28)	0,77 (1.51)	0,72 (1.13)	0,65 (0.77)
0						

4-rasm. Havorang va qirmizi ranglar uchun gradatsion egri chiziqlar

N1 - Yaltiroq foto qog'oz; N2- Hira foto qog'oz; N3- Yaltiroq bo'rlangan qog'oz;
N4- Hira bo'rlangan qog'oz; N5-Ofset qog'oz 80gr/m²

5-jadval

Rastr elementlarning nisbiy maydoni, %	Yellow (Black) ranglar				
	№1	№2	№3	№4	№5
0	0	0	0	0	0
10	0,11 (0.15)	0,11 (0.17)	0,10 (0.21)	0,10 (0.15)	0,10 (0.10)
20	0,13 (0.23)	0,15 (0.21)	0,12 (0.31)	0,12 (0.25)	0,17 (0.18)
30	0,16 (0.31)	0,22 (0.37)	0,15 (0.42)	0,15 (0.33)	0,20 (0.25)
40	0,31 (0.44)	0,31 (0.40)	0,30 (0.53)	0,28 (0.43)	0,28 (0.34)
50	0,45 (0.55)	0,38 (0.48)	0,42 (0.64)	0,33 (0.51)	0,39 (0.40)
60	0,63 (0.65)	0,46 (0.57)	0,56 (0.75)	0,43 (0.60)	0,46 (0.46)
70	0,87 (0.77)	0,72 (0.67)	0,91 (0.87)	0,56 (0.69)	0,60 (0.56)
80	1,08 (0.91)	0,93 (0.79)	1,12 (1.12)	0,75 (0.81)	0,67 (0.65)
90	1,15 (1.24)	1,04 (1.39)	1,24 (1.21)	0,86 (1.01)	0,75 (0.85)
100	1,18 (1.63)	1,08 (1.60)	1,25 (1.72)	0,96 (1.31)	0,78 (0.92)



5-rasm. Sariq va qora ranglar uchun gradatsion egri chiziqlar

N1 - Yaltiroq foto qog'oz; N2- Hira foto qog'oz; N3- Yaltiroq bo'rlangan qog'oz;
N4- Hira bo'rlangan qog'oz; N5-Ofset qog'oz 80gr/m²

Rang gradatsiyasi egri chiziqlar – bosish jarayonni, ya'ni bo'yoq va bosiluvchi material bilan ta'sirlashuvni baholash uchun xizmat qiladi. Natijada, bosish jarayonida sifatli mahsulotni chop etishda eng muamoli hisoblangan ranglarni och zonada (0-20% rastr elementlarning nisbiy maydonida) va to'q (90-100%) qismlarida umumiy pog'ona va kontrast ta'minlanganligini bilish mumkin. Egri chiziklarni tahlili shuni kursatadiki, och zonada yo'qotishlar mavjud, to'q qismlarda esa eng yuqori natija N3 - yaltiroq bo'rlangan qog'ozda (havorangdan tashqarida) ta'minlangan, buni ishlatilgan qog'ozni yuza xossalari – etarli darajada sillikka va g'adirbudurlikka egaligidan dalolat beradi.

Xulosa. Bugungi kunda matbaa sohasida kichik o'lchamli va kam adaddagi mahsulotlarni chop etishda sifatga talab yuqori bo'lmoqda. Ushbu mahsulotlar uchun kichik matbaa korxonalarida har xil konstruksiyaga ega purkovchi printerlar va keng assortimentdagi qog'ozlar foydalaniladi. Ushbu texnologiyada bosma sifatni ta'minlash uchun qog'ozni to'g'ri tanlash va ishlatishni talab qilinadi. Tajribani amalga oshirishda matbaa mahsulotlarini bosishda keng qo'llaniladigan qog'ozlarning fizik-mexanik xossalari o'rganildi. Injekt bosma usuliga asoslangan EPSON L805 printerida besh xil turdagi qog'ozlarda namuna nusxalari bosildi. Ushbu tadqiqotda 80 g/m² ofset, 230 g/m² yaltiroq fotoqog'oz, 210 g/m² hira fotoqog'oz, 240 g/m² yaltiroq bo'rlangan va 220 g/m² hira bo'rlangan qog'ozlar ob'ekt sifatida ishlatilgan. Spektrodensitometr yordamida bosilgan nusxalarning optik zichligi diogrammasi hamda rang gradatsiyasi tuzildi. Ushbu qog'ozlarda purkovchi printer yordamida bosilgan tasvirlarni sifati densitometrik nazorat qilish natijasida 230 g/m² yaltiroq bo'rlangan qog'oz na'munasida bosilgan tasvirning sifati yuqori ko'rsatkichga egaligi aniqlandi.

Reference

1. Kippaxan G. Ensiklopediya po pechatnim sredstvam informasii M.: MGUP, 2003. 1280 s
2. Zuev P.A., Issledovaniye svetovosproizvedeniya v sifrovix sistemax svetnoy elektrofotografii / Zuev P.A., Sisuev I.A. // Izvestiya Tuls'kogo gosudarstvennogo univer-siteta. Texnicheskiye nauki. — 2013. — № 3. — S. 204 — 213.
3. Persson B.N.J., Ganser C., Schmied F., Teichert C., Schennach R., Gilli E., Hirn U. Adhesion of cellulose fibers in paper // J. Phys.: Condens. Matter. 2013. V. 25. N 4. P. 045002-1-045002-1
4. Forsberg, P. ESEM examination of the roughening of paper in high moisture environment / P. Forsberg, P. Lepoutre // Int. Print. and Graph. Arts Conf., Halifax, Oct. 17–20, 1994. – Montreal. –1994. – P. 229–236
5. Lim, P. Application of fuzzy set theory for evaluating non-impact printing image qualities / P. Lim, Steinlage Ralph C., Gantner Thomas E. // Int. Print. and Graph. Arts Conf., Vancouver, Nov. 6–8, 1990: Prepr. – Montreal. 1990. – P. 79
6. Babaxanova X. A., Varepo L. G. Faktori, vliyayushiy na vzaimodeystviye bumagi i kraski v protsesse pechati // Problemi poligrafii i izdatelskogo dela. 2015. № 1. S. 10–13.
7. Abdunazarov M.M., Bulanov A.K., Djalilov A.A. Raqamli bosma texnologiyasi. Darslik-T.: 2021. 292 b.
8. Mansurov A.S. Analiz svyazi mejdu opticheskimi svoystvami bumajnix substratov i kachestvom ottiskov, poluchennix struynim metodom. Diss...sois.akad.step. mag. – Sp. S-PbPU Petra Velikogo.2017. – -63 s.
9. Domasyov M.V. Issledovaniye vozmojnostey svetoperedachi v mashinax struynoy pechati na bumajnix nositelyax//Avtoref. Diss. ...na sois.uchen.step. k.t.n. S.Peterburg, 2011, - 16 s.
10. O.P.Starchenko, I.V.Marchenko “Metrologiya, standartizatsiya i upravleniye kachestvom poligraficheskoy produkcii”. Minsk - 2004.
11. Leontyev V.N. Metodi i sredstva sovershenstvovaniya pechatnix svoystv bumag v sisteme «bumaga-kraska-ottisk»: uchebnoye posobiye/GOUVPO SPbGURP. SPb., 2009.-170 s.

-
12. Forsberg, P. Esem examination of the roughening of paper in high moisture environment / P. Forsberg, P. Lepoutre // Int. Print. and Graph. Arts Conf., Halifax, Oct. 17–20, 1994. – Montreal, 1994. – P. 229–236.
13. Belozеров, E. Vliyaniye osnovnix faktorov protsessa pechati na xarakteristiki izobrajeniya / E. Belozеров, I. Salibekova // PoligrafiY. – 1977. – № 8. – S. 28–30.
14. Belozеров, E. Issledovaniye vliyaniya strukturi pechatnogo izobrajeniya na kachestvo ottiskov / E. Belozеров, A. Muntyan // PoligrafiY. – 1977. – № 4. – S. 23–24.
15. Xmel'nitskiy A.K. Modeli i otsenka vliyaniya svoystv bumagi na kachestvo pechatnoy produkcii: Avtoref. dis...kand. texn.nauk. – Moskva: MGUP, 2004. – 24 s.

UDK 685.31.792:678

**MAXSUS POYABZAL TANAVORINI YELIMLI BIRIKTIRISHNING
TEKNOLOGIK REJIMLARINI ANIQLASH UCHUN
TAJIRIBANI MATEMATIK REJALASHTIRISH**

SH.U.Qodirov¹, T.A.Pulatov², N.B.Mirzayev²

¹*Jizzakh Polytechnic Institute*

²*Tashkent institute of textile and light industry*

***Annotatsiya.** Maqolada yuqori haroratdan himoyalovchi poyabzalga qo'yilgan talablarni inobatga olib maxsus poyabzalni ishlab chiqarish texnologiyasi va biriktirilish usuli tanlangan va tadqiqot natijalari keltirilgan. Eksperimental tadqiqotlarda poyabzalning turli materiallaridan tashkil topgan qismlarining o'zaro mosligini, yelim va materiallar orasidagi o'zaro ta'sirni o'rganilgan. Bunda, poyabzalni yig'ish jarayonida optimallashtirilgan texnologik rejimlar, ya'ni harorat va bosim sharoitlari, yelimning mexanik xususiyatlari, termal va mexanik yuklarga nisbatan chidamliligi tahlil qilindi. Matematik rejalashtirish yordamida tajribalar va hisoblashlar yordamida eng maqbul yelimni tanlash va texnologik rejimlarni aniqlash imkoni tug'iladi. Maqolada, shuningdek, yelimli biriktirishning qatlamli tuzilmalardagi xususiyatlari, shuningdek, poyabzalning turli detallarining mustahkamligi, elastik moduli va statik dinamik yuklar ostidagi xatti-harakatlari ko'rib chiqiladi. Bu yondashuv yordamida poyabzal ishlab chiqaruvchilariga yuqori sifatli, uzoq muddatli va iqtisodiy jihatdan samarali mahsulotlar yaratishda zarur bo'lgan texnologik parametrlarni aniqlash imkoniyati yaratildi.*

***Kalit so'zlar:** maxsus poyabzal, charm, sun'iy charm, chok, yelim, tanavor, xarorat, ip.*

***Аннотация.** В статье рассмотрены требования, предъявляемые к обуви, предназначенной для защиты от высоких температур, а также выбрана технология производства специальной обуви и метод её соединения, приведены результаты исследований. В ходе экспериментальных исследований изучена совместимость различных материалов, из которых состоят детали обуви, и взаимодействие клея с материалами. В процессе сборки обуви были проанализированы оптимизированные технологические режимы, такие как температурные и давление условия, механические свойства клея, его стойкость к термическим и механическим нагрузкам. С помощью математического планирования проводятся эксперименты и расчёты, что позволяет выбрать наиболее подходящий клей и определить технологические параметры. В статье также рассматриваются особенности клеевых соединений в многослойных структурах, а также прочность различных деталей обуви, её эластичность и поведение под статическими и динамическими нагрузками. Такой подход позволяет производителям обуви определить необходимые технологические параметры для создания высококачественной, долговечной и экономически эффективной продукции.*

***Ключевые слова:** специальная обувь, кожа, искусственная кожа, стежки, клей, заготовка, температура, нитка.*

Annotation. *The article discusses the requirements for footwear designed to protect against high temperatures, as well as the selected technology for manufacturing special footwear and the method of its assembly, with the research results presented. During the experimental studies, the compatibility of various materials used in the components of the footwear and the interaction of the adhesive with the materials were examined. In the process of assembling the footwear, optimized technological regimes were analyzed, such as temperature and pressure conditions, the mechanical properties of the adhesive, and its resistance to thermal and mechanical loads. Through mathematical planning, experiments and calculations were conducted, enabling the selection of the most suitable adhesive and the determination of technological parameters. The article also discusses the characteristics of adhesive bonds in multilayer structures, as well as the strength, elasticity, and behavior of various footwear components under static and dynamic loads. This approach allows footwear manufacturers to identify the necessary technological parameters for creating high-quality, durable, and economically efficient products.*

Key words: *special footwear, leather, artificial leather, stitch, glue, blank, temperature, thread.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida [1] prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o‘zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta‘minlash bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, maxsus poyabzal ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Maxsus poyabzalda ipli usul tanavor detallarini birlashtirishning umumqabul qilingan usuli hisoblanadi. Ipli choklarga mustahkamlik, elastiklik, fizik, kimyoviy va fizik-kimyoviy ta‘sirga chidamlilik bo‘yicha yuqori talablar qo‘yiladi. Yuqori haroratli sharoitda tanavor detallarini birlashtiruvchi ipli choklar foydalanish maqsadga muvofiq emas. Shuning uchun tezda ishdan chiqadi. Buning natijasida poyabzal muddatidan oldin ishdan chiqadi. Ularni zararli ishlab chiqarish omillari va tez buzilishdan himoyalash uchun turli qoplama detallardan foydalanish mumkin. Biroq, masalaning bunday yechimi poyabzalni ortiqcha qo‘pollashib ketishiga olib keladi. Bu noqulaylik va poyabzalning tashqi ko‘rinishini buzilishiga olib keladi.

Tanavorning ipli choklari yuqori haroratlar ta‘siriga chidamli bo‘lgan germetik bilan qoplanishi mumkin, masalan, siloksanli kauchuk bilan [2]. Lekin bu poyabzalni ishlab chiqarishni qiyinlashtiradi va uning vaznini oshirib yuboradi. Bundan tashqari, foydalanish jarayonida ko‘p marta bukilishda germetik to‘kiladi.

Tanavorni yashirish (mahfiy) chok bilan yig‘ishda hozirgi vaqtda zaruriy uskunalarni mavjud emas.

Nazariy tadqiqotlar: Ishlab chiqilayotgan maxsus poyabzal konstruksiyasida tanavor detallarini birlashtirish usulini tanlashda biriktirishning ipli usuli quyidagi sabablarga ko‘ra inkor etilgan:

matoli asosdagi sun‘iy charmdan tayyorlangan detallarning ipli usulda biriktirishda yurish jarayonida biriktirilgan chok chizig‘i bo‘ylab plenkaning buzilishi va to‘kilishi sodir bo‘ladi;

tolali asosdagi sun‘iy materiallarda ipli chok kerakli taranglikni ta‘minlamaydi va foydalanish jarayonida tezda bo‘shashib ketadi;

ipli chokning mustahkamligi materialning ignada teshilishi natijasida sezilarli darajada pasayadi, bahya chizig‘i bo‘yicha buzilish tezlashadi.

Tanavor detallarini mahkamlashning boshqa usullari ham mavjud. Bu usullar: yelimli, payvandli, yelimli va pressli vulkanizatsiya. Bu usullar turli sabablarga ko‘ra sanoatda chegaralangan holda qo‘llaniladi.

Ta‘kidlab o‘tish kerakki, tanavor detallarini yelimli biriktirish bir qator foydalanish va texnologik afzalliklarga ega, xususan:

detallarni yelim bilan birlashtirishda birlashtirish mustahkamligiga to'liq erishiladi, chunki material teshiklar bilan kuchsizlanmaydi [3];

yelimlash detallarni birlashtiruvchi choklarda kuchlanishning bir tekis taqsimlanishini ta'minlaydi;

yelimli yig' ish poyabzalning ustki qismi uchun sun'iy materiallar assortimentini kengaytiradi;

tanavor va poyabzallarni alohida, yig' ilgan va qoliplangan bo'laklar bilan yig' ish usullarini qo'llash va choklarga nisbatan kamaytirilgan qo'shimchalarga ega detal va bo'laklardan yangi konstruksiyalarni ishlab chiqish istiqboli paydo bo'ladi [4];

ba'zi operatsiyalarni birlashtirish (masalan, detallarni birlashtirgan holda oldindan yig' ish, detallarni kant bo'yicha mahkamlash buki shva h.k.) va tanavorlarni ipli yig' ish jarayoni tarkibiga kiruvchi bir qator operatsiyalarni bartaraf qilish imkoniyatlari yaratiladi;

yelimli usul detallarni birlashtirishning parallel usuli hisoblanadi, bu tanavorlarni yig' ishning butun jarayonini avtomatlashtirish istiqbollarini ochib beradi. Bu jarayon hozirga qadar mehnat sarfi yuqori jarayonlardan bo'lib, jarayon avtomatlashganda bir qator ustuvorliklar paydo bo'ladi [5].

Tanavor detallarni yig' ish va maxsus poyabzal choklarini turli buzilishlardan himoya qilish usullarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, mexanik mahkamlashni yelimli bilan almashtirish kerakli mustahkamlik va uzoq xizmat qilishni ta'minlashi mumkin.

Poyabzalning ustki qismi tanavorini yelimli usulda yig' ish texnologiyasi yelimli chokdan foydalangan holda detallarni birlashtirishni ko'zda tutadi. Yelimli chok yuqori mustahkamlikka ega bo'lishi va issiqlik nurlanishi, atrof-muhitning yuqori xarorati va erigan metall va shlaklarning tomchilari ta'sir qilganda mustahkamlikni saqlab turishi kerak [6]. Eng termochidamli yelimni aniqlash uchun ishda ma'lum yelimlar va yangi yelimlar tadqiq qilingan: kauchuk asosidagi Desmokoll-400 poliuretan yelimi; DST-30 termoelastoplasti asosidagi BBK yelimi; karboksil saqlovchi polixloroprenli kauchuk asosidagi PK; qotiruvchili va ular qo'shilmagan yelimlar [7].

Yelimli birlashtirishning mustahkamligi qatlamlarning ko'chishi bo'yicha sinaldi. Sinovlar ma'lum metodika [8] bo'yicha xona xaroratlarida va 50°C gacha bo'lgan yuqori xaroratlarda amalga oshirildi. Yelimlashning texnologik rejimlari tavsiyalariga muvofiq tanlandi. Qatlamlarning ko'chishiga sinash RT-250 turidagi uzish uskunasida amalga oshirildi. Namunalar xona xaroratida yelimli biirkmaning yarmigacha ko'chirildi, shundan keyin namunalar termostatda 50°C xaroratda 60 daqiqa davomida ushlab turildi, shundan so'ng yelimli birikmaning qolgan qismi ko'chirildi (ajratildi). Ular shuni ko'rsatmoqdaki [9], DST-30 termoelastoplasti asosidagi yelimlar (BBK) va karboksil saqlovchi kauchuk asosidagi yelimlar (PK) xona xarorati sharoitlarida foydalanishda kerakli mustahkamlikni ta'minlashi mumkin. Yuqori xaroratlar sharoitlarida mustahkamlik keskin pasayadi (BBK dan foydalanishda 77-87% va PK da 77-89%). Qotiruvchini qo'llash chokning mustahkamligini biroz oshiradi va yuqori xarorat ta'siri ostida uning pasayishini biroz kamaytiradi. Qotiruvchili Desmokoll-400 kauchuki asosidagi yelimlar yuqori darajadagi mustahkamlik va yelimli birikmaning barqaror ko'rsatkichlarini ta'minlaydi. Qotiruvchili Desmokoll-400 kauchuki asosidagi yelimdan foydalanishda yuqori xarorat ta'sir qilganda birikmaning mustahkamligi, qo'llanilgan substratga bog'liq holda, 14...30% ga pasayadi [10].

Amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida mazkur turdagi maxsus poyabzalning tanavorini yig' ish uchun qotiruvchili Desmokoll-400 kauchuki asosidagi poliuretan yelimi tanlangan. Qotiruvchi sifatida 100 massa qism yelim uchun 2-3 massa qism B markali poliizotsionatdan foydalanilgan (TU 6-03-375-75).



1-rasm. Ishlab chiqilgan poyabzallarning konstruksiyalari

Tajribaviy izlanishlar: Poyabzalni tayyorlash va undan foydalanish jarayonida choklar (masalan, qo‘nji old qismi, gulchinning qo‘nj bilan birlashtiruvchi qismlar va b.) ularning joylashuviga perpendikulyar yo‘nalishdagi cho‘zuvchi kuchlanishlarga uchraydi [11]. Shuning uchun yelimli choklarni cho‘zilishda siljishga tekshirish natijalari uning mustahkamligini tavsiflashga, shuningdek, chok mustahkamligining uning konstruktiv tavsifnomalari va qabul qilingan texnologik rejimlarga bog‘liqligini aniqlashga imkon beradi [12] (2-jadvalga qarang).

Maxsus poyabzal tanavorini yelimli yig‘ ishning texnologik rejimlarini aniqlash uchun to‘liq faktorli tajriba amalga oshirilgan (1-jadval).

1-jadval

Tadqiq qilingan namunalarning tavsifnomalari

Variant lar №	Yelimlanadigan materiallarning nomi	Yelimlanadigan yuzalarga ishlov berishning mavjudligi
1	2	3
1.	Poyabzalning ustki qismi uchun metallashgan qoplama ega qoplama bo‘yalgan charm + olovbardosh shimdirilgan bo‘yalgan parusina	-
2.	Poyabzalning ustki qismi uchun metallashgan qoplama ega qoplama bo‘yalgan charm + poyabzalning ustki qismi uchun metallashgan qoplama ega qoplama bo‘yalgan charm	Ha
3.	Termochidamli spilok + termochidamli spilok	-
4.	Sun‘iy yuzali spilok (metallashgan qoplama) + sun‘iy yuzali spilok (metallashgan qoplama)	Ha
5.	Sun‘iy yuzali spilok (metallashgan qoplama) + sun‘iy yuzali spilok (metallashgan qoplama)	-

Metallashgan qoplami materiallarni yelimlashda (2- va 4-variantlar) materialni yuzasi oldindan yelim chokiga mos qilib tayyorlandi. Ustki qism detallari qoplama (nakladnoy) choklarning hosil bo‘lishi joylarida yuza tomonidan chekkasi bo‘ylab 10-12 mm ga yupqalashtirildi (spuskat). Bunday ishlov berishdan so‘ng detalning qalinligi boshlang‘ ichga nisbatan $\frac{3}{4}$ qismni tashkil qildi [13].

Optimallashtirish mezonini sifatida chokka nisbatan perpendikulyar yo‘nalishda yuklama qo‘yilganda yelim chokining siljishga mustahkamligi qabul qilindi.

Oltita mustaqil o'zgaruvchilarning ta'siri tadqiq qilindi, ularni variatsiyalash darajalari va intervallari aprior axborotni o'rganish va qidiruv tajribasini amalga oshirishdan so'ng tanlandi (2-jadval).

2-jadval

O'zgaruvchilarni variatsiyalash darajalari va intervallari

Faktorlar	Simvollar	Variatsiyalash darajalari			Variatsiyalash intervali
		-1	0	+1	
Yelim plenkasini quritish vaqti, daq.	X ₁	60	80	100	20
Faollashtirish xarorati, °C	X ₂	60	90	120	30
Faollashtirish vaqti, °C	X ₃	35	50	65	15
Presslash bosimi, Mpa	X ₄	0,5	0,75	1,0	0,25
Presslash vaqti, soniya	X ₅	5	10	15	5
Quruq qoldiq miqdori, %	X ₆	18	21	24	3

Qolgan faktorlar doimiy darajada qayd etildi: bir marta ikki tomonlama surtish, yelim chokining eni 10-12 mm.

Tabiiy charm namunalari assimetrik baxroma metodi bo'yicha tanlandi. To'qimachilik materiallari namunalari uzunasiga va ko'ndalang yo'nalishlarda bichildi [14].

Amalga oshirilgan tajribaning regressiya tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$y = b_0 + b_1X_1 + b_2X_2 + b_3X_3 + b_4X_4 + b_5X_5 + b_6X_6 + b_{12}X_1X_2 + b_{13}X_1X_3 + b_{14}X_1X_4 + b_{15}X_1X_5 + b_{16}X_1X_6 + b_{23}X_2X_3 + b_{24}X_2X_4 + b_{25}X_2X_5 + b_{26}X_2X_6 + b_{34}X_3X_4 + b_{35}X_3X_5 + b_{36}X_3X_6 + b_{45}X_4X_5 + b_{46}X_4X_6 + b_{56}X_5X_6$$

Regressiya tenglamasi koeffitsiyentlari ma'lum formulalar [15,16] bo'yicha aniqlandi. Jarayonning qayta hosil qilinuvchanligi Koxren kriteriysi bo'yicha tekshirildi. Regressiya koeffitsiyentlarining ahamiyatligini baholash Styudent kriteriysi bo'yicha amalga oshirildi.

Matematik shakl o'zgartirishlardan so'ng tajribaviy ma'lumotlarni hisobga olgan holda optimallashtirish parametri \bar{y} va faktorlar X₁...X₆ orasida funksional bog'liqlik tenglamasi olindi. Ko'rsatilgan variantlar uchun funksional bog' tenglamasi 5-ilovada keltirilgan.

Tanlangan faktor fazosida jarayonning fizik mohiyati bo'yicha olingan matematik modallarning adekvatligini baholash Fisher kriteriysidan foydalanib amalga oshirildi. Tekshirish shuni ko'rsatdiki, modellar 95% li ehtimol bilan jarayonni ifodalaydi va foydalanish uchun yaroqli.

Natijada maxsus poyabzal tanavorini yelim usulda yig' ishning quyidagi texnologik parametrlari olindi (3-jadval).

3-jadval

Tanavorni yelimli usulda yig' ish jarayonining texnologik parametrlari

Variant №	1	2	3	4	5
Quritish vaqti, daq.	80	88	80	70	100
Faollashtirish xarorati, °C	85	115	123	60	90

Faollashtirish vaqti, soniya	50	69	91	21	70
Presslash bosimi, mPa	0,76	1,5	1,3	0,74	1,02
Ushlab turish vaqti, soniya	15	10	27	10	10
Kauchukning konsentrasiyasi, %	21	21	22	22	22
Yelim chokining siljishga mustahkamligi, Mpa	1,7	2,4	4,0	6,0	1,1

Natijalar tahlili: Natijalarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, materialning yuzasi oldindan yelim chokiga tayyorlangan holda metallashgan qoplamga ega termochidamli spilkadan tayyorlangan detallarni yelimlashda (4-variant – 6,0 mPa), shuningdek, termochidamli spilka qo'llanganda (3-variant – 4,0 mPa) yelimli chok maksimal mustahkamlikka ega bo'ladi. Metallashgan qoplamga ega xromli oshlangan charmdan tayyorlangan detallarni yelimlashda chokning mustahkamligi biroq pastroq bo'ladi (2-variant – 2,4 mPa). Yuzaga yelimli chok uchun moslab ishlov berilmaganda yelimli chokning mustahkamligi eng past bo'ladi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari asosida issiqlik nurlanishi bilan bog'liq bo'lmagan qaynoq sexlar uchun mo'ljallangan maxsus poyabzallar uchun ustki qismni metallashgan qoplamsiz spilkadan tayyorlashni tavsiya qilish mumkin (3-variant). Biroq, issiqlik nurlanishi bilan shikastlanish xavfi mavjud ishlar uchun metallashgan qoplamga ega xromli oshlangan charmdan maxsus poyabzal tayyorlash maqsadga muvofiq (2-variant).

Tadqiqot natijalarini amalda qo'llash uchun taklif qilinayotgan konstruksiyalardan biri bo'yicha tanavorni yig'ish texnologiyasi ishlab chiqilgan, 6-ildavda keltirilgan yelimli yig'ish operatsiyalarining texnologik kartasi ishlab chiqilgan.

Xulosa: Turli kasblar (konchilar, payvandchilar va h.k.) uchun yuqori xaroratlardan himoyalovchi maxsus poyabzal konstruksiyalarining turli variantlari ishlab chiqilgan.

Poyabzal ichidagi bo'shliqqa ventilyasiyaga ega maxsus poyabzal konstruksiyalari variantlari ishlab chiqilgan. Poyabzalning ichidagi bo'shliq va tashqi muhit orasida havo almashinuvi poyabzal ichidagi xaroratni ventilyasiyalanmaydigan poyabzalga nisbatan 3-4⁰C ga pasaytirishga imkon beradi.

Tag qismi uchun issiqlikdan himoyalovchi element ishlab chiqilgan bo'lib, uning qo'llanilishi poyabzalning issiqlik qarshiligini oshiradi.

Tanavorning detallarini birlashtirishning turli usullari va detallarni birlashtiruvchi choklarni himoyalashning variantlari tahlil qilinigan. Aniqlanganki, ishlab chiqilayotgan maxsus poyabzal uchun tanavor detallarini yig'ishning yelimli usuli eng rasional hisoblanadi.

Turli xildagi yelimlar tadqiq qilingan va yaratilayotgan maxsus poyabzal tanavorini yig'ish uchun eng termochidamli bo'lgan «Desmokoll-400» kauchugi asosidagi poliuretan yelim tanlangan.

Reference

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini Rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli farmoni.
2. One Part silicon jealant // Rubber world 2015.-v.194.- № 4.-p.101.

3. J. Hausding, O. Diestel. Textile materials for lightweight constructions: Technologies-Methods-Materials-Properties, Chapter// Pre-impregnated Textile Semi-finished Products (Prepregs). -2016. -R. 361-379.

4. U. Maksudova, M. Ilkhamova, N. Mirzayev and D. Pazilova Research of footwear lining materials thermoconductive Properties// 17th World Textile Conference AUTEX 2017-Textiles - Shaping the Future. -2017. –R. 1-6. <http://iopscience.iop.org/article/10.1088/1757-899X/254/23/232007>.

5. GOST 22307 Klei obuvniye.Ispitaniye prochnosti kleyevix soyedineniy na sdvig i rasslaivaniye-Izm.№ 1;.Vved 01.07.77 do 01.07.90. –M. Izd-vo standartov 1976-UDK 668.395.001.4: 685.31: 006.354-Gruppa M.10

6. N.V.Volkov, V.I.Skritniy, V.P.Filippov, V.N.Yalsev. Pod obsh. red. B.A.Kalinina. Fizicheskoye materialovedeniye // Tom 3. Metodi issledovaniya strukturno-fazovogo sostoyaniya materialov. -Moskva. «MIFI». -2008. –S. 808.

7. Texnologiya proizvodstva obuvi. Chast VII. Retseptura kleyev, otdelochnix i vspomogatelnix materialov, metodi ix prigotovleniya i primeneniY.-M.:SNIITELP, 1978.-89 s.

8. U.M.Maksudova, D.Z.Pazilova, A.S.Rafikov, N.B.Mirzayev, Z.N.Abdurakhimov Heat-protective properties of lining materials for insulated shoes // International Journal of Advanced Research in Engineering and Technology (IJARET) Volume 11, Issue 11, November 2020, pp. 453-460, Article ID: IJARET_11_11_040.

9. N.B.Mirzayev, A.S.Rafikov, S.Sh Alimkhonova, T.A.Pulatov Obtaining, Microstructure and Morphology of Nonwoven Fabric Based on Camel Wool // Annals of R.S.C.B., ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 5, 2021, Pages. 3748 - 3762 Received 15 April 2021; Accepted 05 May 2021.

10. Ibragimov A.T. Axmedov D.Z. Maksudova U.M. Rafikov A.S. Issledovaniye teoreticheskix osnov texnologii primeneniya polimernix kompozitsionnix materialov dlya niza obuvi /«Texnich. regulirov.: bazovaya osnova kachestva materialov, tovarov i uslug», 8 vipusk, - Shaxti. -2015. -S. 403-408.

11. C. Nam, Y.-A. Lee, Multilayered Cellulosic Material as a Leather Alternative in the Footwear Industry// Clothing and Textiles Res. -2019. V.37 (1) –P. 20-34. DOI: 10.1177/0887302X18784214.

12. N.B.Mirzayev, A.S.Rafikov, S.Sh Alimkhonova, T.A.Pulatov Obtaining, Microstructure and Morphology of Nonwoven Fabric Based on Camel Wool // Annals of R.S.C.B., ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 5, 2021, Pages. 3748 - 3762 Received 15 April 2021; Accepted 05 May 2021.

13. U.M.Maksudova, A.S.Rafikov, N.B.Mirzaev. Theoretical foundations of obtaining lining composite materials // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. -2018. V. 5. (10). –R. 6994-6996.

14. Aleksandrov S.P. Proizvodstvo rabochey i spetsialnoy obuvi na lityevix agregatax DESMA // Kojevenno-obuvnaya promishlennost. -2006. №4. –C. 37-41.

15. Dypovin A.YE. Metodi opredeleniya teplozashitnix svoystv obuvnix materialov v obuvi / A.E.Dupovich, D.S.Lichnikov.Obzori po osnovnim napravleniya razvitiya otrasli. Obuvnaya promishlennost.Vip.1.-M: SNIITELP,1984.-36 s.

16. Barashuk V.I, Krendenser.B.P., Miroshnichenko V.I. Planirovaniye eksperimenta v texnike.-Kiev:Texnika, 1984.- 200s.

**YIRIK SHOXLII MOL TERILARINI GETEROTSIKLIK ISHTIROKIDA
OSHLASH VA UNING GEDROTERMIIK BARQARORLIGI XAMDA MORFOLOGIK
TAXLILI****Qodirov T.J., Burxonov D.B.***Tashkent Institute of Textile and Light Industry*

Annotatsiya. Tadqiqot davomida yirik shoxli mol terilariga chet davlatlardan keltirilgan oshlovchi kimyoviy moddalar o‘rniga mahalliy oshlovchi kimyoviy moddalardan foydalanib oshlash texnologiyasi yaratilgan. Mazkur ishda ilk marotaba yirik shoxli mol terisiga oshlash uchun furfurool oshlovchi ishlatish imkoniyatlari o‘rganib, mol terisining fizik-kimyoviy xossalari tadqiq etildi. Bunda yirik shoxli mol terilarini gedrotsiklik birikmalari yani (furfurool) asosida oshlangan yirik shoxli mol terisining 3 ta tajriba namunalari va an’anaviy usulda oshlangan yirik shoxli mol terisini mikrofoto tasvirlari keltirilgan. Ushbu variantlarimizning kurinishi 3 xil mikrofoto tasvirda keltirib utilgan yuza sirti, biqin qismi, xamda baxtarma tomoni tanlab olindi va RoHS rusumdagi (2 mPa raqamli kamera bilan jihozlangan), raqamli optik mikroskopda bu namunalarning yuza va ichki struktura morfologik-konformatsion o‘zgarish natijalari keltirilgan va u asosida furfurool oshlovchisi bilan yirik shoxli mol terilariga ishlov berilgan. Tajriba sinov natijalarini bir biri bilan taqqoslash uchun ikkita bir xil yirik shoxli mol teri xom ashyolari tanlab olingan bo‘lib, bu terilarni an’anaviy oshlash usuli bilan oshlash va furfurool oshlovchisi asosida oshlash jarayonlari texnologiya asosida olib borilgan va bu usullar bilan oshlangan charmlarning natijalari bir biri bilan taqqoslab chiqilgan. An’anaviy oshlash usuli bilan oshlangan va furfurool oshlovchisi asosida oshlangan yirik shoxli mol terilarining oshlash jarayoniga ta’siri o‘rganilib furfurool oshlovchi ishtirokida oshlangan charmlar yuqori gidrotermik barqarorlik, ko‘rsatgichlariga erishilgan hamda furfurool oshlovchisi asosida oshlangan yirik shoxli mol terilar kompleks xossalarga ega bo‘lgan xamda GOST 939-2021 talablariga muvofiq bo‘lib, furfurool oshlovchi ishtirokida oshlangan charmlar yuqori gidrotermik barqarorlik, oshlanganlig darajasi va morfologik taxlil natijalari qayd etilgan.

Kalit so‘zlar: Furfurool, oshlovchi, charm, yuvish, ivitish, kullash, yumshatish, pikellash, oshlash, destruksiya, kompleks, fizik-kimyoviy, xossalar, morfologik taxlil va oshlanganlik darajasi.

Аннотация. В ходе исследований была разработана технология дубления шкур крупного рогатого скота с использованием местных дубильных веществ вместо импортируемых из-за рубежа. В данной работе впервые изучены возможности использования фурфурольного дубителя для дубления шкур крупного рогатого скота, а также исследованы физико-химические свойства шкур крупного рогатого скота. Сюда входят три экспериментальных образца бычьих шкур, дубленых гидроциклическими соединениями (фурфуролом), и микрофотографии бычьих шкур, дубленых традиционным методом. Внешний вид этих вариантов был представлен на 3 различных микрофотографиях, были выбраны поверхность, боковая сторона и лицевая сторона, и результаты морфологических и конформационных изменений поверхности и внутренней структуры этих образцов были представлены с использованием модели RoHS (оснащенной цифровой камерой 2 МПа), цифрового оптического микроскопа, и на основании этого фурфуроловый краситель был использован для обработки шкур крупных рогатых животных. Для сравнения результатов экспериментальных испытаний были выбраны две идентичные шкуры крупного рогатого скота. Эти шкуры были выдублены традиционным методом и выдублены фурфуроловым дубителем, и результаты выдубленных этими методами кож были сравнены. Изучено влияние процесса дубления на дубленые шкуры крупного рогатого скота, выделанные традиционным способом и дубленые фурфуроловым дубителем. Кожи, выделанные фурфуроловым дубителем,

достигли высокой гидротермической устойчивости, а кожи, выделанные фурфуроловым дубителем, обладали комплексными свойствами и соответствовали требованиям ГОСТ 939-2021. Отмечены результаты морфологического анализа кож, выделенных фурфуроловым дубителем.

Ключевые слова: Фурфурол, осветлитель, кожа, промывка, сварка, зола, размягчение, пикелирование, осветление, деструкция, комплекс, физико-химические свойства, морфологический анализ и степень осветления.

Abstract. During the research, a technology was developed for tanning cattle hides using local tannins instead of imported ones from abroad. In this work, for the first time, the possibilities of using furfural tanning agent for tanning cattle hides, as well as the physico-chemical properties of cattle hides, were studied. This includes three experimental samples of cattle hides treated with hydrocyclical compounds (furfural) and micrographs of cattle hides treated in the traditional way. The appearance of these variants was presented on 3 different micrographs, the surface, sides and faces were selected, and the results of morphological and conformational changes in the surface and internal structure of these samples were presented using an RoHS model (equipped with a digital camera with a pressure of 2 MPa), a digital optical sensor. using a microscope and based on it, the furfural dye was obtained for processing the skins of large horned animals. Two identical hides of cattle were selected to compare the results of experimental tests. These hides were processed in the traditional way using furfural tanning agent, and the results of tanning the hides with these methods were compared. The influence of the tanning process on cured cattle hides prepared in the traditional way using furfural tanning agent was studied. The skins treated with furfural tanning agent had high hydrothermal stability, and the skins treated with furfural tanning agent had complex properties and met the requirements of GOST 939-2021. The results of morphological analysis of leathers isolated using furfural tanning agent are presented.

Keywords. Furfural, curing, leather, washing, cooling, ashing, softening, pickling, curing, destruction, complex, physico-chemical, properties, morphological analysis and degree of curing

Kirish. Jahonda charm va mo'yna xomashyolarini oshlash texnologiyasida ekologik muammolarga olib kelayotgan, suvda yaxshi erimaydigan, suv havzalarini zaharlovchi xrom oshlovchilarining miqdorini kamaytirish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda yirik shoxli mol terilarini jahon bozorida asosiy ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchi davlatlar Xitoy, Braziliya, Hindiston, Argentina davlatlari yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Hozirgi vaqtda yirik shoxli mol teri to'qimasi 47 % Xitoy, Braziliya va Hindiston, mayda shoxli mol ya'ni qo'y teri to'qimasi 33 % va echki teri to'qimasi 79 % Xitoy, Hindiston, Turkiya va Bangladesh davlatlari charm sanoatida ishlanadi va afg'oniston xelsinki aukSIONIDA (Finnish Furs) va qisman Kopengagenda sotiladi, hamda xossalari bo'yicha mavjud materiallardan ustun, yangi maxsus materiallarga bo'lgan ehtiyoj iqtisodiyot turli tarmoqlarining o'sib boruvchi talablarini qondirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Dunyo miqyosida 90 % dan ortiq charm va mo'yna mahsulotlari xrom oshlovchilari ishtirokida ishlab chiqariladi. Bu borada, jumladan suvda to'liq eriydigan, oqava suvlarini zaharlamaydigan, inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan, terining strukturaviy elementlari bilan oson kimyoviy bog'lar hosil qiladigan va teri strukturasi bilan yuvilmaydigan oshlovchilar asosida teriga chuqur ishlov berish texnologiyasiga hamda tayyor mahsulot sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda yetishtirilayotgan charm va mo'yna xomashyolarini qayta ishlash asosida, mo'ynachilik mahsulotlarini tayyorlash, ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish, jumladan mol teri xom-ashyolarini chuqur qayta ishlash natijasida raqobatbardosh va qimmatbaho mo'yna assortimentlarini kengaytirish orqali eksport salohiyatini

o'shishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish" kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish, jumladan mahalliy xom ashyolardan samarali foydalanish, import o'rnini bosuvchi va eksportbop raqobatbardosh hamda xossalari yaxshilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2018 yil 14 martdagi PQ-3603 son «Charm va muyna ishlab chiqarish sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», hamda charm-poyabzal va farmatsevtika sanoatidagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarorlaridaxam mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi [1].

Oshlashning maqsadi charm ishlab chiqarish terini yuqori sifat kursatkichlarini xamda kimyoviy materiallarni suvli eritmalarida ketma-ketlik bilan mexanik ta'sir ettirish orqali ishlov berish, texnologiya asosini tashkil etadi.

Yirik shoxli mol terilarini oshlashda ko'p yillik tajribasi, texnologik yechimlarning mavjud bo'lishiga qaramay juda ko'plab miqdorda suvni sarflash, bokira, chuchuk suv havzalariga oqava suvlarni tashlash bilan bog'liq bo'lib, qat'iy o'zgarishlar hanuzgacha bo'lmayapti. Ekologik muammolarni hal etishdagi tub o'zgarishlar faqatgina suyuqlik bilan ishlov berishning yoki boshqa yangi texnologiyalarini yaratishdan iboratdir.

Ayni paytda ekologik muammolar tufayli ekologik toza «Yashil charm, mo'yna»da xromning ayniqsa og'ir metallarning tuzlari cheklangan bo'lishi shart qilingan bo'lib, chiqindi miqdori minimal bo'lishi lozim. Turli mamlakatlarda oqava suvlarning meyorlari turlicha.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning standartlarida tashlab yuboriladigan Cr(III) 1,5-5,0 mg/l, Cr(VI) 0,1-0,5 mg/l, va charmda 0 mg/kg belgilangan.

Xromlangan charm va mo'yna tarkibida kam zaharli III valentli xrom mavjud bo'lib, uning qo'llanilishiga hozircha ruxsat etilgan.

Ammo, suyuq oqava yoki qattiq chiqindilar bilan muomalada mavjud qonun va qoidalarga rioya etish talab etiladi[2].

